

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Toshtemirov Akram Mengli o‘g‘li

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOG‘OLDI AHOLISINING XO‘JALIK-
MADANIY AN‘ANALARI
(Surxondaryo viloyati misolida)

Monografiya

UO‘K: 37.015.3(575,1)

KBK: 88.8

Toshtemirov Akram Mengli o‘g‘li

“Mustaqillik yillarida tog‘oldi aholisining xo‘jalik-madaniy an‘analari (Surxondaryo viloyati misolida)”. – Monografiya. 2024,110 b.

Mas‘ul muharrir:

Ya.X. Gaffarov,
tarix fanlari nomzodi, professor.

Taqrizchilar:

O.M.Normatov,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
B.A.Odilov,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mazkur monografiyada o‘lkamiz janubiy hududi bo‘lmish Surxon vohasi tog‘oldi aholisi xo‘jalik sohasidagi o‘ziga xosliklar hamda o‘zgarishlar, ushbu sohada o‘rganilishi kerak bo‘lgan va yechimini kutayotgan dolzarb muammolar, vohaning tog‘oldi hududlari xo‘jalik turlarining hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan an‘ana va marosimlari, ularning ahamiyati hamda bozor munosabatlari sharoitida transformatsiyaga uchrashi va rivojlanishi, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tilishining an‘anaviy xo‘jalik sohalariga ijobiy va ma‘lum doirada ta‘sirlari haqida so‘z boradi. Bugungi kunda yurtimizdagi mintaq va hududlar tarixini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etayotgan, globallashuv ta‘siri barcha sohalarida aks etayotgan bir davrda ushbu monografiya o‘zining dolzarbligi va ahamiyatliliigi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mustaqillik davri ancha kam o‘rganilgan davr hisoblanganligi bilan monografiyaning davriy chegarasi ham tarix sohasi uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu ishda mustaqillik arafasidagi hamda mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida mualliflik ilmiy farazlari hamda tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan. Monografiyaning dolzarbligi asoslanilgan, ob‘ektning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Monografiya oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor o‘qituvchilar, umumta‘lim maktab o‘qituvchilari va talaba-yoshlar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024-yil ____-noyabrdagi ____-sonli yig‘ilish qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-686-52-8

© Buriyeva K.E. 2024
© “Dimal” nashriyoti, 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. SURXON VOHASI TOG‘ VA TOG‘OLDI MINTAQALARINING TADQIQ ETILISHI HAMDA VOHADAGI ETNOIQTISODIY HAYOT.....	14
1.1. Tog‘ va tog‘oldi hududlari aholisining xo‘jalik an‘analarining o‘rganilishi.....	14
1.2. Tog‘ va tog‘oldi mintaqalari aholisi etnoiqtisodiy hayotida xo‘jalik an‘analari	27
II BOB. SURXONDARYO TOG‘OLDI AHOLISI XO‘JALIK AN‘ANALARINING LOKAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING RIVOJI.....	42
2.1. Tog‘oldi hududi aholisining dehqonchilik xo‘jaligi bozor munosabatlari sharoitida	42
2.2. Bog‘dorchilik sohasidagi ana‘analar va yangilanishlar	49
2.3. Chorvachilikdagi ana‘analar va ularda kuzatilgan transformatsiya jarayonlari	61
III BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA TOG‘OLDI AHOLISINING IQTISODIY HAYOTIDA HUNARMANDCHILIKNING O‘RNI	77
3.1. Tog‘oldi hududlarida uy hunarmandchiligining etnografik xususiyatlari	77
3.2 Hunarmandchilik sohasidagi o‘zgarishlar tavsifi.....	96
XULOSA	119
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	123

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi mamlakatlarga xalqaro iqtisodiy aloqalarni tarkibiy jixatdan takomillashtirishga, milliy iqtisodiyotni rivojlantirib, mintaqaviy integratsion jarayonlarga ishtirok etish imkoniyatini berayotgan davrda xalqlarning xo‘jalik yuritish madaniyatida ham integrasiyalashuv jarayonini tezlashtirmoqda. Shuningdek, insonlar o‘zining globallashtirish davrida o‘zlariga qulay iqtisodiy imkoniyatlar yaratish yo‘lida yer, suv va umuman tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ortib borishi xo‘jalik sohasida innovatsion tizimni yaratish, ekologiya va bioxilmaxillikni saqlab qolish, turli xalqlar va mintaqalarga xos bo‘lgan xo‘jalik tajribalari va an‘analarini o‘rganish masalalari naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Yer yuzida yashovchi barcha xalq va elatlarni asriy sinovlardan o‘tgan o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy an‘analarini etnologik va etnosotsiologik o‘rganish, ularning turli tarixiy-madaniy mintaqalarni bog‘lovchi etnointegratsion funksiyasini yoritish, milliy, madaniy va lokal-mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash jahondagi yetakchi ilmiy markazlarda tadqiq etilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimida zamonaviylashuv jarayoni, xo‘jalik hayotining rivojlanish tendensiyalari, xo‘jalik-madaniy an‘analarning transformasiyasi va ularning ijtimoiy xayotga ta‘sirini etnografik tadqiqot usullarida o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish borasida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish kabi masalalar dolzarb vazifa etib belgilandi. O‘zbekistonda agrar munosabatlar va an‘anaviy xo‘jalik masalalari borasida tarix sinovlaridan o‘tgan xalq amaliy tajribalarini o‘rganish tarix,

etnologiya, arxeologiya kabi ijtimoiy fan tarmoqlarining asosiy ustuvor ilmiy yoʻnalishlarini tashkil etdi. Bu kabi xoʻjalik masalalari doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tarixiy bilimlarning rivojlanish dinamikasini turli tarixiy davrlar kontekstida koʻrsatib berish nafaqat ilmiy, ayni paytda amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktabrdagi PF-5199 sonli “Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xoʻjaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242 sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi farmonlari hamda 2018 yil 20 noyabrdagi PQ- 4021 sonli “Xalqaro qishloq xoʻjaligi taraqqiyoti jamgʻarmasi ishtirokidagi Qishloq xoʻjaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Dissertatsiyada aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida anʼanaviy xoʻjalik va u bilan bogʻliq marosim va urf-odatlarining saqlanishi hamda zamon talabidan kelib chiqqan holatda maʼlum oʻzgarishlarga uchrashi holati oʻzbek xalqi jumladan, Surxondaryo viloyati togʻoldi aholisining xoʻjalik-madaniy anʼanalarini tarixiy-etnografik aspektda tadqiq etilishi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

SURXON VOHASI TOG‘ VA TOG‘OLDI MINTAQALARINING TADQIQ ETILISHI VA VOHADAGI ETNOIQTISODIY HAYOT

1.1. Tog‘ va tog‘oldi hududlari aholisi xo‘jalik an‘analarining o‘rganilishi

Hozirgi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadallashuvi xalqlarning xo‘jalik yuritish madaniyatida integrasiyalashuv jarayonini tezlashtirmoqda. Insoniyatning hayot ta‘minotini yaratish yo‘lida tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ortib borishi ishlab chiqarishning intensiv va samarali tizimini rivojlantirish, ekologiya va bioxilmaxillikni saqlab qolish, turli xalqlar va mintaqalarga xos bo‘lgan xo‘jalik tajribalari va an‘analarini o‘rganish masalalari naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tarixshunos A.Doniyorovning yozishicha, boshqa biron ijtimoiy fan etnografiya fanichalik xo‘jalik va madaniy qurilish amaliyoti bilan bu qadar uzviy bog‘lanmagan edi¹. Dunyo xalqlarining o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy an‘analarini etnologik va etnosotsiologik o‘rganish, ularning turli tarixiy-madaniy mintaqalarni bog‘lovchi etnointegratsion funksiyasini yoritish, milliy, madaniy va lokal-mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash jahondagi yetakchi ilmiy markazlarda tadqiq etilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari iqtisodiy munosabatlar tizimida xo‘jalik hayotining rivojlanish tendensiyalari, an‘anaviy xo‘jalik turlarining transformasiyasi va ularning taraqqiyot dinamikasini tarixshunoslik aspektida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Yurtimizda erkin bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda keng mulkdorlar qatlamining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar dolzarb vazifa kasb etib belgilandi. O‘zbekiston tarixida iqtisodiy munosabatlar, agrar sohadagi o‘zgarishlar, o‘zbek xalqining an‘anaviy xo‘jalik tizimi, uning taraqqiyot dinamikasi kabi masalalarga

¹ Doniyorov A. X. O‘zbekiston etnografiyasi tarixidan ayrim lavhalar (XX asrning 20–80- yillari). – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 3.

bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq xo'jalikning turli tarixiy davrlardagi rivojlanish tendensiyalarini alohida mintaqalar misolida o'rganish masalasiga bir qadar kam e'tibor berilgan. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan xo'jalik munosabatlarini tarixiy-xronologik izchillik, hududiy-muammoviy yondashuv asosida ochib berish vatanimiz tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o'rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mintaqa taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega"². O'zbekistonda agrar munosabatlar va an'anaviy xo'jalik masalalari borasida tarix sinovlaridan o'tgan xalq amaliy tajribalarini o'rganish tarix, etnologiya, arxeologiya kabi ijtimoiy fan tarmoqlarining asosiy ustuvor ilmiy yo'nalishlarini tashkil etdi. Bu kabi xo'jalik masalalari doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tarixiy bilimlarning rivojlanish dinamikasini turli tarixiy davrlar kontekstida ko'rsatib berish nafaqat ilmiy, ayni paytda amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxon xalqining shakllanishi uzoq tarixiy davr va murakkab etnik jarayonlar bilan bog'liq. Ushbu xalq tarixining qadimiyligi, tabiiy geografik joylashuvi va iqlim sharoiti ming yillar davomida o'ziga xos an'ana va qadriyatlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Mazkur an'analar qatorida xalqning iqtisodiy hayotida muhim omil hisoblangan xo'jalik tarmoqlari alohida o'rin tutib, ularni dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalarida kuzatish maqsadga muvofiq.

Taqdim etilayotgan monografiyada aynan xo'jalikning dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalariga oid etnografik va arxeologik ishlarni tahlil etish va turli davrlarga xos xususiyatlarini ochib berish, xalq turmush tarzida xo'jalik munosabatlarining tutgan o'rnini aniqlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. XX asrning birinchi choragidan boshlab O'rta Osiyo xalqlari, xususan, Janubiy O'zbekiston etnografiyasini o'rganish borasida kundaliklar, statistik xarakterdagi adabiyotlar bilan birgalikda bir qadar

² Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – B. 279..

ilmiy asosdagi tadqiqotlar ham amalga oshirila boshladi. Jumladan, A.A.Semyonov, A. Snesev, N.F.Sitnyakovskiy, D.N.Logofet, S.Neustruev³ kabi tadqiqotchilarning etnografik materiallarga boy asarlari XX asr boshlarida voqea aholisining etnik tarkibi, turli xo‘jalik an‘analari haqida muhim ma‘lumotlarni beradi. Janubiy O‘zbekiston hududlari aholisining etnik tarixi masalalari borasida 1945 yildan boshlab to XX asrning 80-yillarigacha ilmiy tadqiqotlar olib borgan etnograf olimi B.X. Karmisheva⁴ tadqiqotlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1960-1980 yillar etnografik va arxeologik tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaygan, arxeologlar va etnograflarning o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan yangi avlodi shakllangan davr hisoblanadi. Sobiq sovet davlatida ijtimoiy rivojlanishning ekstensivlik xususiyati, ya‘ni turg‘unlik davri bo‘lishiga qaramay, etnografik tadqiqotlarda muhim siljishlar ro‘y berdi. Shuni ta‘kidlash joizki, tavsiflanayotgan davr O‘zbekiston etnografiya va arxeologiya fani rivoji avvalgi yillarga qaraganda g‘oyat sermahsul kechdi. 1960–1980 yillarda etnografiya fanida fundamental tarixiy-etnografik tadqiqotlar muhim o‘rin egallay boshladi. Ya‘ni, ma‘lum bir tarixiy davr miqyosida muammo mohiyatini ochib berishga alohida urg‘u berildi. Ushbu davrda etnograf mutaxassislar tomonidan aynan xo‘jalik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan va pirovard natijada bir qancha ilmiy to‘plamlar nashr etilgan. Ularda surxonliklar va umuman, o‘zbek xalqining an‘anaviy xo‘jalik xususiyatlari, sug‘orish va irrigasiyasiga doir etnografik va tarixiy materiallar bayon qilingan.

1961-62 yillarda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi tomonidan Surxondaryo viloyatiga uyushtirilgan ekspeditsiya natijalari sifatida M.Sultonov “Surxondaryo oblastida etnografik kuzatishlar” nomli maqola e‘lon qildi⁵. I.Xidoyatov⁶ esa

³ Семёнов А.А. По границам Бухары и Афганистана. (Путевые очерки) // Исторический вестник. СПб. т.88. – М.: 1902. – С 621 ; Снесев А. Восточная Бухара (Военный-географический очерк), // СМА, СПб.,–М.: 1906; Ситняковский Н.Ф. К генеалогической таблице узбеков рода Кунград // ИТОРГО. Т.: 1907 – С 76; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом, т.1, СПб., 1911.– С 14-15; Неуструев.С. Путешествие в южную Бухару и исследование Шерабадской долины. П.: 1915.– С 120.

⁴ Кармышева В.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: 1976. – С. 29.

⁵ Султанов М. Этнографические наблюдения в Сурхандарьинской области.// Материалы по истории Узбекистана. – Т.: 1966. – С. 71-72.

⁶ Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана, // Из истории культуры народов Узбекистана. Сборник статей. – Т.: 1965. – С. 123; Хидоятлов И. О характере сельского хозяйства

aholining etnik tarkibi, Sariosiyo va Denov tumani aholisining qishloq xo'jalik mashg'ulotlari xususiyatlarini o'rganish uchun tadqiqotlar olib bordi.

Janubiy O'zbekiston aholisining etnik tarixi borasida tadqiqotlar olib borgan I.M.Jabborov⁷, O.Bo'riev, M.Usmonovlar⁸ning qator maqola va monografiyalarida tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha muhim ma'lumotlar aks etgan va ushbuda o'z o'rnida foydalanildi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan etnografik tadqiqotlar yangicha nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o'ziga xos tarzda rivojlana boshladi. O'zbekiston olimlarining jahondagi ilg'or ilmiy markazlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatishi, ularning tajribalari va ilg'or yo'nalishlari bilan tanishishi natijasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifat va metodologik jihatdan boyidi. Ayniqsa, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Germaniya va Xitoy kabi qator xorijiy mamlakatlardagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik va tajriba almashinuv o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

Mazkur davrda tadqiqotchilar etnografiyaning kam o'rganilgan yoki umuman o'rganilmagan muammolariga murojaat qilgan holda, sifat jihatidan yangicha tadqiqotlar ustida ishlay boshladilar. Ushbu jarayonni O'zbekiston etnografiya fanining ilmiy tadqiqot faoliyati muayyan darajada tahlil qilingan, nazariy asoslari, rivojlanish istiqbollari o'z ifodasini topgan nazariy-uslubiy va umumlashtiruvchi tadqiqotlardan ham bilib olish mumkin.

Tog'oldi aholisi iqtisodiy-xo'jalik faoliyati, xo'jalik-madaniy an'analari bilan bog'liq urf-odat va marosimlari, tabiatni, yer va suvni e'zozlash bilan bog'liq qarashlari kabi mavzular tarixiy-etnografik va etnologik tadqiqotlarda keng

многонациональных районов Сурхандарьинской области в дореволюционной время. // СЕ. – 1970. – №2. –Т.: – С. 133-134.

⁷ Жабборов И. М. Этнический состав населения долины Сурхана / Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – B.: 2002. – B.190.

Bo'riyev O. O'zbekiston janubiy viloyatlari aholisi etnik tarkibining o'ziga xosligi.(XIX oxiri – XX asr boshlari) //An'anaviy xalq madaniyatini saqlash muammolari. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – B.: 2003. – B.73; Janubiy O'zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik va milliy g'oya. T.: 2001.– B.206-207; Bo'riyev O., Usmonov M. O'zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar. – S.: 2008. – B. 201 ; Bo'riyev O. Chig'atoylar etnik tarixidan / Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 1-qism. – T.: 2005. – B. 138; Bo'riyev O. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik va milliy g'oya. T.: "Akademiya" 2001. – B. 206; Qatag'on etnosi haqida ba'zi mulohazalar. // Mustaqil O'zbekiston va millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. T.: ToshDU. 1995. –B. 10.

o'rganila boshladi. Albatta, xo'jalik masalalarini o'rganishda turli fan yo'nalishlarining hamkorligi o'z samarasini bera boshladi.

Tarixiy-etnografik tadqiqotlar bilan tanishuv jarayonida ayon bo'ldiki, ularning aksariyati davr jihatidan XIX asrning oxiri – XX asr boshlarini o'z ichiga olgan. Xo'jalik masalalariga o'ziga xos yondashuv XXI asr boshlaridan boshlangan etnologik tadqiqotlarda namoyon bo'la boshladi. Jumladan, A.Ashirov, A.Qayumov, S.Tursunov, E.Qobilov, M.Fayzullaeva, T.Pardaev, B.Odilov, Ya.Turdimuratov va S.Davlatovalarning tadqiqotlarida nafaqat an'anaviy xo'jalikdagi o'ziga xosliklar, balki qishloq aholisining zamonaviy xo'jalik hayotidagi o'zgarishlar va bozor munosabatlariga moslashuvchanlik mexanizmlari ham tahlil etilgan.

Surxon vohasi tog'oldi mintaqa aholisining etnik xususiyatlari borasida professor Sayfullo Tursunov⁹ ning qator kitoblarida muhim ma'lumotlar aks etgan. Ularda olim tomonidan olib borilgan etnografik va etnologik dala tadqiqotlari natijasida to'plangan o'z aksini topgan. Etnologiya yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan N.Tursunov va A.Qurbonovlar¹⁰ Janubiy va Shimoliy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati aspektida aholining etnik tarkibi, joylashuv xususiyatlariga ham to'xtalib o'tganlar.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish o'rinliki, O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisining etnik tarkibi va xususiyatlari bo'yicha A.Qayumovning¹¹ turli yillar davomida olib borgan tadqiqotlaridan ham ushbu monografiyani yozishda foydalanildi. O'zbek xalqining, shu jumladan Surxon vohasi tog'oldi aholisi xo'jalik hayotida aks etgan qadimiy diniy e'tiqodlar ildizlari masalalari A.

⁹Tursunov S. va boshq. O'zbekiston tarixi va madaniyati // Surxondaryo etnografiyasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. –B 205; Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.: 2008. – B 81..

¹⁰ Tursunov N.Этнические особенности населения южносурханского оазиса (конец XIX - начало XX века). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т.: 2006. – С 31 ; Tursunov N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. – T.: Yangi nashr, 2015.– B 11; Курбонов А. Этнические и локальные особенности традиционной культуры жителей Северосурханского оазиса (конец XIX–первая половина XXв.) Автореф. дисс.. канд. ист. наук.– Т.: 2009. – С 30.; Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi. – T.: “Yangi nashr”, 2014. – B. 158.

¹¹ Qayumov A. Sherobod vohasi aholisi (XIX – XX asr boshlari) //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – T.: 1998. – № 3. – B. 34.; Qayumov A. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vodiysidagi etnik jarayonlarning ba'zi omillari. // O'zbekiston tarixi. № 4. – T.: . –2001. – B. 27.; Qayumov A. Xo'jalik - madaniy tiplar va etnik differentsiatsiya masalalariga doir (Surxon-Sherobod vodiysi materiallari asosida) // O'zbekiston tarixi. № 3. – T.: 2008.– B. 61-62.

; Этническая ситуация на территории южного Узбекистана в XIX – начале XX века (по материалам Сурхан – Шерабадской долины). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т.: 2011. – С. 31.

Ashirov¹²ning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Uning “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalida e‘lon qilingan “Avesto va dehqonchilik an‘analari xususida ayrim mulohazalar” nomli maqolasi tog‘oldi hududi mahalliy aholisining turmush tarzida uchraydigan ko‘pgina urf-odatlar va marosimlarning tarixiy negizi zardushtiylik bilan bog‘liq ekanligi haqida muhim xulosalar chiqarilgan. Muallif “Avesto”da uchraydigan dehqonchilik va chorvachilikka bag‘ishlangan ma‘lumotlarni tahlil qilib, bu davrdagi urf-odat va an‘analarning ayrimlari bugungi kunda ham xalq turmush tarzida ma‘lum darajada saqlanib qolganligini ta‘kidlaydi.

Ma‘lumki, hududiy-muammoviy yondashuv asosida o‘rganilgan mavzularda qo‘yilgan muammoni batafsil yoritish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi. Shu jihatdan O‘zbekistonning janubiy mintaqalari hamda respublikaning o‘ziga xos “etnografik qo‘riqxonasi” nomini olgan Boysun hududini arxeologik, etnografik, folklorshunoslik tadqiqotlari asosida o‘rganishda an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Boysun bahori” xalqaro ilmiy konferensiyasi va shu maqsadda YUNESKO hamkorligida o‘tkazilgan ekspeditsiya materiallarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Ayniqsa, unda O.Bo‘riev, H. Kichkilov, A. Ashirov, F.Rahmonov, A.Qayumov, E.Qobilov kabi olimlarning maqolalari, Shuningdek, A.Ashirov va A. Qayumovlar tomonidan Boysun xalqaro ekspeditsiyasi doirasida mintqa aholisining an‘anaviy turmush tarzi o‘rganilgan¹³, ushbu ekspeditsiyalarda to‘plangan boy etnografik materiallar xo‘jalik masalalarini o‘rganishda muhim o‘rin egalladi. “Boysun bahori” folklor festivali doirasida o‘tkazilgan ilmiy anjuman materiallarida o‘zbek xalqining tabiat bilan bog‘liq qarashlari (A.Ashirov), xotin-qizlarning hashar udumlari (F.Rahmonov), qishloq jamoasida paykal tizimi (O.Bo‘riev), kishilarning tabiiy ofatlarga munosabati, lola sayli masalalari (M.Qurbonova, B.Tursunov va A.Qurbonov) kabi xo‘jalik munosabatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan maqolalar ham berilgan. Masalan, A.Ashirovning “O‘zbek xalqining tabiat bilan bog‘liq sayllari”

¹² Ashirov A. On the problem of initiation and cyclical in Uzbek family ceremonies in the 20th century // XXth Century in the history of Central Asia. –T.: 2004. –P. 61-62.

¹³ Ashirov A., Qayumov A. Boysun aholisining an‘anaviy turmush tarzi: o‘tmishda va hozirda // Boysun tarixi va an‘analari. –T.: 2005. – B. 97 (o‘zb. til).

nomli maqolasida tabiat bilan bog‘liq sayllar bahor faslining boshlanishi, aniqrog‘i tabiatning jonlanishi, dehqonchilik yumushlarining boshlanishi bilan bog‘liq xalq an‘analari haqida muhim ma‘lumotlar beradi.

Surxon vohasi tog‘oldi hududi aholisining xo‘jalik-madaniy an‘analarini tadqiq qilishda shuningdek, K. Shoniyozov, I. Jabborov, K. Imomov, S.K. Mirhosilov, D.A. Faxritdinova, Ye.M. Peshchereva, M.S. Andreev, Z.P. Sokolova, M.R. Raximov, A.O. Orazov, A. Narziqulov, M. Ubaydullaeva, Sh.Ustaevlarning ishlari ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁴. Surxondaryo viloyati Boysun, Sherobod, Denov va Oltinsoy tumanlari, ya‘ni Surxon vohasi tog‘oldi hududi aholisining etnik xususiyatlariga bag‘ishlangan S.Tursunov ilmiy tadqiqotlarida an‘anaviy xo‘jalik masalasi ham keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot ham masalani qiyosiy o‘rganishda va bir-birini to‘ldiruvchi material sifatida ma‘lum ma‘noda monografiyamiz uchun ahamiyatlidir¹⁵.

O.Bo‘riev Janubiy O‘zbekiston qishloq jamoasidagi paykal tizimiga bag‘ishlangan maqolasida quyidagi qiziqarli ma‘lumotlarni bayon etadi: “O‘zbek qishloq jamoasida paykal yer-suvdan birgalikda foydalanishning eng asosiy shakli hisoblangan. Jamoa a‘zolari yer-suvga umumiy huquq va majburiyatlar bo‘yicha o‘zaro chambarchas bog‘langan edi. Yer-suv butun jamoa tasarrufida bo‘lib, paykalga begona va notanish kishilar kirishiga ruxsat berilmagan. Muallif paykal tizimining tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi, uning mazmun-mohiyati borasida

¹⁴Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Т.:1964. – С .97; Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Т.: 1974.– С. 118; Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –Т.: O‘qituvchi. 1994. – В 255; Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. –Т.: 2003.– В 113; Imomov K. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Т.: 1990.– В 96.; Мирхосилов С.К. Изучение реликтов доисламских верований у узбеков в дореволюционном прошлом / Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. –Т.: 1972. – С. 23; Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. –Т.: 1988.– 204 с.; Пещерева Е.М. Молочное хозяйство горных таджиков и некоторые связанные с ними обычаи. –Т.: 1927. – С.20; Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып. II. –Д.: 1958.– С 512; Соколова З.П. Культ животных в религиях. –М.:1982.– С 129; Рахимов М.Р. Следы древних верований в земледельческих обычаях и обрядах таджиков Каратегина и Дарваза в XIX – начале XX в. –М.: 1956.– С 43 ; Озаров А.О. О земледельческих традициях в долинах Сумбара и Чандира в конце XIX – начале XX в. / Очерки по истории хозяйства и культуры туркмен. –А, 1973.– С 11; Narziqulov A. Dehqon taqvim. –Т.: 1991.– В 28.; Ubaydullaeva M. Chilla davri udumlari // Fan va turmush. –Т.: 1994. –№3. –В. 20; Устаев Ш. У. Навруз (Новый год) в мифологических воззрениях таджиков и узбеков / Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. – Т.: 2007. – С. 171; Устаев Ш.У. Дни недели в поверьях народов Южного Узбекистана / Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. – Т.: 2007. – С. 179-180.

¹⁵ Tursunov S. va boshqalar.Surxondaryo tarixi. – Т.: “Sharq”. 2004. – В 412; Tursunov.S. O‘zbekiston tarixi va madaniyati - Surxondaryo etnografiyasi. –Т.: A.Navoiy. 2006 .– В 200; Tursunov.S. Sherobodliklar . – Т.: “A.Navoiy” 2007 .– В 309; Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. –Т.: ”A.Navoiy”. 2008. – В 127; Tursunov S. Jarqo‘rg‘on. –Т.: ”Fan”. 2008. В 156; Tursunov.S. Denov. – Т.: ”Fan”. 2009. – В 238.; Tursunov.S. Boysun. – Т.: “ Akademnashr”. 2010. – В 534.

fikr yuritib: XX asrning oʻrtalarida bozor munosabatlari unsurlari kirib kelishi jarayonining kuchayishi natijasida paykal tizimidagi qon-qarindoshlik tizimi buzila boshladi. Shoʻrolar hokimiyatining dastlabki yillarida yer-suvdan jamoa boʻlib foydalanish anʼanalaridan unumli foydalanildi”, – degan mulohazalarni qayd etgan va keyinchalik sovet hokimiyatining totalitar siyosati natijasida bu anʼanalar yoʻqolib ketgan, degan xulosaga kelgan¹⁶.

Mustaqillik yillarida xoʻjalik masalalariga oid etnologik tadqiqotlar tarixiy-etnografik, etnososiologik yoʻnalishlarda muammoviy-hududiy (Surxon-Sherobod dehqonchilik yoki chorvachilik xoʻjaliklari), muammoviy-xronologik (XX asr oxiri – XXI asr boshlari, zamonaviy davr kabi) yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Albatta, tarix va tarixshunoslik fanida oʻzbek xalqining asriy xoʻjalik anʼanalarining tadqiq etilishi masalalarining oʻrganilishi ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu davrda agrar masalalar, qishloq jamoalarida xoʻjalik munosabatlari, qishloq xoʻjaligining rivojlanishi tarixi kabi dolzarb mavzular yozma manbalar, yangi arxiv maʼlumotlari bilan birgalikda arxeologik va etnografik materiallardan foydalanilgan holda tadqiq etilgan qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Bularda agrar masalalar, qishloq xoʻjaligining rivojlanishi, irrigasiya va sugʻorilish tarixi, dehqonchilik va chorvachilikning taraqqiyot tendensiyalari turli tarixiy davrlar kontekstida tadqiq etilgan. Taʼkidlash joizki, ularda maʼlum darajada xoʻjalik masalalarini aks ettirgan boy etnografik materiallar ham uchraydi. Mualliflar rivojlanib kelayotgan anʼanaviy xoʻjalikni, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari misolida yoritganliklari aynan shu davr Surxon vohasi anʼanaviy xoʻjaligi tarixini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi. Dissertatsiyada Boysun, Sherobod va Surxon vohasining bir bir qancha togʻoldi hududlari aholisining boy dehqonchilik, chorvachilik bogʻdorchilik va hunarmandchilik xoʻjaligi haqida berilgan maʼlumotlar bu hududda ushbu xoʻjalik sohasidagi rivojlanib kelayotgan anʼanalar mohiyatini anglash imkonini maʼlum darajada beradi. Vaholanki, Buxoro amirligi davrida Boysun bekligi oʻzining dehqonchilik va chorvachilik anʼanalari orqali

¹⁶ Turdimuratov Ya.A // XX asrda Surxon-Sherobod vohasi areal xoʻjalik madaniyati (chorvachilik misolida)
// Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, – T.: 2019. – B. 23.

amirlikning ishlab chiqaruvchi maskanlaridan biri ekanligi etnografik va tarixiy tadqiqotlardan ma'lumdir.

Tarix fanlari doktori E. Qobulov va X. Kichkilov hammualliflikda yozgan qator maqolalari¹⁷ etnografik materiallarga boyligi bilan xo'jalik masalalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mualliflar Surxon vohasi chorvadorlarining qo'ychilikka doir an'analari va xalq orasida saqlanib qolgan cho'pon tayog'ining xosiyatlari borasidagi turli qarashlar, rivoyatlar, urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni berib o'tganlar.

O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisining xo'jalik munosa-batlari tadqiqiga bag'ishlangan tarixiy yo'nalishdagi ishlardan E. Qobulovning 2012 yilda nashr etilgan "Surxon vohasi xo'jaligi" nomli monografiyasi¹⁸ni hamda boy etnografik materiallar asosida yozilgan qator maqolalari¹⁹ni keltirish mumkin. Muallif o'zining monografiyasida XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik tarixini qo'lyozma asarlar, tarixiy manbalar, arxiv hamda etnografik materiallardan unumli foydalangan holda yoritib bergan.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan etnografik tadqiqotlar yangicha nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o'ziga xos tarzda rivojlana boshladi. O'zbekiston olimlarining jahonning ilg'or ilmiy markazlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatishi, ularning tajribalari va ilg'or yo'nalishlari bilan tanishishi tadqiqotlarni sifat va metodologik jihatdan boyitdi. Tadqiqotchilarning etnografiya masalalarini har tomonlama chuqur tahlil qilishga, uning tarixini o'rganishga, etnografiya fani rivojlanishining muhim yo'nalishlari va istiqbolini aniqlashga intilishlari kuchaydi.

¹⁷Kichkilov H., Qobulov E. Cho'pon tayog'ining xosiyatlari // Muloqot. №3. – T.: 2003. – B. 47.; Kichkilov H., Qobulov E. Surxon-Sherobod vohasi qo'ychiligida ajdodlarimiz an'anasi. Jayxun. № 3–4. –T.: 2005.– B. 40..

¹⁸ Qobulov E. Surxon vohasi xo'jaligi. – T.: Akademnashr, 2012. – B 317.

¹⁹Qobulov E. Surxon vohasi lalmi yerlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2009. – №3. – B. 127-128; Qobulov E. Surxon vohasi chorvachiligi atamalari // O'zbekistonda moddiy madaniyat va etnomadaniy jarayonlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. –T.: 2010. – B. 32; Qobulov E. Surxon-Sherobod vohasi chorvachiligi bilan bog'liq marosimlar // TerDU xabarleri. № 1–2. –T.: 2011. – B.14–15.; Qobulov E. Surxon dehqonchiligida mehnat qurollari va an'anaviy agrotexnika // O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. III to'plam. – T.: 2012. – B. 151–152.

Surxondaryo aholisining iqtisodiy-xo‘jalik faoliyati, xo‘jalik-madaniy an‘analari va u bilan bog‘liq urf-odat hamda marosimlari, tabiatni, yer va suvni e‘zozlash bilan bog‘liq qarashlari kabi mavzular tarixiy-etnografik, etnologik, etnososiologik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Xo‘jalik masalalarini o‘rganishda turli fan yo‘nalishlariga (arxeologik, etnografik materiallar, qo‘lyozma manbalar, arxiv hujjatlari) oid materiallar, xulosalardan foydalanish masalaga batafsil yondashish imkoniyatini berdi. Bu davrda xo‘jalik masalalari o‘rganilgan etnologik tadqiqotlar alohida ilmiy muammo sifatida tarixshunoslik tadqiqotlarida tahlil etilmagan. Mustaqillik yillarida xo‘jalik masalalariga doir etnologik tadqiqotlar tarixiy-etnografik, etnososiologik yo‘nalishlarda muammoviy-hududiy (Etnografik mintaqalarda dehqonchilik yoki chorvachilik xo‘jaliklari), muammoviy-xronologik (XIX asr oxiri – XX asr boshlari, zamonaviy davr kabi) yondashuvlar asosida amalga oshirilgan²⁰.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hunarmandchilik masalasi ko‘plab tadqiqotlarda yoritila boshladi. Jumladan, qator tarixiy, etnografik va arxeologik ishlardan O‘zbekistonning janubiy hududlari hunarmandchiligini o‘rganishda qiyosiy material sifatida foydalanish mumkin²¹.

O‘zbekistonda an‘anaviy hunarmandchilikning rivojlanish bosqichlari yoritilgan “O‘zbekistonning badiiy hunarmandchiligi atlası”da janubiy hududlar hunarmandchiligi tarixining turli masalalariga oid ba’zi fakt va ma’lumotlar keltirilgan²². Atlasdan hunarmandchilikka oid oq-qora rangli arxiv suratlari, hunarmandchilikning muayyan turiga ixtisoslashgan markazlarni ko‘rsatuvchi xarita, atamalar izohi, ustalar haqida qisqacha biografik ma’lumotlar o‘rin olgan. Davriy nashrlarda O‘zbekiston janubiy hududlari hunarmandchiligi tarixiga doir qator san’atshunoslik va boshqa

²⁰Surxondaryo - etnografik makon.: ocherk, esse \ S.N.Tursunov, T.R.Pardayev, N.Maxmadiyorova.– T.: Akademiynashr, 2012. – B. 98 ..

²¹Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывающие их с Россией.: Дисс. ... канд. ист. наук. – Т.: 1990. – С 107; Фармонова В.А. Ремесленное производство в Ферганской долине во второй половине XIX – начале XX в.: Дисс.. канд. ист. наук. – Т.: 1994. – С 150. Jumayev Q.J. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroning an‘anaviy kashtado‘zlik san‘ati: Tarix fan. nomz. ... diss. – T.: 2003. – B 139; Ochilidiyev F.B. XIX – XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot (Surxon vohasi misolida): Tarix fan. nomz.. diss. – T.: 2007.– B. 115.

²²A.Khakimov. Atlas of artistic and trades of Central Asia. Vol. I. – T.: 1997. – P. 158.

yoʻnalishlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida toʻplangan maʼlumotlar uchraydi²³.

D.Ziyaeva XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Oʻzbekiston shaharlari tarixini yoritishga bagʻishlangan tadqiqotida keng koʻlamdagi manbalardan foydalangan holda shaharlar hunarmandchiligiga oid qimmatli maʼlumotlarni keltiradi. Muallif, Oʻzbekistonning janubiy hududlarida oʻsha davrda mavjud shaharlar hunarmandchiligining oʻziga xos jihatlariga ham toʻxtalib oʻtgan²⁴.

Surxondaryo viloyati sanoat korxonalarining mustaqillikning ilk yillaridagi faoliyati, xususiylashtirish va mulkchilik shakllariga doir qimmatli fikrlar E. Qobilov risolasida keltirilgan²⁵.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilik mavzusini oʻrganishda sanʼatshunoslar olib borgan tadqiqotlarni alohida taʼkidlash zarur. Ayniqsa, akademik A.Hakimovning bir qator tadqiqotlarida janubiy hududlar hunarmandchiligiga doir qimmatli maʼlumotlar uchraydi²⁶. Uning Elmira Gyul bilan hammualliflikdagi “Boysun. Atlas xudojestvennyx remyosel” (Boysun. Badiiy hunarmandchilik atlas)²⁷ kitobi ham muhim ahamiyatga ega. Unda Surxondaryo vohasining Boysun tumani hunarmandchiligi borasidagi maʼlumotlar va qiziqarli fotosuratlar keltirilgan. Kitobda Boysunning asosiy hunarmandchilik turlari va markaz (qishloqlari)larining joylashgan oʻrni, nomlari hamda lokal xususiyatlari tahlilga tortiladi. YuNESKO tashabbusi bilan yaratilgan bu kitobda Boysunda mavjud kashtachilik, gilamdoʻzlik, kigiz tayyorlash, toʻquvchilik, kulolchilik, koʻnchilik sanoati, sandiq tayyorlash, chodirlar tayyorlash, yogʻochga

²³ Shoyoqubov Sh. Hunarmandchilik qanot yoymoqda // – T.: Guliston.1995. – № 3. – B. 24; Hakimov A. Oʻzbekistonning badiiy kulolchilik maktablari // – G.: Vostok. 1999. – № 1. – B. 76; Gyul E. Hunarmandchilik anʼanalarini saqlab // Sanʼat. – T.: 1999. – № 2. – B. 32; Nizomov A., Nizomova M. Gilam jilosi // Moziydan sado. – T.: 2003. – № 3-4. – B. 66; Hakimov A. Boysun kashtasi // Moziydan sado. – T.: 2004. – № 1. – B. 7; Nosirova Z. Boysun moʻjizasi // Moziydan sado. – T.: 2006. – № 4. – B. 9; Nosirova Z. Boysun naqshlaridagi bahor ifori // Moziydan sado. – T.: 2008. – № 1. – B. 7.; Nosirova Z. “Oq-enli” gilami: paydo boʻlishi, badiiy xususiyatlari va uni qayta tiklash muammolari // Sanʼat. – T., 2008. – № 2. – B. 23; Khakimov A., Z.Nasirova. Traditionelle Stickerei im Westen des Gebietes Kashkadarja // “Vostok”. – G., 2009. – № 1. – B. 72; Nasirova Z. Qashqadaryo viloyatining anʼanaviy hunarmandchiligi // Moziydan sado. – T.: 2008. – № 4. – B. 7; Mamadiyorova Yu. Shahrisabz iroqi kashtachiligi // Moziydan sado. №4. – T.: 2008. – B. 10..

²⁴ Ziyayeva D. Oʻzbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida. – T.: 2013. – B. 424.

²⁵ Qobilov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – T.: 1993. – B. 112..

²⁶ ҲАКИМОВ А. Искусство Узбекистана. История и современность. – Т.: 2010. – С. 289.

²⁷ ҲАКИМОВ А., Гюль Э. Байсун. Атлас художественных ремёсел. – Т.: 2006. – С. 98.

ishlov berish kabi hunar turlari haqida ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Tadqiqotchi O'zbekistonning janubiy hududlari hunarmandchiligini o'rganishni dolzarb muammolaridan biri sifatida baholagan. Tarixchi olim S.Tursunov va Q.Rashidovlarning "Boysun" kitobida Surxondaryo vohasi hunarmandchiligiga oid tarixiy hamda etnografik ma'lumotlar keltirilgan ²⁸.

Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligi tarixini yangicha konseptual nuqtai nazardan yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Termiz, Qarshi, Shahrisabz shaharlarining yubileyilariga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlarni alohida qayd etish joiz²⁹. O'zbekistonning janubiy hududlari shaharlari tarixi, shuningdek, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kashtado'zlik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi sohalarining rivojlanishi, kasanachilik asosida hunarmandchilikni rivojlantirish va uning o'ziga xos xususiyatlariga oid tadqiqotlar³⁰, hunarmand ayollar faoliyati, ustalar tomonidan hunarmandchilikning yangi turlarini tiklanishi aks etgan davriy nashrlar ham e'tiborga loyiqdir³¹. O'zbekiston "Hunarmand" uyushmasi va uning viloyatlardagi bo'limlari hisobotlaridan kerakli o'rinlarda foydalanildi³². Shuningdek, O'zR.FA Tarix institutining Etnologiya va antropologiya bo'limi loyihalari hamda amaliy tadqiqot natijalaridan ham foydalanildi. Mustaqillik yillarida zamonaviy tarixchilar, sharqshunoslar, san'atshunoslar, etnologlar shahar aholisining xo'jalik hayoti,

²⁸ Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – T.: "Akademnashr", 2011. –B. 43-44..

²⁹ Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: Fan, 2001. – B. 386.; Qarshi shahrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni: Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T.: Fan, 2006.– B.265.

³⁰ Qobilov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – T., 1993. – B. 110.; Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Q.: Nasaf, 1996. – B. 90.; Annayev T, Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997. – B. 67 .; Ro'ziyev A.N. Surxondaryo viloyati. – T.: Jayhun, 1997. – B. 100.; G'ofurov G', Shoymardanov I., To'xliyev J. Yakkabog' tarixi. – T.: Sharq, 1997. – B. 60.; Mirzayev J. Termiz tarixi. – T.: Sharq, 2001. – B.114; Hakimov N., Jo'raqulov O. Shahrisabz tarixi. – Q.: Nasaf, 2001. – B.57.; Tursunov S. va boshq. Surxondaryo tarix ko'zgusida. –T.: Sharq, 2001. – B. 371.; Boysun tarixi va an'analari. –T.: 2005. – B.229.; Ismoilov N., Bo'riyev O. Qarshi – O'zbekistonning qadimiy shahri. – Q.: 2006. –B. 176.; Tursunov S. va b. Surxondaryo tarixi. – T.: Fan, 2008. – B.190.; Tursunov S. Denov. – T.: Fan, 2009. – B. 416-417.; Tursunov S. Jarqo'rg'on. – T.: 2008. – B. 88.; Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX). – T.: Fan, 2012. S. 17-18; Qobilov E. Surxondaryo xo'jaligi. – T.: 2012.– B. 45; Tursunov S, Pardayev T. va b. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – T., 2013.– B. 125; Tursunov S.. Sherobod tarixidan lavhalar. – T.: 2014. – B. 318.

³¹ O'zbekistonda zargarlik buyumlari. – T., 1993. – B.64 .; Muxtorov A. Usta va shogird odobi. – T.: Mehnat,1999.– B. 65.; Usmon X., Shodiyev N., Abdurahmonova M. Marg'ilon hunarmandlari. – F.: 2000. – B. 32.; Akramxo'jayeva M., Akramxo'jayeva R. Zardo'zlik. – T.: 2002. – B. 21; Sa'diyev Z. G'ijduvon hunarmandlari.– T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 120; Alimqulova D. Amaliy bezak san'ati tarixi. – T. , 2007.–B. 71; Choriyeva D. Qo'ng'irotlarning an'anaviy amaliy san'ati. – Q.: Nasaf, 2007. – B. 48..

³² O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining 1998–2017 yilgi hisobotlari. <https://handicraftman.uz>

hunarmand-chilik tarixini o'rganishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashib, yangi yozma va hujjatli manbalarni, etnografik materiallarni ilmiy iste'molga olib kirdilar.

1.2. Tog' va tog'oldi mintaqalari aholisi etnoiqtisodiy hayotida xo'jalik an'analari

O'zbekistonning mavjud tabiiy-iqtisodiy va inson salohiyati hamda ulardan foydalanish istiqbollari katta maydonlarni egallagan cho'l hududlarining ham, aholi zich joylashgan, yuqori darajada rivojlangan sug'oriladigan tekislik hududlarining ham, turli xil resurslarga, muhim ekologik-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tog' hududlarining ham o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama va to'la hisobga olish bilan uzviy bog'liq. Yuqorida nomlari keltirilgan hududlar o'rtasida tog' zonasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tog'lar hissasiga O'zbekiston umumiy maydonining 21,3%i, aholisining 10% dan ko'proq qismi, sanoat yalpi mahsulotining 15% i, qishloq xo'jaligi mahsulotining 8% i, turli-tuman foydali qazilmalar va rekreatsiya resurslarining katta zaxiralari to'g'ri keladi.

O'zbekiston hududini 3 iqlim zonasiga ajratish mumkin: cho'l va dasht zonasi, tog'oldi zonasi va tog' zonasi. Cho'l va dasht zonasi O'zbekistonning jami tekisliklari - Ustyurt platosi, Qizilqum, Qarshi, Dalvarzin va Mirzacho'l cho'llarini, tog' oldi zonasi Tyanshan va Hisor-Oloy tog' tizmalarining dengiz sathidan 300-400 m dan 600-1000 m gacha bo'lgan balandliklarini, tog' zonasi dengiz sathidan 600-1000 m dan yuqori bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning 159 ta ma'muriy tumanlaridan 70 tasida tog' hududlari bor. Ularning 16 tasi tog', qolganlari tog'oldi tumanlaridir.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida tog' hududlari iqtisodiy salohiyatini ayrim tog'li tumanlar misolida o'rganish ulardan foydalanish muammolari yechimini chuqur va majmuali asoslashga imkon yaratadi. Bizga ma'lumki, an'anaviy xo'jalik turlari tog' va tog'oldi hududlarida

yashovchi aksariyat xalqlar iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Bu masalada bevosita etnoiqtisodiyot tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

T.f.f.d, etnograf A.Bobobekov³³ning fikricha, etnoiqtisodiyot o‘zida o‘zaro aloqa va ta’sirda bo‘lgan etnoslarning xarakteri, iqtisodiy faoliyati, an’ana va urf-odatlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti xamda ishlab chikarish munosabatlari, madaniyati, psixologiyasi, mafkurasi, diniy karashlarini tadqiq yetuvchi ob’ektiv qonuniyatlarga asoslangan ilmiy yo‘nalishni ifoda etadi.

“Etnos” va “iqtisodiyot” tushunchalari bir qarashda bir-biridan uzoq, o‘rganilish doirasi turli xil bo‘lgan fan tarmoqlarini anglatadi. Lekin, ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tadrijiy taraqqiyoti bu ikki tushunchani yaxlit xolatda o‘rganish va tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Etnoiqtisodiyot tushunchasini tahlil qilishdan oldin, “etnos” va “iqtisodiyot” terminlariga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. “etnos”-yunoncha “yethnos”-qabila, xalq, gurux so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, muayyan hududda yashovchi umumiy til, madaniyat, xo‘jalik shakllariga ega bo‘lgan aholi qatlamlarini anglatadi³⁴. “Iqtisodiyot” tushunchasi esa jamiyatning xo‘jalik faoliyati, ishlab chiqarish, mehnat taqsimoti, o‘zaro ayriboshlash va iste’mol faoliyatlarining umumiy yig‘indisi hisoblanadi³⁵.

Jahon miqyosida sodir bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli mintaqalarda yashovchi turli xalqlar va elatlarning o‘ziga xos mehnat taqsimoti ko‘rinishidagi xo‘jalik faoliyatlariga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, qaysidir bir hududning aholisi mohir dehqon va ziroatchi bo‘lsa, boshqa bir hududda o‘z ishining ustalari bo‘lgan hunarmandlar istiqomat qilishgan. Uchinchi joyda esa qiziqqon va uddaburon savdogarlar faoliyat yuritgan. Xo‘jalik aloqalarining bunday ko‘rinishdagi dastlabki ixtisoslashuvi bir tomondan shu hudud aholisining etnik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan tabiiy-iqlim sharoitlari va resurslar, xo‘jaliklararo munosabatlar va iste’mol talabi

³³ Bababekov A.D. XX asrda O‘zbekiston tog‘li tumanlarida etnoiqtisodiy jarayonlar (Sangzor – Zomin mintaqasi misolida).: Tarix f.f. dok ... diss. – T.: 2021. – B. 104

³⁴ Новейший философский словарь. М.: Книжный дом, 1999.– С.230

³⁵ Райзберг В. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. В. Современный экономический словарь. М.: ИНФРА-М.: 2007. – С.46.

va unga yarasha ishlab chiqarish jarayonlari, shuningdek, tashqi savdo aloqalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Muayyan kishilar guruhining xo‘jalik yuritish tizimlari asosida o‘zaro bog‘lana boshlashi, hududiy, til va madaniy belgilarning ishlab chiqarish va tovar ayirboshlash munosabatlariga bevosita ta’sir o‘tkaza boshlashi natijasida dastlabki etnoiqtisodiy tizimlar va munosabatlar shakllana boshladi.

Uzoq tarixiy davrlar davomida sodir bo‘lgan tadrijiy o‘zgarishlar va yangilanishlar lokal iqtisodiy tizimlarni ijtimoiy-tarixiy va tabiiy-iqlim faktorlari ta’sirida o‘zgartirib bordi. Ana shunday transformatsion jarayonlarda asosiy rol ni etnik migratsiya bajarib, nazarda tutilayotgan guruxlar ko‘chish natijasida yangi o‘zlashtirilgan yerlarga o‘zlarining an’anaviy xo‘jalik madaniyatini olib kirishdi³⁶. Etnik migrantlar ko‘chib kelishgan makonda o‘zlarining ishlab chiqarish munosabatlarini yo‘lga qo‘yishdi. Ammo, mavjud iqtisodiy resurslar va tub aholining azaliy ishlab chiqarish qadriyatlari bilan ko‘pincha hisoblashishmas edi³⁷. Natijada yerlik tub aholining iqtisodiy munosabatlari va madaniy-xo‘jalik tiplariga shikast yetib, yo‘klikka mahkum bo‘lar edi. Aynan mana shu jihat hozirgi kunda juda ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlayotganidek, lokal sivilizatsiyalar va xo‘jaliklar tarixini o‘rganishda sohalararo kompleks yondashuv, tarmoqli iqtisodiy tahlil, ijtimoiy va kognitiv antropologiya metodlaridan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiy munosabatlar va ishlab chiqarishdagi ustunlik antropogen omilga bog‘liq bo‘la boshlar ekan, etnik mansublik bevosita ushbu jarayonga ta’sir etmasdan qolmaydi. Iqtisodiy munosabatlar tarixida antropologik yondashuv esa lokal va etnoiqtisodiy muammolarni yechishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi³⁸. Bugungi kunga kelib bir qancha xorij tadqiqotchilari etnoiqtisodiyot atamasini izohlashga harakat qilmoqdalar. Chunonchi, “iqtisodiyot etnik iqtisodiyotga aylanishi uchun ushbu hodisani muayyan etnik guruxga mansub

³⁶Тамбиев А.Х. Регион в системе национальной экономики: экономические модели и механизмы регулирования: дисс. д-ра экон. наук. — Р.: 2000. — С. 120.

³⁷Рязанцев, С. В. Этническое предпринимательство как форма адаптации мигрантов // Обществ. науки и современность. — М.: 2000. № 5. — С. 73.

³⁸Mazzucato V. Bridging the Gap between Economics and Anthropology: The Use of Ethnoscience in Economic Analyses of Indigenous Economies. URL: [http://ifsa.boku.ac.at/cms/fileadmin/Proceeding 1996 / 1996_WS03_29_Mazzucato.Pdf](http://ifsa.boku.ac.at/cms/fileadmin/Proceeding%201996/1996_WS03_29_Mazzucato.Pdf). C.: — P. 234.

bo‘lgan kishilar jamoasi boshqarmog‘i lozim”³⁹. Boshqa bir g‘arb tadqiqotchisi ham “iqtisodiy munosabatlar va tuzilmalarning asosiy manbasi etnik resursga tayansagina bu etnoiqtisodiyot bo‘la oladi” –degan fikrni ilgari surmoqda⁴⁰.

Etnoiqtisodiyotning bir qancha belgilari mavjud bo‘lib, bular qatorida :

- Muayyan etnik guruxgagina xos bo‘lgan mashg‘ulot;
- Etnik asosdagi madaniy-xo‘jalik tiplari;
- Ushbu xo‘jalikda yollanib ishlovchi etnik ishchilar qatlami⁴¹.

Bizning fikrimizcha, kontekstda nazarda tutilayotgan xo‘jalik shakllari muayyan foyda olishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan dastlabki tadbirkorlik xo‘jaliklarini anglatadi. O‘z navbatida bu sub’ekt xo‘jalik yuritishning turli masshtabdagi ko‘rinishlarini ham o‘zida aks ettirishi mumkin. Bu xolatda individual etnik faoliyatdan (masalan, hunarmandchilik) oilaviy tadbirkorlik xo‘jalik faoliyatigacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tishi mumkin. Rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan bu xolatga nisbatan “yetnik biznes” yoki “yetnik tadbirkorlik” atamasini qo‘llash taklif qilinmoqda ⁴².

Shuningdek, tog‘ va tog‘oldi aholisi xo‘jalik va etnoiqtisodiy hayotida ushbu hudud sharoitidan kelib chiqqan holatda o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tiplariga alohida e‘tibor qaratish lozim.

O‘zbekistonning o‘ziga xos tarixiy-yetnografik mintaqalaridan biri bo‘lgan Surxon vohasida ham xo‘jalikning o‘rganilayotgan xronologik doirada bir qancha lokal tiplarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

I) Katta daryolar vodiysida yirik voha sug‘orma dehqonchiligi. Bunda lalmi dehqonchiligi ham (tog‘larning quyi adir qismida) chorvachilikning haydov shakli bilan qo‘shib olib borilgan⁴³;

³⁹ Light I. The Ethnic Economy // The Handbook of Economic Sociology. P.: 1994. – P. 650.

⁴⁰ Waldinger R. Ethnic Entrepreneurs // Entrepreneurship. The Social Science View. O.: 2000. – P. 359.

⁴¹ Gladwin C. Production functions and decision models: complementary models // American Ethnologist. Vol. 6(4). O.: 1979. – P. 654.

⁴² Bonacich E., Modell J. The Economic Basis of Ethnic Solidarity. University of Illinois at Urbana-Champaign's Academy for Entrepreneurial Leadership Historical Research Reference in Entrepreneurship. URL: <https://ssrn.com/abstract=1496171>.– N.: 2019. – P. 286.

⁴³ Асқаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.–Т.: Fan. 1977.– С. 17.

II) Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida mikrovoha sug‘orma dehqonchiligi. Bunda bog‘dorchilik, lalmi donchilik va chorvachilikning qo‘ra-yaylov shakllari hunarmandchilik bilan qo‘shib olib borilgan;

III) Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida haydov-yaylov chorvachiligining shartli sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilik bilan qo‘shib olib borilishi;

IV) Dasht va adirlıklarda haydov-yaylov chorvachiligining ba’zida sug‘orma yoki lalmi dehqonchilik bilan qo‘shib olib borilishi.

Mavjud etnografik materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xo‘jalikning birinchi va ikkinchi tiplari o‘troq va keyinchalik o‘troqlikka o‘tgan aholiga tegishli bo‘lsa, keyingi ikki tip yarimo‘troq hamda yarimko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘lgan va xo‘jaligida chorvachilik yetakchi o‘rinda turgan aholiga tegishlidir. Bu tiplardagi xo‘jalikning rang-barang yo‘nalishlari turlicha dehqonchilik madaniyati, o‘ziga xos chorvachilik an‘analari hamda hunarmandchilikning turli tarmoqlariga bog‘liq bo‘lib, muayyan tafovutlarga ega edi. Bu holatni avvalo, rang-barang landshaftlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish qurollari va vositalari bilan ta‘minlanganlik darajasi, mahsulotlarning tovarlilik darajasi, bozorga yaqinligi va h.k.) va etnik an‘analarga bog‘liqligi bilan izohlash mumkin⁴⁴. Ushbu xo‘jalik sohasining ixtisoslashuvi rang-barang xo‘jalik-madaniy muhitda turlicha turmush-tarziga ega bo‘lgan etnik guruhlar o‘rtasida vujudga kelgan o‘ziga xos “mehnat taqsimoti” asosida shakllanganligi kuzatiladi.

XX asr oxirlarida tadqiq etilayotgan mintaqada hududiy etnoxo‘jalik ixtisoslashuvining asosiy yo‘nalishlari sezilarli darajada farqlanadi. Tog‘oldi va tog‘ mintaqalarida, ya‘ni yirik daryo vodiysida (o‘zbek va tojiklar aralash) o‘troq dehqon aholi, yarimdasht qir-adirlar va dashtlarda asosan yarimo‘troq aholi yashaydi.

Janubiy O‘zbekiston mintaqasiga xos bo‘lgan birinchi mikro xo‘jalik-madaniy tipi intensiv sug‘orma dehqonchilikka asoslanib, turli xil madaniy o‘simliklarni yetishtirish uchun qulay bo‘lgan tog‘oldi tekisliklari va yirik

⁴⁴ Кармышева В.Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией (по этнографическим данным) // Товарно-денежные отношения на ближнем и среднем Востоке в эпоху средневековья. – М.: «Наука», 1979. – С. 116.

daryolarning qadimgi o‘zanlarida intensiv voha sug‘orma dehqonchiligi tarzida shakllangan. Bu arxeologik materiallarda ham o‘z isbotini topgan.

Ushbu xo‘jalik-madaniy tipi yaratuvchilari tomonidan bug‘doy, arpa, sholi, tariq kabi donli ekinlar; mosh, no‘xat, loviya, madaniy burchoq, yasmiq, kabi dukkakli ekinlar va kunjut, zig‘ir kabi moyli ekinlar; qovun, tarvuz, kadi, qovoq kabi poliz ekinlari; bodring, piyoz, sabzi, qizil qalampir kabi sabzavot ekinlari; rayhon, tog‘ yalpizi, zira kabi xushbo‘y o‘simliklar yetishtirilgan. Shuningdek, bu yerda bog‘ va uzumzorlar, mevasi va ipak qurti boqish uchun tut daraxtlari, paxtaning g‘o‘za, saflar, marlen kabi mahalliy navlari yetishtirilgan. Bu tipda dehqonchilikka bog‘liq ravishda chorvachilikning qo‘ra va qo‘ra yaylov tizimi rivojlanganligi kuzatiladi. Har bir xo‘jalikda bir - ikkitadan ot, ho‘kiz, sog‘in sigirlari bo‘lib, mayda shoxli chorvalar faqatgina ichki iste‘mol uchungina boqilgan va keng tovar xarakterida emas edi.

Yirik daryo vohalaridagi aholi bozorga nafaqat dehqonchilik mahsulotlari balki, hunarmandchilik mahsulotlari - gazmollar, dehqonchilik qurollari, (o‘roq, chalg‘i, ketmon, bel va boshqalar) sopol va metall idishlar, shuningdek, temir buyumlar (pichoq, bolta), zargarlik buyumlari, taqinchoqlar, sovun va boshqa konditer mahsulotlari ishlab chiqarganlar. Shaharliklar va savdo-hunarmandchilik qishloqlari aholisi hunarmandchilik va savdoni dehqonchilik bilan qo‘shib olib borganlar⁴⁵. Ayrim shahar va qishloqlar u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha mashhur bo‘lgan. Masalan, Boysun olachasi bilan, Sherobod esa kulolchilik buyumlari bilan mashhur bo‘lgan. Bu olachalar Samarqand, Toshkent, Afg‘oniston va hatto Hindistonga ham sotilgan. Boysunda ishlab chiqarilgan temir bellarni uzoq qishloqlardan kelib, ulgurji narxlarda olib ketganlar.

Sun‘iy sug‘orma dehqonchilik vohalaridagi aholi turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birgalikda boshqa xo‘jalik tiplariagi aholidan xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, hunarmandchilik mahsulotlari kabi zarur ishlab chiqarish vositalarini ham sotib olganlar. Masalan, shaharliklar va o‘troq qishloq aholisi

⁴⁵ Сухарева О. Традиция сочетания городских и сельских занятий в Средней Азии конца XIX — начала XX в. — В кн.: Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. М.: Наука, 1979. – С. 205.

yarimo'troq aholidan go'sht, teri va jun mahsulotlari (gilam, qop, to'qilgan sumka, arqon, xurjun) kon tuzi, o'tin, ko'mir kabilarni sotib olganlar. Boysun yaqinidagi To'da qishlog'ida yashovchi qo'ng'irotlar doimo ochiq usuldagi ko'mir konidan foydalanib kelganlar va shaharliklarga sotganlar.

Yirik vohalarda xo'jalikning tor ixtisoslashuvi ham shakllangan edi. Masalan, bu tipdagilar sholi yetishtirganlar. Sholikorlarning esa o'z navbatida non, chorva, mevalar, o'simlik yog'i, hunarmandchilik buyumlari va jun mahsulotlariga ehtiyoji katta bo'lgan. Shuningdek, polizchilik bilan shahar yonidagi qishloqlarning aholisi shug'ullanganlar. Yarimo'troq aholining doimiy ravishdagi o'troqlikka o'tishi ularning turmush tarzi va xo'jalik sohasida o'troq aholining turmush tarziga xos bo'lgan elementlar shakllana boshlagan. Shunday bo'lsada, o'ziga xos xususiyatlar ham saqlanib qolganligi kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, birinchi va ikkinchi tiplarni yaratuvchilarining xo'jaligida sun'iy sug'orma dehqonchilik yetakchi o'rinni egallaydi va tovar xarakteridagi ishlab chiqarishga ega edi.

Tadqiq etilayotgan mintaqada asrlar mobaynida tog' va tog' yonbag'rida shakllangan mikrovoha sug'orma dehqonchiligining bog'dorchilik, lalmi donchilik va chorvachilikning haydov-yaylov, qo'ra-yaylov shakllari hamda hunarmandchilik bilan bog'liq ravishda rivojlangan xo'jalikni ikkinchi mikro xo'jalik-madaniy tipiga ajratamiz. Bu tipga xos xususiyatlar shundan iboratki, bunda asosan dehqonchilik va ipakchilik mahsulotlari yuqori tovar xarakteriga ega edi. Dehqonchilik Surxon va Sherobod daryolarining yuqori qismlarida tog' va tog'oldi mikrovohalarida, ya'ni bu daryolarning irmoqlari bo'yida shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Tog' va tog'oldi mintaqalarida Surxondaryoning To'palang, Obizarang, Xo'jaipok, Sangardak, Qoratog', Dashnobod, Sharg'un kabi irmoqlari bo'yida dehqonchilik o'ziga xos tarzda rivojlangan. Tut plantatsiyalari sug'orma yerlarda keng tarqalgan. Pillani shahar to'quvchilari, shuningdek, Afg'onistondan kelgan savdogarlar XX asr boshlarida esa asosan Turkiston o'lkasidan kelgan savdogarlar olganlar. Bir qism pillani ya'ni ipak xomashyoni yarimo'troq aholi tomonidan kiyim – kechaklarga bezak berish

yoki uy buyumlari - so‘zana, kashta tikish uchun sotib olganlar. Shu bilan birga bu mintaqalardagi o‘tloqqa boy yaylovlar yil bo‘yi haydov-yaylov chorvachiligini rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan. Chorvachilik bilan keyinchalik o‘troqlashgan etnik guruhlar shug‘ullanganlar. Ipakchilik bu zonada yaxshi rivojlangan. Ushbu xo‘jalik tipiga mansub aholi asosan tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashovchi qatag‘onlar, chig‘atoylar, qarluqlar va tog‘li tojiklar bog‘dorchilik, chorvachilik va ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar.

Shuningdek, bu mintaqada ixtisoslashgan uzumchilik keng tovarlilik xususiyatga ega edi⁴⁶. Uzumchilik markazlari Boysun hududida Pasurxi, Denov hududida Sina, Hovuz, Vaxshivor qishloqlari hisoblangan. Bu yerda uzumning 20 dan ortiq navi ekilgan. Uzumni dehqonlar yaqin bozorga yoki yarimo‘troq aholi bilan bug‘doy, jun, sariyog‘ga almashgan bo‘lsalar, Hovuz, Vaxshivor va Sina qishloqlari aholisi mayizni Qarluq, Denov, Yurchi, Boysun shuningdek, Ko‘lob (Tojikiston Respublikasi) ga ham olib borib sotganlar, Shuningdek, mayiz mahalliy bozorlardan tashqari yurtimizning markaziy qismi va shimoli-sharqiy hududlariga va Rossiyaga ham chiqarilgan. Boysunning xolva, nisholdalari Qashqadaryo viloyati, Turkmaniston Respublikasidagi chorvadorlarga yetkazib berilgan⁴⁷.

Bu mintaqada bug‘doy yetishtirish, bog‘dorchilik va hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarida ishlab chiqarilgan maxsulotlar tovarlilik xususiyatiga ega edi. Xalqayor daryosi bo‘yida joylashgan Katar qishlog‘i bug‘doy yetishtirish bo‘yicha yetakchi o‘rinda turgan. Katar Boysunni bug‘doyzori hisoblangan. Bu yerga Kelif bekligidan (Turkmaniston Respublikasi) qo‘ng‘irot boylari kelib, bug‘doyni ulgurji sotib olib, (yashayotgan joylaridva suv tegirmonlari bo‘lmagan) suv tegirmonlariga un qildirib tuyalarda olib ketganlar. Tog‘li mintaqalarga tog‘oldi qishloqlaridan ham bug‘doy olish uchun olacha, bo‘z va mayiz olib kelganlar va o‘zaro mahsulot ayriboshlashgan. Dashtliklar esa shu atrofdagi yaylovlarga chorvalarini haydab kelganlar va jun, jun maxsulotlari bilan mol ayriboshlashgan. Yong‘oq, o‘rik,

⁴⁶ Хидоятлов.И. О характере сельского хозяйства многонациональных районов Сурхандарьинской области в дореволюционное время. – К.: СЕ. 1970 .№2.– С.133.

⁴⁷Кармышева В.Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией (по этнографическим данным) // Товарно-денежные отношения на ближнем и среднем Востоке в эпоху средневековья. – М.: «Наука», 1979. – С. 114.

olma, nok, tut va boshqa mevalar yuqori tovar xususiyatiga ega edi. Bu mahsulotlarni paxta sotib olish mumkin bo'lgan Sherobod, Ko'hitang va Denov bozorlariga sotish uchun olib borganlar. G'o'zani bu darajada ko'p sotib olishdan maqsad qish davomida oiladagi ayollarni ish bilan ta'minlash bo'lgan.

Tog' va tog' yonbag'rida haydov-yaylov chorvachiligining shartli sug'orma dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan qo'shib olib borilishi uchinchi mikro xo'jalik-madaniy tipga kiradi; Bu tipga kiruvchi aholi ko'proq chorvachilik bilan shug'ullanuvchi etnik guruhlar – qo'ng'iroq, yuz, do'rmon kabilar Sherobod daryo oralig'idagi dasht zonalarida, Bobotog' etaklarida, Qiziriq, Bandixon, Muzrabot cho'llarida chorvachilik bilan, adirliklarda esa lalmikor ziroatchilik bilan shug'ullanganlar. Vodiydagi chorvachilik uchun qulay bo'lgan iqlim, tabiiy sharoit tog' yon adirlari va keng cho'l zonalarida bu yerda doimiy ravishda haydab boqiladigan chorvachilik turining saqlanib qolishiga olib keldi. Bu zonada yashovchi ayrim etnik guruhlarining to'liq o'troq turmush tarziga o'tmaganligining sababi ham xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rinda turganligidir. Shu bois bo'lsa kerakki, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'zining xo'jalik, etnik-madaniy, antropologik va til xususiyatlarini hozirgi kungacha yaxshi saqlab qolgan.

XX asr oxirlarida yarimo'troq aholi shartli sug'orma dehqonchilik bilan ya'ni lalmi yerlarda bug'doy, arpa, zig'ir, kunjut, poliz asosan qovun va g'o'za ekkanlar. Bu yerda nafaqat kammulkli dehqonlar balki, o'rtahol dehqonlar ham dehqonchilik bilan shug'ullangan. Kambag'al va boy dehqonlar kompleks xo'jalik ya'ni bug'doychilikni haydov-yaylov qo'ychiligi yoki yilqichilik bilan qo'shib olib borganlar yoki tovar xususiyatiga ega bo'lgan ixtisoslashgan donchilik xo'jaligini yuritganlar.

Bobotog' tizmasi etaklarida yashovchi o'zbek urug'lari qo'ng'iroq, do'rmon kabilarning asosiy xo'jaligi lalmi dehqonchilik bilan bog'liq chorvachilik edi. Bir qism aholi yozgi yaylovlarga (ovul) ko'chganlar, bir qismi esa qishgi doimiy turar joylarda qolib, ekstensiv donchilik xo'jaligi bilan shug'ullanganlar. Tog'oldi vodiylari va dashtliklarda shartli bir martalik sug'orishdan ya'ni, sel suvidan samarali foydalanilgan. Bahorda Kavaksoy, Belisiniq, Darvozakan, Selga,

Tammasoy, Bo'risoy kabi soylarda suvlarni qator ariqchalar shaklida to'plab tekislik tomon oqizganlar. Dehqonchilikning bu turi xalq orasida "selovakorlik" deb nomlanadi. Dehqonchilik bu zonada tez-tez qurg'oqchilik sababli qat'iy bo'lmagan. Shu sababli kambag'al dehqonlar ma'lum darajada chorvachilikka ham tayanganlar. Bu aholi guruhi Surxon va Sheroboddaryoning keng vodiylarida haydov-yaylov chorvachiligini sholikorlik bilan qo'shib olib borganlar. Bir qadar qurg'oq zonalar - Boysun, Sherobod hudularida tuyachilik ham rivojlangan. Bu xo'jalik-madaniy tipida faqat boy chorvadorlarning chorvachiligi yuqori tovar sifatida xarakterlanadi. Boy chorvadorlar asrlar bo'yi shug'ullanib kelgan an'analarga zid ravishda tovar xarakteriga ega bo'lgan g'allakorlik bilan shug'ullana boshladilar. Aynan ular yetarli ishchi hayvonlarga va dehqonchilik qurollariga ega edilar.

Dasht va adirliklarda haydov-yaylov chorvachiligining ba'zida sug'orma yoki lalmi dehqonchilik bilan qo'shib olib borilishi to'rtinchi mikro xo'jalik-madaniy tipga kiradi. Chorvaga bo'lgan ehtiyoj ayniqsa bo'rdoqi qo'yga talabning ortishi sababli bir qism chorvador aholi dehqonchilikni butunlay tashlab faqat haydov-yaylov qo'ychiligi bilan shug'ullandilar⁴⁸. G'allachilik bilan shug'ullanmaydigan yarimko'chmanchi aholi esa yaxshi yaylovlarga egalik qilib, tajribali cho'ponlarni yollab mashhur hisori qo'ylarni naslini asrlar davomida xalq amaliy tajribalari asosida yaxshilashga qaratdi.

XXI asr boshlarida o'rganilayotgan mintaqada haydov-yaylov chorvachiligi xo'jalikning asosiy va yagona tarmog'i sifatida saqlanib qolgan edi. Bu tipdagi xo'jalikka Dashti qipchoq etnik guruhlaridan ilgari joylashgan etnik guruhlar qarluq, turklar nomi bilan ma'lum bo'lgan etnik guruhlar va boshqalar kirgan. Dehqonchilik mahsulotlarini ular yaylovda o'zaro savdo-sotiq aloqalarida bo'lgan tog'li tojiklardan yoki bozordan sotib olganlar. Xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan qarluq, qo'ng'irot, do'rmon, yuz kabi yirik etnik guruhlarda haydov-yaylov yoki yaylov (yozgi yaylovdan qishgi yaylovga ko'chish yoki aksincha)

⁴⁸ Батраков В.С. Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половины XVIII до 70 - х гг. XIX века// Научные труды . Вып. 193.– Т.: – С.164.

tizimidagi chorvachilik faoliyati intensiv xarakterga ega bo'lib, yaratilgan chorvachilik maxsulotlarining tovarlilik xususiyati yuqori edi .

Uchinchi va to'rtinchi tiplarni yaratuvchilari nafaqat dehqon aholi balki, o'zaro tig'iz iqtisodiy aloqalarga ega edi. Bu alohida etnik guruhlarda ko'proq yoki kamroq aks etgan an'anaviy ixtisoslashgan xo'jalikning yetakchi yoki ikkinchi darajali tarmog'ida aks etgan. To'rtinchi tipga kiruvchi aholi chorvachiligida boshqa mintaqalarning chorvachilik xo'jaligi bilan ko'pgina o'xshash jihatlari bo'lsa-da, ammo bundagi etnik guruhlarining har birida uy hayvonlarini boqishda o'ziga xos usullari va jihatlari bo'lgan. Masalan, eng yaxshi ko'pkari otlari loqaylarda, eng yaxshi sotiladigan qo'ylar va cho'pon itlari qo'ng'iroq, qarluq va turklarda bo'lgan. Shu bilan birgalikda, hatto bir elat istiqomat qiladigan hududda ham chorvachilik xo'jaligini yuritishdagi tabiiy-geografik sharoitlar tufayli yoki qo'shni xalqlarning ta'siri va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar natijasida xilma-xil usullardan foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu sharoitda chorvachilik va dehqonchilik hamda hunarmandchilik xo'jaliklari o'rtasida qat'iy chegara bo'lmagan. Chunki, bu ikki xo'jalik turlari doimo bir-birini taqozo etib turgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Surxon vohasi sharoitida bundan o'zgacha bo'lishi mumkin emas edi. Faqatgina bir-birini taqozo etish darajasida xo'jalik-madaniy tiplari har bir tarixiy-yetnografik mintaqalarda muayyan farqlarga ega bo'lgan. Chorvador etnik guruhlarining o'lkamizning boshqa madaniy mintaqalariga migratsiyasi hamda xo'jalik-madaniy xususiyatlarga ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Etnik guruhlar migratsiya bo'lar ekanlar, mahalliy chorvadorlarni vakolatlarini o'z qo'llariga oladilar. Ularning dehqonchilik bilan birga qo'shib olib boradigan natural ekstensiv chorvachiligi intensiv-tovarlilik xususiyatiga ega bo'la boshlagan.

Aholining xo'jalik faoliyati uzoq tarixiy taraqqiyot davomida mavjud geografik muhit, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar qolaversa xalqning etnik qatlamlari hamda boshqa bir qator omillar bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib taraqqiy etib kelgan. Xususan, O'zbekiston qolaversa, janubiy hududlar o'zining qulay tabiiy sharoiti, unumdor tuproq, suv va boshqa sharoitlarini mavjudligi bilan

ilk sug'orma dehqonchilik hamda ilk shahar-davlatchiligi vujudga kelgan qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi⁴⁹. Janubiy O'zbekiston mintaqasi hududidagi Mirshodi, Sangardak, To'palang, Sherobod daryolari havzalarida ilk temir davridan boshlab dehqonchilik rivojlangan⁵⁰. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Surxondaryo vohasi sug'orma va lalmi dehqonchilik, shuningdek, bog'dorchilik va chorvachilik yetakchi o'rin egallagan. Boshqa mintaqalar bilan qiyosiy taqqoslaganda bundagi qishloq xo'jaligi taraqqiyoti nisbatan past darajada bo'lgan. Agar ilgari Buxoro amirligi va O'rta Osiyoning boshqa davlatlari Hindiston hamda Afg'oniston bilan bevosita savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa, Chor Rossiyasi bosqinidan so'ng esa bu yo'l o'z ahamiyatini yo'kotdi. Bu holat mintaqaning xo'jaligiga xam salbiy ta'sir o'tkazdi⁵¹. XX asrning boshlarida Janubiy O'zbekiston mintaqasida sug'orish tizimi ham o'ziga xos tarzda bo'lib, asosiy suv manbalari Surxondaryo, To'palangdaryo, Ipoqdaryo, Sangardakdaryo, Dashnoddaryo va Sherobodrayodan iborat bo'lgan. Masalan, tadqiq etilayotgan davrda Surxondaryo 22 ta ariqqa, Xo'jaipokdaryo 10 ta ariqqa, Sangardakdaryo 13 ta ariqqa suv bergan⁵².

O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi Surxon-Sherobod vohasida ham sug'orish tarmoqlari tizimida o'ziga xos boshqaruv usuli mavjud bo'lgan. Bunda sug'orish tarmoqlari tizimida «miroblar» asosiy faoliyat ko'rsatib, har bir mirob o'z qo'l ostidagi irrigatsiya tizimini boshqarganlar⁵³. Vohada dehqonchilik qilish uchun imkoniyatlar yaxshi bo'lganligi sababli aholining katta qismi o'troq hayot kechirgan. Misol uchun Denov hududining umumiy maydonini 8791 desatina tashkil etib, bu hududning qishloq aholisi 53430 kishini, shahar aholisi 931 kishini tashkil etgan⁵⁴. Bu regionda dehqonchilik o'ziga xos tarzda rivojlangan edi. Mavjud suv manbalaridan samarali foydalanish maqsadida buloq suvlarning o'zaniga katta xarsang toshlar tashlab, hovuzchalar qurilgan. Hovuzga yetarli

⁴⁹ Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T.: Fan, 2001. – B. 44

⁵⁰ Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar (Qadimgi davrlardan XIX asrga qadar). –T.: 1997. – B. 29.

⁵¹ Рахманов Ф. Обычаи и обряды населения Кашкадарьинского оазиса, связанные с земледелием (конец XIX-начало XX вв) Автореф. дисс. канд. ист. наук. Т.: – 2002. – С. 12.

⁵² O'zbekistonni rayonlashtirish ishidagi materiallar (arab alifbosi). Birinchi bo'lak. – T.: 1926. – B. 281-282..

⁵³ Surxondaryo viloyat davlat arxivi. F-4. 1-ro'yxat. 5-ish. 3-varaq.

⁵⁴ Tursunov S. N. va boshq. Surxondaryo tarixi. – T.: 2004. – B. 499.

darajada suv to'plangandan keyin to'g'onning ichki tomonida qoldirilgan maxsus teshik ochilib, ekinlarga muayyan tartibda suv berilgan. Mazkur hovuzchalarni yaqin davrlargacha Sherobod va Boysun tumanlarining tog' va tog' etaklaridagi qishloqlarda uchratish mumkin edi⁵⁵. Janubiy O'zbekistonning kam suvli mintaqalarida yer va suvdan samarali foydalanish uchun Sherobod, Oltinsoy va Boysun tumanlarida yerdan jamoa bo'lib foydalanish an'anasi XXI asr boshlariga qadar amal qilib kelayotgan edi. Ayniqsa, paykal tizimining jamoaviy xarakteri yer-suvdan oqilona foydalanish, suvni teng taqsimlash, jamoaviy hashar yo'li bilan korizlarni qazish va ta'mirlash ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.⁵⁶ O'zbekiston, umuman O'rta Osiyo hududlarida sug'orma dehqonchilikning o'ziga xos shakllari - yer-suv qo'shnichilik jamoalari keng rivojlangan⁵⁷.

An'anaviy jamoaviy dehqonchilik O'zbekistonning tog'li, tog'oldi yoki yarim dasht mintaqalari (Sherobod va Boysun) da yaxshi saqlanib qolgan edi. Bu holatni A.Abdulhamidov bu zonalarda dehqonchilik mahsulotlarining kam darajada tovarlilik hususiyatga egaligi bilan izohlaydi⁵⁸.

Xulosa sifatida ko'rib o'tilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mustakillik yillaridagi o'zbek xalqi xo'jalik-madaniy an'alarini o'rganish doirasida Surxon vohasi xo'jalik an'alariga ham e'tibor, unga bo'lgan qiziqish darajasi yanada ortdi. Bu davr tadqiqotlarida Surxondaryo viloyati tog'oldi hudud axolisining barcha xo'jalik turlari an'alarining o'ziga xoslik jixatlari o'rganildi. Xo'jalik masalalarini o'rganishda turli fan yo'nalishlariga (etnografik materiallar, qo'lyozma manbalar, arxiv hujjatlari) oid materiallar, xulosalardan foydalanish masalaga batafsil yondashish imkoniyatini berdi. Mazkur davrda etnografik tadqiqotlar bilan birgalikda agrar masalalar, qishloq jamoalarida xo'jalik munosabatlari kabi dolzarb mavzular turli xronologik davrlar kontekstida tadqiq

⁵⁵ Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. –Т.: 1964. – С.56.

⁵⁶ Полозов В.А. Узбекское общенное земнипользования в Шерабадской долины и Каршинской степе Уз ССР // Народное хозяйство Средний Азии. №7. –Т.: 1925. – С.73.

⁵⁷ Uzoq asrlar davomida sug'orma dehqonchilik madaniyati taraqqiyotida asosiy rol o'ynagan yer-suv qo'shnichilik jamoasi Toshkent vohasida to'p, Farg'onada ketmon, Zarafshon vodiysida qo'sh, Xorazmda jabdi, Qashqadaryo va Surxondaryo havzalarida esa paykal deb atalgan. Qarang: Гулямов Я. Г. История орошения Хорезма с древнейших время до наших дней. –Т.: Из-во АН Уз ССР, 1957. – С. 253; Басов Д.В Пайкалы Ширабадской долины // За реконструкция сельского хозяйство. – С.: 1929. – №2 – С.122.

⁵⁸ Абдулхамидов А. Общинный традиции в орошаемом земледелие дореволюционного Узбекистана (XIX – нач. XX вв.). № 2. – Т.: 1987.– С.101.

etilgan. Bu turdagi tadqiqotlarning tarixshunoslik jihatdan tahlil etilishi xo‘jalik masalalariga oid barcha ilmiy ishlarni kuzatish va o‘rganilish darajasiga yetarli baho berish imkonini berdi. Surxon vohasini o‘rganuvchi maxalliy etnograflarning tadqiqotlarining o‘ziga xosligi ilmiy o‘rganish ishlari umumiy tarzda emas, balki muammoning ma’lum bir tarafani yoritishi, ma’lumotlardan foydalanishda cheklovlarning yo‘qligi sababli o‘rganilayotgan ob’ektning keng qirralarini yoritilganligi bilan ajralib turadi.

II BOB. SURXONDARYO TOG‘OLDI AHOLISI XO‘JALIK AN‘ANALARINING LOKAL XUSUSIYATLARI VA UNING RIVOJI

2.1 Tog‘oldi hududlari aholisining dehqonchilik xo‘jaligi bozor munosabatlari sharoitida

O‘zbek xalqining qadimiy ajdodlari juda qadim davrlaridan boshlab tabiiy sharoitga moslashib o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tiplarini yaratganlar. Bu holat mahalliy etnoslarning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘rkazib kelgan. Chunki tabiiy sharoitning ta’siri va belgilarini etnik madaniyatning barcha sohalarida, ishlab chiqarish vositalaridan, ayniqsa mehnat qurollaridan boshlab maishiy turmush buyumlari va hatto elatlarning nomlarigacha sezish mumkin. O‘zbeklarning ko‘p qirrali qishloq xo‘jaligi asrlar osha to‘plangan an‘anaviy tajribaga tayanadi. O‘zbekiston hududidagi ziroatchilik sug‘orish xususiyatlari va ekin turlari bilan farqlangan Surxon vohasining hozirgi hududi tabiiy geografik sharoitiga qarab uchta qishloq xo‘jaligi zonasiga bo‘linadi: tog‘li va tog‘ oldi zonasi, sug‘orma yerlar zonasi va dasht-yaylov yerlardan iborat zona⁵⁹.

Sug‘orma dehqonchilikni mahalliy aholi “suvli yer”, “tirama” yoki “obikor” , sug‘orilmaydigan yerlarni “lalmi” yoki “bahori” deb nomlangan. Qadimgi ajdodlarimiz yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ariq qazish, kanal chiqarish, suv havzalari – dambalar qurishga ham alohida e’tibor berishgan. Surxondaryo

⁵⁹ Surxondaryo tarix ko‘zgusida // Tursunov S.N, Qobilov E.O, Murtazayev Z.M // T.: Sharq. 2001. – B. 54

vohasida joylashgan daryolar bahor oylarida ro'y beradigan yog'ingarchiliklar tufayli turli sel va toshqinlarni yuzaga keltirgan . Buning natijasida aksar hollarda aholi yashaydigan joylarni yemirib, ekinzor va ariqlarni yuvib oqizib ketadi , old tomondagi yerlarni barbod qilib, orqa tomondagi ko'p yerlarni suvdan mahrum etadi. Bundan tashqari suv toshqini paytida daryo va suv dammalari pastlik yerlarni ham bosib ketadi . Nishab yerlar va past qirg'oqlarda toshqin paytlarda suv juda keng yoyilib ketadi. Katta-katta kanallar va ariqlarda oddiy to'g'onlar qurish yo'li bilan daryolardan suv chiqarish texnikasi keng tarqalgan. Shoh-shabba , ajriq o'tlar, kesak-toshlardan maxsus qorabura yoki bard yasali b daryoning sekin oqadigan joylariga tashlanib to'g'on qilingan. Ba'zan bunday to'g'onlar murakkab sug'orish inshootini hosil qilgan.

Surxondaryoning tog' va tog'oldi hududlaridagi ba'zi qadimiy kanal va daryolar juda sho'x oqqanligidan o'zanlarini tobora chuqurlashtirib yuborganligi tufayli suv ekinzorlaridan ancha pastda oqqan. Bunday paytda aholi kashf etgan maxsus suv chiqarish mexanizmlaridan foydalanilgan. Ulardan eng mashhuri chig'irdir. O'ziga xos suv chiqaradigan original mexanizm hisoblangan chig'ir yog'ochdan qurilgan oddiy g'ildirakdan iborat bo'lib, unga suv to'ldirib turadigan maxsus sopol idish – digirlar biriktirilgan. Mazkur g'ildirak gorizontal o'qqa o'rnatilgan bo'lib , ikkita tishli shesternyalar bilan birlashtirilgan va hayvon kuchi bilan harakatlantirilgan.

Vohaning tekislik qismida sug'orish imkoniyatlari mavjud bo'lgan hududlarda sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga sharoit yaratgan bo'lsa, suv tanqis bo'lgan tog' va tog' oldi hududlarida esa lalmikor dehqonchilik rivojlangan. Sug'orma dehqonchilik xo'jaliklari asosan daryolardan suv chiqadigan hududlarda joylashgan. Bahori ekinlar tog' etagi mintaqasida ekilgan. Ekin yerlarining ishlatilishiga qarab ikkala xo'jaliklarda ham ziroatchilikning har-xil usullari quruq, partov yoki bo'z va dam berilgan shudgor va paykali yerlarga bir xil ekish qo'llanilgan. Ko'p joylarda qurilish materiallari yetkazish maqsadida ziroatchilik daraxt ko'chatlari o'tqazish bilan birga olib borilgan. Maxsus ajratilgan yerlarga tol, terak, kayrag'och ekilib bir necha yillardan keyin ular

qurilishga ishlatilgan. Odatda oilada o'g'il farzand tug'lsa unga atab maxsus qurilish materiali bo'ladigan daraxt ushbu ko'chatlar ekilib u voyaga yetguncha terakzorga aylanib ketgan⁶⁰.

Sug'oriladigan yerlar yana ekin turlariga qarab, dala yoki ochiq yerlarga, bog'dorchilik hamda polizchilik yerlariga bo'lingan⁶¹. Sug'orma dehqonchilik nihoyatda katta mehnat natijasida amalga oshgan. Yirik sug'orish inshootlarini qurish va ularni muntazam ravishda o'z vaqtida tozalash va ta'mirlash ishlari katta mablag'larni, juda ko'p kishilarning uyushgan kuch-g'ayratini talab qilgan. Bunday xarajatlar va og'ir mehnat dastavval keng zahmatkash aholi zimmasiga yuklangan va asriy jamoachilik an'analari asosida boshqarilgan⁶².

Surxondaryo viloyati turli regionlarida tabiiy-geografik sharoit turlicha bo'lishi tufayli xilma-xil sun'iy sug'orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi⁶³, havza va hovuzlarda suv to'plash⁶⁴, chig'iriqlar orqali chuqurdan suv chiqarish⁶⁵, kanal va ariqlar qazish yo'li bilan suv keltirish⁶⁶ qadimdan saqlanib kelgan. Magistral kanallar vohadagi yerlarni sug'orish uchun qazilib, daryo qirg'oqlarining holatiga qarab uning o'ng va chap sohilidan qazib chiqarilgan. Mazkur kanallardan shoxobchalar, so'ngra ulardan mayda sug'orish tarmoqlari ajralib chiqqan. Katta-kichik kanallar va ariqlarga oddiy to'g'onlar qurish yo'li bilan daryolardan suv chiqarish texnikasi keng tarqalgan. Shox-shabba, ajriq o'tlar, kesak-toshlardan maxsus qorabura yoki band yasali b daryoning sekin oqadigan joylariga tashlanib to'g'on qilingan. Ba'zan bunday to'g'onlar murakkab irrigatsiya inshootini hosil qilgan. Qoraburaning yug'onligi ba'zan bir necha metr, uzunligi esa bir necha o'n metr qilib tayyorlangan.

Surxon vohasi tog' hududlarida yerga ishlov berish o'rta asrlar darajasida bo'lib, dehqonchilikning asosiy mehnat qurollari bir juft xo'kiz qo'shib ishlatiladigan qadimgi yog'och so'qa omochdan iborat edi. Arxeologik va etnografik

⁶⁰ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Boysun tumani , Xo'jabulg'on qishlog'i. 2021 yil

⁶¹ XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi// Qobilov E. Tarix fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi// T.: 2018. – b 157.

⁶² Ro'ziyev A. N. va boshq. Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuini rivojlantirish. T.: Jayhun, 1997. – b. 21

⁶³ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Boysun tumani Chilonzor mahallasi, 2021-yil

⁶⁴ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Boysun tumani Chilonzor mahallasi, 2021-yil

⁶⁵ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Kallamozor qishlog'i, 2021-yil

⁶⁶ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Egarchi qishlog'i, 2021-yil

ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, XX asrning boshida ziroatchilik asboblarning aksariyati, ya'ni yerga ishlov beradigan, yer haydaydigan va ekin o'radigan moslamalar takomillashtirilmagan va o'zgarmay qolgan edi. Yerni haydashda yog'ochdan yasalgan omoch ishlatilgan. Omoch bo'yinturiq va tirqish bilan xo'kizlarga qo'shilgan. Omoch uch qismdan iborat bo'lgan, haydalgan yerdagi kesaklarni ezish, yerni tekislash xamda urug' sepilgandan so'ng ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatilgan. Molani ho'kizlar tortgan, ho'kizlarni bir kishi yetaklagan, mola ustida doim bir odam o'tirgan. Mola aksariyat lalmikor yerlarda, qatqaloq va hashakli yerlarda ishlatilgan, Bahorgi ekinlar ekiladigan yerlarda mola o'rnida shoh-shabbali kichik daraxt tanasi ishlatilgan. Mola yasashga imkoni bo'lmagan kambag'allar omochning shotisidan mola sifatida foydalanishgan. Molaning kichigi 2-2,5 m chamasi bo'lgan, buni qo'sh ho'kiz, ot yoki tuya tortgan⁶⁷.

Surxon vohasida qadimdan ishlatilib kelayotgan yer yumshatgich vositasi belkurakdir. Bu asbob temirdan yasalgan bo'lib, ishlatuvchining hohishiga qarab, maxsus tepkilar o'rnatilgan. Tepki o'ng yoki chap tomonida bo'lgan. Ba'zi xonadonlarda ikki tepkili bel bo'lgan. Belkurak yerni kovlash, aravaga go'ng yoki tuproq ortish, ariq qazish va paxsa devor qurishda qo'llanilgan. Belning uzunligi 25-27 sm, eni 20-23 sm atrofida bo'lgan. Dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Loy ishlarida beldan farqliroq loyni kesishga qulay va yengil bo'lgan kapcha ishlatilgan. Qadimdan dehqonchilikda ishlatiladigan qurol ketmon bo'lib, voha ziroatchilari uchun xam bu qurolning xizmati katta bo'lgan. Bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik va g'allachilikda umuman, yer ishlarida ketmon ishlatilgan. Ketmonlar ham shakli va hajmiga karab bir-biridai farqlangan. Eni 30-32 sm, uzunligi 25-27 sm bo'lgan ketmonlar tuproq ishlarida, ayniksa, jo'yak olish, uvat ko'tarish, yer tekislashda ko'proq, ishlatilgan. Hajmi kichik ketmonlar esa o'simliklarning tagini yumshatish va chopiq qilishda keng qo'llanilgan. Ketmon sopi ham tol daraxtdan tayyorlangan. Voha dehqonlari yerdan ko'proq hosil olish uchun unga sifatli ishlov berishgan. Tadbirkor boylar kuzda yerni bir-ikki marta qo'sh bilan haydashgan. Mola bosish,

⁶⁷ S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, N. Maxmadiyoro'va // Surxondaryo – etnografik makon: ocherklar, insholar. – T. : Akademnashr, 2012. - 113 b.

suv tarash va mahalliy o'g'itlarni berish ishlari ham tajribali dehqonlar maslahati bilan amalga oshirilgan. Almashlab ekish ham dehqonchilikda asosiy o'rinda turgan. O'simliklarning xususiyatlaridan kelib chiqib, birining o'rniga ikkinchisini ekishgan. Albatta, bu jarayonda faslning qanday kelishi va tuproqning xususiyati ham hisobga olingan.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Shimoliy Surxon vohasida sug'orish tizimi ham o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, asosiy suv manbalari Surxondaryo, To'palangdaryo, Ipoqdaryo, Sangardakdaryo, Obzorondaryo, Dashnoboddaryolaridan iborat bo'lgan. Masalan, bu tabiiy daryolar tadqiq etilayotgan davrda Surxondaryo 22 ta ariqqa, Xo'jaipokdaryo 10 ta ariqqa, Sangardakdaryo 13 ta ariqqa, To'palangdaryosi 7 ta ariqqa, Obzorandaryosi 5 ta ariqqa suv bergan⁶⁸. O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi Surxon vohasida ham sug'orish tarmoqlari tizimida o'ziga xos boshqaruv usuli mavjud bo'lgan. Bunda asosan, vohaning tog' va tog'oldi hududlarida sug'orish tarmoqlari tizimida miroblar asosiy faoliyat ko'rsatib, har bir mirob o'z qo'l ostidagi irrigatsiya tizimini boshqarganlar. «Mirob» atamasi arabcha va forsha so'zlarning birikmasidan vujudga kelgan. Mir «amir» so'zining qisqargan holatdagi shakli bo'lib, rais, boshliq, peshvo, bek ma'nolarini anglatadi, «ob» suv degan ma'noni bildiradi. Ushbu lavozimga el ichida obro'-e'tiborga ega bo'lgan, barcha xonadondagilarni yaqindan yaxshi biladigan va aholiga so'zi o'tadigan, yoshi o'rta yoshdan oshgan, muomila madaniyatiga ega shaxslar saylangan. Vohada miroblarni saylashning mavsumi bo'lgan. Asosan bu tadbir bahor faslida may oyining o'rtalari va kuzda sentabr oyining boshlarida o'tkazilgan.⁶⁹ Bu tadbir ommaviy tarzda hashar ko'rinishidagi ariq qazish tadbiri bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ya'ni bu jarayon o'tkazilish muddati o'sha yili ob-havoning qanday kelishi hamda suvning miqdori qanchaligiga qarab o'zgarib turgan. Misol uchun Boysun tumanining aksariyat tog'oldi qishloqlari, jumladan, Chilonzor qishlog'ida bir qancha soylar mavjud bo'lib, undan aholi tomorqalariga suv haydab chiqishda

⁶⁸ O'zbekistonni rayonlashtirish ishidagi materiallar (arab alifbosi). Birinchi bo'lak. – T.: 1926. – b. 208.

⁶⁹ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. F-4. 1-ro'yxat. 5-ish. 3-varaq.

bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi⁷⁰. Ob-havo noqulay kelgan va yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan yillarda suv to‘g‘onlarini soydan keladigan kuchli sel va toshqinlar buzib ketgan hamda ariqlar loy va botqoqlar bilan ko‘milib qolgan, ba’zi joylarida butunlay yuqoriga suv olib chiqiladigan ariqlar butunlay yuvilib ketilgan. Natijada aholi vakillari sun’iy tarzda yangidan ariq uchun tuproq va toshlardan tepaliklar yuzaga keltirilgan. Bevosita ushbu jarayonlar ariq qazish va miroblarni saylash muddatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan.

O‘zbekistondagi barcha xalqlar singari Surxon vohasi dehqonlari ham donli ekinlarni ko‘proq ekishgan. Kuzda haydalgan yerlarga bug‘doy, arpa ekilgan. Urug‘ qo‘l bilan sepilgan va ustidan mola tortilgan. Don ekilgan to‘qay yerlar asosan, maysa unib chiqgach, boshoq olish oldidan va don xamirga aylanganidan so‘ng 2-3 marta sug‘orilgan⁷¹. Pishgan donli ekinlar o‘roq bilan o‘rilgan. O‘roqlar ishlovchining talabiga ko‘ra katta-kichik qilib yasalgan. Yosh o‘spirinlar, qizlar, ayollar kichik va yengil o‘roqlarni ishlatishgan. Maxsus o‘roqchilarning o‘rog‘i solvarli, tig‘li kismi uzun va enli bo‘lgan. Mahalliy o‘roklar deyarli bir xil, fakat katta-kichikligi va tig‘ining shakli bilan farqlangan. Surxon o‘rog‘i o‘ziga xos shakli va tishining maydaligi bilan ajralib turadi⁷².

Dehqonchilikda voha aholisi lalmikor maydonlarda ko‘proq qovun, tarvuz ekkan. Sug‘oriladigan yerlarda esa oshqovoq (kadi), bodring yetishtirilgan. XX asrning boshlaridan e’tiboran esa voxada kartoshka, rediska, karam, pomidor, baqlajon kabi ekinlar ham ekila boshlagan⁷³. Buxoro, Xorazm, Farg‘ona viloyatlarining qovunlari singari Surxondaryo qovunlari xam o‘zining hushbuyligi, shirinligi bilan mashxur bo‘lgan. Shuningdek, Bandixon, Istara, Gilambob, Bobotog‘, Beshqo‘ton qovun-tarvuzlari, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Denov sabziyu sholg‘omlari, Dashnobod anorlari, Boysun, Xonjizza, Sangardak olxo‘riyu olmalari, Machay, Kengtala, Shalqon pistalari, Oltinsoy uzumlari qo‘shni shaharlar bozorlarining ko‘rki

⁷⁰ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Boysun tumani Chilonzor mahallasi , 2021 yil.

⁷¹ Surxondaryo – etnografik makon: ocherklar, insholar\ S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, N. Maxmadiyorova.-T.: Akademnashr, 2012.-113 b.

⁷² Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog‘i , 2022 yil

⁷³ Современный кishлак Средней Азии (социально-экономический очерк). Вып. 3. – Т.: 1926. – С. 54.

bo'lgan. Vohada polizchilik sohasi o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, qovun va tarvuzlar yetishtirilgan. Shuningdek, sabzi, qovoq, piyoz kabi boshqa poliz ekinlari ham yetishtirilgan. Vohaning tog' va tog'oldi hududlarida qovunning 16 navi, oshqovoqning 9 navi mavjud bo'lgan. Surxon vohasida sug'oriladigan yerlarda beda, makkajo'xori, sholi kabi ekinlar bilan birga paxta ham yetishtirilib, davrlar o'tishi bilan paxta maydonlari kengayib bordi. Vohaning Denov, Sariosiyo, Uzun, Sho'rchi kabi tumanlarida bu holatni kuzatishimiz mumkin.

Surxon vohasi dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq an'analar nihoyatda ko'p va turli-tuman bo'lib, dehqonchilik bahorgi dala ishlari asosida yangi yil-quyoshning baliq (hut) burjidan qo'y (hamal) yulduzlar turkumiga o'tgan vaqtdan, ya'ni 21 martdan boshlanib 21 aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Navro'z arafasida dehqonlar omoch-bo'yinturuqlar, yer haydaydigan hayvonlarni tayyorlab, bahorgi ekinlar uchun sara donlarni tayyorlab qo'yganlar. Dehqonlar bayrami Navro'z kunida katta bayramlar tashkil etilib, yer haydashni dushanba va chorshanba kunlari xosiyatli kun sifatida amalga oshirgan. Surxon vohasida yerni kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi bo'lsa janubga qaratib qo'sh bilan haydaganlar. Yer haydashdan oldin kiyimlar va tana pok holda bo'lib, serhosil mo'l don va qishloq xo'jalik mahsulotlarga ega bo'lish uchun ho'kiz, qo'y va xo'roz so'yib qurbonlik qilganlar⁷⁴. Surxon vohasi sun'iy sug'orishga asoslanganligi uchun Navro'zgacha ariqlar tozalanib, hasharchilar loyqa qoldiqlarni, suvni yo'lini to'sib turgan boshqa jismlarni ariq va kanallardan olib tozalashgan. Eng muhimi suvni muntazam bo'lishi uchun hasharchilarga mahalla aholisi pul to'plab, pulga sadaqa uchun "jonliq", ya'ni qo'y, echki sotib olib, qurbonlik qilganlar. Sherobod, Qiziriq, Bandixon, Boysun, Uzun, Oltinsoy hududlarida o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida Hazrati Sulaymonga, Hazrati Dehqon boboga atab maxsus qurbonliklar qilganlar hamda omochni dalaga chiqarish maqsadida "is" chiqarib ruhlarni shod qilganlar. Yer haydash uchun qish oylarida maxsus boqilgan ho'kiz yoki sigirlarni omochga qo'shishdan oldin, hayvonlarni shoxlariga ,is" yog'idan surtib, hosil mo'l, to'kin sochinlik bo'lsin

⁷⁴ Tursunov S. N., Pardayev T. R., Maxmadiyoro'va N. // Surxondaryo-etnografik makon: ocherklar, insholar .-T.: Akademiya, 2012. – b 79.

deb duo qilganlar. Surxonga xos bo'lgan xususiyatlardan biri dala boshiga Dehqon bobo timsolida qishloqning eng kekxa nuroniy kishisi toza tana, oq ko'ylak, oq ishton hamda oq belbog' bilan dalaga dastlab yer haydashni boshlab, donni dalaga sepib bergan.

Har yili bahor oylarida o'tkaziladigan "darveshona" yoki "osh xudoyi" marosimi bevosita dehqon va chorvador aholi uchun yerga ekilgan urug'dan yaxshi hosil olish hamda chorvaning yanada ko'payishi uchun ahamiyatli hisoblanib, o'ziga xos ma'lum pirlar va ruhlarga ehson tariqasida o'tkazilgan⁷⁵.

2.2. Bog'dorchilik sohasidagi ana'analar va yangilanishlar.

Surxon vohasi bog'dorchilikda o'ziga xos ana'analarga ega hududlardan hisoblanadi. Bunda tog'li tumanlar o'zining mo'tadil iqlimi va qulay geografik joylashuvi hamda minerallarga boy suvi tufayli alohida ahamiyatga ega. Bu hududlarda mavsumiy yog'ingarchiliklar ham bog'dorchilik sohasi rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Denov tumanidagi Dashnobod qishlog'ida yurtimiz hududida mashhur bo'lgan anorlar yetishtirilgan⁷⁶. Bugungi kunda shu kabi anorlar Sherobod, Boysun va Muzrabot hududlarida ham yetishtirilmoqda⁷⁷. Vohaning tog'li hududlardan Vaxshivor, Sina, Zardaquo'l, Chinor hamda tekislik hududlaridan Xidirsho, Mormin, Qarluq, Ipoq, Qumpaykal kabi qishloqlarida uzumchilik keng taraqqiy etgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Buxoro amirligida uzumning 12 xil navi mavjud bo'lgan: halili, oq halili, husayniy, shakar uzum, kishmish, javuz, maska, oq uzum, behishti, sohibi yoki xiroti, toyfi, shibirg'oni⁷⁸.

Vohaning uzum toklarining xilma-xil navlarining yaratilishi, shirin shakar mevalarni uzoq muddat saqlash xususiyatlari ekinlarga yerni tayyorlash hamda urug' sepish, nihol ekish madaniyati ming yillik tarixga ega ekanligini alohida

⁷⁵ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati Boysun tumani Panjob qishlog'i , 2021 yil

⁷⁶ Маев Н.А. Очерки горных бекств Бухарского ханства. // МСТК, вып. V. СПб, 1879. –М.: – С. 261

⁷⁷ Dala yozuvlari . Sherobod, Muzrabot va Boysun tumani qishloqlari. 2021 yil

⁷⁸Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – С-ПБ.: 1843. – С.121-122.

ta'kidlash kerak. Qadimgi ajdodlarimiz bog' yaratishda tuproq hosildorligiga alohida e'tibor berib, daraxtlarni ekishdan oldin bog'lar uchun joy tanlashgan, dehqon daraxt ekish uchun joy tanlashda quyidagilarga e'tibor bergan. Yomg'ir yoqqanda yer yorilmasa, yerda turli xil giyohlar gurkirab o'ssa, ranggi qora yoki sariqqa moyil tuproqqa bir necha barmoq chuqurlikda nam bo'lgan holatda, tuproqni qo'l bilan siqqanda yumaloq bo'lib qolsa, barmoq uchi bilan nuqiganda uqalanib ketsa bunday tuproqlar hosildor tuproqlar bo'lgan. Qadimgi bog'bonlar tuproq bir-biriga yopishmasa, yoki ortiqcha yopishib ketsa, odam va hayvonlar oyog'iga tuproq ilashib qolsa, bunday tuproqlarni kam hosilli sifatsiz tuproq deb belgilagan. Shuningdek, bog'bonlar bog' maydonlarga yomg'ir yog'ishini alohida kuzatishib, qaysi holatda yomg'ir yog'ishini oldindan bilganlar. Masalan, chumchuqni daraxt ustida sayrashi, oy chiqayotgan paytda qizilga moyil bo'lishi, quyosh chiqayotganda uni bulut parchalari o'rab olishi, quyosh botayotganda uning chap tomonda qora bulutlarning ko'p yig'ilishi, tovuqni ha deb o'zini titkilayverishi, jimib ketishi, dumlarini uzun va to'g'ri qilgan holda g'arb tomonga qarab turishi, bo'rilarining qishloqlarga ko'p oralashi yomg'ir yog'ishidan dalolat bergan. Yangi bog'lar yaratishda ko'chatlar asosan, qadimda asosan kuz vaqtida, birinchi yomg'ir yog'ishi davrida ekilgan. Keyin esa sovuq tushgan paytida daraxtlar ekilgan. Kuz paytida ekilgan daraxtning katta tomirlari va mayda tomirlari serob bo'lgan. Daraxtlar asosan kunduz kuni ekilgan, sababi daraxtning bo'yi o'sib ketmagan hamda mevasi ko'p bo'lgan. Oyning yorug'ida yoki oy yer yuzida paydo bo'lgan vaqtda ekilgan daraxtlarning bo'yi o'sib ketib, hosili kam bo'lgan. Daraxt ekish uchun tanlangan yerni birinchi kuni bir qarich chuqurlikda kavlashib, ikkinchi kunida bir qarichdan kavlangan, bu jarayon to'rt marta takrorlangan. Chunki, birinchi, ikkinchi kunlar kavlangan jarayonida tuproqning tarkibi, sho'rlanish jarayoni, suvni shimib olish holati o'rganib olingan. Yer va tuproqdagi amallar ekin ekish uchun tuproqni serhosilligini aniqlash alohida ahamiyatga ega bo'lib, yomg'ir yoqqandan keyin nam yer ostida qancha ko'p turishiga qarab yer kuchli va kuchsiz ekanligini aniqlash bo'yicha katta tajribalar amalga oshirilgan. Shuningdek, urug'larni tanlash, ko'chatlarni sog'lomini ekish

va ko'chat o'tqazish masalasidagi tajribalar asrlar osha takomillashib borgan⁷⁹. Ko'chatlarni ekkandan keyin 2 yil unga po'lat asbob uskunalar tekkizilmagan va ko'chat 2 yoshga yetmaguncha boshqa joyga ko'chirilmagan. Katta daraxtlarni ko'chirishda joy kengligi 3 gaz miqdorda chuqur kavlanib, daraxtning tomirlari yerda sudralib sinmasligi uchun kesib qo'yilgan. Ko'chirilayotgan daraxt oldingi joyida turganda shoxlari sharq tomonga qaragan bo'lsa ko'chirilganda ham sharqqa, g'arbga tomon qaragan bo'lsa, g'arb tomonga qo'yib ekilgan. Ko'chirilgan daraxtning balandligiga qarab shamol qimirlatib yubormasligi uchun 3 tomonga tirgovuch qo'yilgan. Agar daraxt tomirini kavlab, ochib tomirlarini kaptar go'nggi bilan bo'yalsa mevalar hosildor bo'ladi. Daraxt uchun o'rdak go'nggidan tashqari hamma go'nglar foydali bo'lib, parrandalar ichida kabutarning go'nggi eng yaxshisidir. Daraxtlar uchun qo'y va echkinning go'nggi juda quvvatli va ta'sirli bo'lib, olti arava qo'y va echki go'nggi 9 arava ot go'nggiga teng bo'lgan. Qo'y va echki go'nglari asosan qattiq va sovuq bo'lgan tuproqlarga berilishi, ot go'nggi esa quruq tortmaydigan tuproqlarga, mol go'nggi esa quruq va issiq tuproqlarga, suvni ko'p ichadigan joylarga solinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, go'ng bo'lmagan joylarda ariq va zovur tuproqlari chirigan qamishlar, xashak, barg, eski uylarning tomidagi tuproqlar, eski va nuragan devorlarning tuprog'i, ko'chalarning chang tuproqlari, axlatlar, uydan chiqqan kullar, palos, liboslarning parchalari, suyaklar, chirigan mevalarni to'plab ulardan tuproqqa berish maqsadga muvofiq⁸⁰. Daraxtlarni ekishda qadimgi an'analarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega bo'lib, tok ekish uchun avvalo yer bir tirsak chuqur kavlanib, chuqurdan olingan tuproq maxsus idishga solinib, uni suv bilan chayqatib, suv tinguncha qo'yib qo'yiladi. Agar suvning hidi va ta'mi asli holda qolsa yer yaxshi hisoblanib tok ekilgan. Tok yetti daraja issiq va o'rtacha iqlimli yerlarni xoxlab, tok asosan hut oyining oxiri, ya'ni laylak keladigan vaqtda ekiladi. Tokni o'tqazish uchun eng yaxshi vaqt suv kam bo'lgan kuz faslidir. Dehqonchilikda behi daraxti ko'proq quruq yerga ekilgan, ya'ni, yer namli bo'lmagan yerlarga behi daraxti ekilgan. Olma daraxti bahor va kuz faslida ekilib,

⁷⁹ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Boysun tumani Gaza qishlog'i, 2020 yil.

⁸⁰ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Boysun tumani Gaza qishlog'i, 2021 yil.

anzur piyozini olma daraxtining tomiri ostiga qo'yib ekilsa, qurt tushishidan omon saqlaydi. Olmani olxo'ri daraxtiga payvand qilinsa olmaning ranggi qizil bo'ladi. Ammo, yong'oqni boshqa daraxtlarga payvand qilib bo'lmaydi. Shaftoli olxo'riga, nok va olmani har uchchoviga payvand qilish mumkin. Agar anjirning yer ostiga bo'lgan tomiriga qisqaroq biror narsa yozib qo'yilsa meva qilgach o'sha yozuv mevasida paydo bo'ladi. Daraxtlarni mol o'ti bilan bo'yab qo'yilsa barcha ofatlardan salomat bo'ladi⁸¹.

Bog'dorchilik madaniyatida daraxtlarni ekish, ko'kartirish va hosilni yig'ib olish jarayonida katta mehnat talab qilinib, hozirgi davrda xalqimizning oziq-ovqatga bo'lgan talab ehtiyojlarini qondirishda bog'dorchilik muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz va o'tmish avlod-ajdodlarimiz tomonidan sinab ko'rilgan tajribalarga tayanishimiz yeng kerakli masaladir. Surxon vohasi aholisi dehqonchilik sohasida katta tajribaga ega bo'lib, qadim davrdan hozirgacha dehqonchilikni rivojlantirish jarayonida bog'dorchilikka alohida e'tibor berib, meva yetishtirish bo'yicha avlodlarga xos boy tajribani kelajak avlodga taqdim etmoqda⁸². Taniqli adib Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko'rmoq, xayrlidir" – degan fikriga alohida e'tibor berib, dehqonchilik madaniyati tajribalariga asoslanib, yangi-yangi meva navlarini yaratib, bog'dorchilik sohasida dunyo tan oladigan maktab yaratdilar. Bog'bonlarimiz ekilgan daraxtni ko'karib chiqishini, barg yozishini, gullashini, hosil berishini umid va ishonch bilan kutgan. Bog'larga alohida mehr bilan qaragan. Har qanday ins-jinslarni yaqinlashtirmaslik uchun urf-odatlarga qat'iy amal qilgan. Daraxtlarni ekishdan oldin Dehqonbobo, Xizirbobo, Bog'bonbobo kabi ilohiy kuchlarga sadaqalar berib, ekkan daraxtini mevasini nasib qilishni, to'y va yaxshi kunlarda, bayramlarda odamlarga taqdim qilishni niyat qilganlar⁸³. Shuning uchun bog'ga qadam qo'ygan dehqon toza kiyim, toza tana, toza dil va fikr bilan kirib kelgan. Shu harakati tufayli mevali

⁸¹ Tursunov S. N., Pardayev T. R., Maxmadiyoro'va N. // Surxondaryo-etnografik makon: ocherklar, insholar. –T.: Akademnashr, 2012. –B 89.

⁸² Odilov B. A. XIX asr ikkinchi yarmi XXI asr boshlari tadqiqotlarida o'zbek xalqining an'anaviy xo'jalik masalalari// Tarix fani nomzodligi dissertatsiyasi. –T.: 2019.–b 129

⁸³ A. Ashirov; mas'ul muharrirlar: Abdullayev U., Fuzailova G.; Etnologiya: o'quv qo'llanma, T.: "Yangi nashr", 2014 y., b 74

daraxtlarni o'sishiga, shirin sharbat mevalar berishiga, mevalarni xasharotlar, qurt-qumursqalar va balo-ofatlardan saqlash uchun yaratgandan iltijo qilib so'rashgan.

Bog'dorchilik tajribalari natijasida Surxon vohasi tog'oldi hududi aholisi uzoq asrlar davomida anor navlarini yaratish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishilib, iqlim, tuproq sharoitiga mos turlari yaratildi. Hozirgi vaqtda anorni uch xil navi mavjud. Bular: Achchiq; Mayxush; Shirin navlari bo'lib, ular o'zining shirinligi, sifati, uzoq saqlanishi bilan bir-biridan farq qilib shifobaxshiligi bilan ajralib turadi. Achchiq anor 3 xil navga ega⁸⁴ : 1. "Qayiniyi asl va a'lo" bo'lib, katta-katta, qizil, yaltiroq hamda donalari suvli va yirik bo'ladi. Tergandan keyin terisi tez yumshaydi. 2. "Qayiniyi past" ("Past qayin") bo'lib, yuqoridagiga nisbatan kichikroq, terisi oqishroq, donalari maydaroq, o'zi esa nordon va kam suvroq bo'ladi. 3. "Qizilboshiy" bo'lib, uncha katta bo'lmaydi, terisi qizil, yo'g'on tojli bo'ladi. Mayxush anor ham 3 xil navga ega: 1. Eng a'lo – "Qubodiyoniy asal" (Asl Qubodiyon) bo'lib, anorlarning toji bo'lib, donalari yirik, suvli, shirin. Nafis terisi qizil, ko'k va oqqa moyildir. 2. Ko'k teriligi bo'lib, terisi qalin, qattiq bo'lib, terisi kechroq bujmayadi va bahorgacha saqlanadi. 3. "Nori surh" ("Qizil anor") – unchalik katta bo'lmaydi, ranggi chiroyli, ta'mi juda shirin, tez hazm bo'ladi. Yaxshi pishsha donalari yirik va suvli. Qizildan qoraga moyilroq. Ko'p yorilmaydi va uzoq saqlanadi. Shirin anor 2 navga bo'linadi: 1. "Buzrugi surxina" ("Katta qizg'ishi") – asl qayin anorga o'xshab terisi qizil, donasi qizil, suvli, yirik bo'ladi. 2. Kichik, suvsiz, terisi oqqa moyil, uncha qadrlil emas.

Anorga Hamal oyida qayta ishlanib, Savr oyida ko'proq ishlov berish zarur. Anor tagidan o'sib chiqqan erkak shoxlar o'tkir arra bilan kesib tashlanib, anor tagidagi shoxlar qolmasligi kerak. Javzo oyida suv ko'proq berilib, hosilni olish va saqlab qolishga alohida e'tibor berish zarur. Anorga Saraton oyida kamida to'rt marta suv berib, giyohlar qurishi davrida anor tanasidan o'sib chiqqan shoxlar kesib olinadi. Daraxt kam tanali bo'lsa, o'sib chiqqan shoxlardan ko'chat uchun saqlab qolinadi. Asad oyi oxirida anor daraxtiga qayti ishlov berilib, daraxt tanasi atrofi ag'darilib, ikki-uch kun qoldirilib, keyin suv beriladi. Oradan bir hafta

⁸⁴ Surxondaryo-etnografik makon: ocherklar, insholar \ S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, N. Maxmadiyoro'va.- Toshkent : Akademnashr, 2012.- b 122.

o'tgach yana anorga suv beriladi. Suv berilgach oradan ma'lum vaqt o'tib yer qurigach, anor daraxti atrofi ag'darilib yumshatiladi. Daraxt atrofidan o'sib chiqqan o'simliklar yulib tashlanib, yer bir haftagacha ag'darilgan holda turadi. Mezon oyida to'rt marta anorga suv berilib, anor pishish arafasida suv berish to'xtatiladi. Keyingi suv berish anor hosilini yorilishiga olib keladi. Anor daraxti hosillarini daraxt tanasiga og'irlik qilmasligi uchun tirgovichlar berish zarur. Chunki ushbu tirgovichlar orqali daraxt tanasi sinmaydi hamda hosil rivojlanishiga foydasi tegadi. Anor xosilini shoxlar tagiga, barglar orasiga hamda qog'oz, yupqa surp lattalar bilan bog'lab qo'yilsa, quyosh issig'idan hamda shabnam suvlaridan saqlaydi. Ushbu yo'l bilan anorlarning ko'p yorilishi va ortiqcha nobud bo'lishidan saqlaydi. Anor daraxti hosildan bo'shagach uni tezda butalab, shoxlar orasidan qurib qolgan yoki erkagi deb atalgan yo'g'on novdalar kesib tashlanadi. Anor daraxtiga ot poriysini solish maqsadga muvofiq, bu anorni xushrang qiladi. Anor daraxtiga it tezagi, kul, najosat, suyak, jun, mayda charmlarni tuproqqa qo'shib aralashtirib anorga solinsa, serhosil va xushrang bo'ladi. Umuman anor tabiiy o'g'itlarnilarni yaxshi ko'radigan daraxt hisoblanib, u o'n darajagacha sovuqqa chidaydi. Anor daraxti yaxshi parvarishlanib, sovuq va issiqdan asrab, o'z vaqtida parvarish qilinsa uch yuz yilgacha umr ko'radi⁸⁵. Bog'dorchilikda qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida anorni inson tanasiga quvvat, shifo berish davrlar davomida o'z isbotini topib, tibbiyot sohasiga alohida xizmat qilib kelayotgan mevali daraxtdir. Anorning shifobaxsh xususiyatlari to'rt ming yillik tarixga ega bo'lib, uni quyidagi misollar orqali bilish mumkin: Anor – nordon anor sharbati – sovuq, quruq va latifdir, ko'ngil aynishini qaytaradi. Anor guli – milk qonashiga yaxshi yanchilgani shifo bo'ladi. Eski yaralarni bitiradi, dabba kasalini tuzatadi (qaynatib ichiladi). Qimirlagan tishlarni mustahkamlaydi. Qaynatmasi ichilsa, qon oqishini to'xtatadi. Ichni qotiradi, bachadon oqmasidan qon ketish va ichak yaralarini tuzatadi. Anor guli va urug'ini qaynatib ichsa ham ichak yarasi davolanadi.

Rus qo'shinlari O'rta Osiyoni zabt etganlarida bu yerda ular uzum boshlarining kattaligi va chiroyliligi jihatdan hali uchratilmagan xo'raki

⁸⁵ Dala yozuvlari. Oltinsoy, Sherobod tumanlari tog'oldi qishloqlari. 2021 yil.

navlarini, shirador mayizlarning juda ko‘p tayyorlanishini va keng iste‘mol qilinishini ko‘rdilar. Vinochilik savdo-sotiqning kengayishi asosida rivojlana bordi hamda vino ishlovchilarga va vino sotuvchilarga katta daromad keltirdi. Shu sababli Turkiston o‘lkasida vinochilik zavodlarining soni tez o‘ydi. masalan, 1888 yildan boshlab beshta aroq va konyak zavodi, 1903 yilda esa, 23 ta vino zavodi ishlay boshladi. Krasnovodskni Toshkent bilan bog‘laydigan temir yo‘lining qurilishi hamda Toshkent –Orenburg temir yo‘lining ishga tushishi O‘rta Osiyoning tokzor hududlaridan mahsulotlarni Rossiyaning markaziy bozorlariga olib borish imkoniyatini berdi. O‘zbek xalqi tok o‘stirishni yaxshi ko‘radi, uni biladi va juda qadrlaydi. Mirishkor dehqonlar orasida uzumdan mo‘l hosil olayotgan va o‘z tajribasini boshqa tokchilarga o‘rgatayotgan sohibkor juda ko‘p.

Tabiatda tok toksimonlar oilasiga kiruvchi lionalar turkumiga mansub o‘simlikdir. Tabiatda toksimonlarning 11 turkumi mavjud bo‘lib, ular o‘z ichida 600 ga yaqin turga ajraladi. Har bir tur turli sharoitga moslashib, morfologik tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Ular orasida baland daraxtlarga chirmashib, yer bag‘irlab yoki butaga o‘xshab tik o‘sadigan turlaridan ham uchratish mumkin. Tok shu tarzda iqlim va tuproq sharoitida moslashgan.

O‘rta Osiyoda yetishtirilgan Husayni, Nimrang, Charos, Hasayni, Kelin barmoq, Najimi, Oktabr, Charos muskati, O‘zbekiston muskati kabi uzum navlari dunyoga mashhurdir. Tokning yer ustki qismi bir yashar tok ko‘chati sug‘oriladigan yerga ekilganda, novdasi bir mavsumda 3-4 metrgacha o‘sadi, 2-4 yashar toklarning novdalari 8 metrgacha yetishi mumkin. Ayniqsa sug‘oriladigan yerlarda daraxtlarga chirmashib o‘sadigan tok navlari yuqoriga qarab tez o‘sadi. Yil davomida tok ikki davr - tinchlik va o‘sish davrlarini o‘taydi. Tokning o‘sish davri 6 davrdan iborat. Birinchi davr-tokda shira yurisha boshlagandan kurtaklar bo‘rtib ochilguncha; ikkinchi davr –kurtaklar ochila boshlagandan sho‘ralar gullaguncha; uchinchi davr- tok gulga kirgandan gullab bo‘lguncha; to‘rtinchi davr- gullash oxridan g‘ujumlar pisha boshlaguncha; beshinchi davr- uzum pisha boshlagandan hosil to‘la

yetilguncha; oltinchi davr esa barglar to'kilguncha davom etadi. Surxondaryo viloyatida Xo'raki navlar: Surxon kitob, Qora kishmish, Pushti kishmish, Oq kishmish, Oq husayni, Go'zal qora, Qora janjal, Nimrang, Pushti toyfi, oktabr, Termiz zonasi uchun: Kattaqo'rg'on, Sultoni; Vinobop navlar: Pushti muskati, Venger muskati, Alnatika, Risling, Rkatsiteli, saperavi, Bayan shirey kabi navlari mavjud. O'zbekistonning iqlimi mo'tadil. Qishda ayrim tumanlarda sovuq 30-35 darajaga yetadi. Yozda issiq 40 S darajadan oshadi. Uzum yetishtirish uchun qulay sharoit mart oyidan boshlab, oktabr, noyabr oyigacha davom etadi. O'zbekistonning hamma tumanlarida ham mart - aprel oylarida qora sovuq bo'lib turadi. Ba'zan bu sovuqda tokning bo'rtib qolgan kurtak hamda navlari zararlanadi. Hatto, ularni sovuq uradi. Kuz oylarida ham ba'zan kun issiq bo'lib, qo'qqisdan sovuq tushadi.

Surxondaryo viloyatining Denov, Sariosiyo tumanlari, shuningdek, Qashqadaryo viloyatining ko'pgina tumanlari yerlari tipik bo'z tuproqdan iborat. Bu xil tuproqlarning tarkibida oziq moddalar ko'proq (chirindi 1,5-2, azot 0,1-0,2%) bo'ladi va shu jihati bilan ular och tusli bo'z tuproqlardan farqlanadi⁸⁶. Respublikamizning 50 foizdan ko'proq yerlarida xlor, sulfat kabi o'simlik uchun zararli hisoblangan tuzlar mavjud. Uzumzor barpo qilish uchun organik va mineral moddalarga boy, havoni yaxshi o'tkazadigan, sho'rlanmagan, botqoqlanmagan, yozda suv bilan to'la ta'minlanib turadigan, bo'z tuproqli yerlar qulay hisoblanadi. Lekin quyosh va qattiq qizdirishi, muntazam sug'orish, ishlov berish natijasida kulrang bo'z va sho'r tipdagi boshqa tuproqlarning strukturasi yil sayin buzilib boradi. Bundan tashqari, tuproqdagi gumus, azot, fosfor va kaliy moddalari ko'p yillik o'simlik bilan tokning bu oziq moddalarga bo'lgan talabini to'liq qondira olmaydi.

Tok ko'chatlari asosan qalamchadan ko'paytiriladi. Tok qalamchadan oson ko'payadi va bunda o'zining biologik xususiyatlarini to'liq saqlab qoladi. Tok ko'chatlari urug'idan ham ko'paytiriladi, lekin urug'idan ko'paytirish usuli

⁸⁶ Tursunov S. N. XX asr boshlarida Surxon vohasida sug'orish tizimining rivojlanishi //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ.– М.: 2001, С 19.

faqat yangi tok navlarini yetishtirishda qo'llaniladi⁸⁷. Qalamchalar yaxshi chiniqib pishgan, kasallanmagan, ezilmagan, ma'lum yo'g'onlikdagi novdalardan olinadi. Qalamchalarning uzunligi ikki xil -55-60 yoki 110-12 smdan qilib qirqish mumkin. Har bir qalamchadan kamida beshtadan bo'g'in bo'lishi shart. Kuzda tayyorlangan qalamchalar maxsus chuqurlarga ko'miladi. Bu chuqurlar suv to'planmaydigan, sizot suvi chuqur joylashgan, botqoqlanmagan, sho'r bosmagan, quyosh nuri kun bo'yi qizdirmaydigan yerda chuqurligi 60-70 sm, kengligi 1,5- 2 metr va uzunligi qalamchalar hajmiga mos qilib qaziladi. Tok qalamchasi ekiladigan yer suv bilan ta'minlanib turadigan, begona o'tlardan toza, unumdor, katta yo'lga yaqinroq bo'lishi kerak. Qalamchalarni ekish. Tok qalamchalari respublikaning ko'pgina viloyatlarida mart-aprel oylarida ekiladi. Tog'li va yer qatlamlari muzlamaydigan va qishda qor qalin tushadigan zonalarda oktabr- noyabr oylarida eksa bo'ladi. Bahorda 25-30 santimetrlik tuproq qatlamidagi harorat 10 darajaga yetganda ekilgan qalamchalar yaxshi yetiladi. Tokzor uchun joy tanlash. Tok 60-80 yil va undan ham ko'proq yashaydi va hosilga kirgandan boshlab har yili hosil beradi. Tokzor uzoq yillar mo'l hosil berishi uchun dastavval uzumzor barpo qilinadigan maydon unumdor bo'lishi kerak. Tok qumloq, toshloq, bo'z va shunga o'xshash tuproqli zonalarda yaxshi o'sadi va mo'l hosil beradi. Uzumzor barpo qilinadigan yerlarni bo'lib chiqish. Uzumzor barpo qilinadigan reja asosida kvartallarga, kvartallar karta va kartalarga bo'lib chiqiladi. Yerlarni tok ko'chatlari ekishga tayyorlash. Katta maydonlarni tekislashda buldozer, skreper, greyder va traktorlar volokushkalaridan foydalaniladi. Sizot suvlar yuza joylashgan uchastkalarining chetidan 3-4 metr chuqurlikda zovur qaziladi. Yer tekislangach, 60-70 sm chuqurlikda haydaladi. Sho'rxok yerlarni ko'chat ekishga tayyorlash. Tok o'simligi boshqa mevalarga nisbatan tuproq sho'riga anchagina chidamli. Ammo tok o'tkaziladigan yerning umumiy tuzliligi 0,1-0,2 foiz yoki eng zararli hisoblangan xlorion tuzi 0,02-0,03 foizdan ko'p bo'lmasligi kerak. Uzumzor qator oralariga birinchi yili poliz ekinlari yoki

⁸⁷ Dala yozuvlari., Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Zardaqlu qishlog'i , 2021 yil avgust

chopiq qilinadigan ekinlar ekish ham mumkin. Ekin qatorlari tok tuplaridan gʻ,5 metr uzoqlikda boʻlishi kerak. Oʻsish davrida uzumzor qator oralari traktor kultivatori bilan 4-6 marta, qoʻl bilan 2-3 marta yumshatiladi. Qatqaloq paydo boʻlishiga, begona oʻtlarning rivojlanishiga yoʻl qoʻyilmaslik kerak. Tok koʻchatlari oʻtkazilgan dastlabki yilda uning ildiz sistemasi uncha yaxshi rivojlanmagan boʻladi. Shu sababli uzumzorni tez-tez sugʻorib turish zarur. Tok Oʻzbekiston sharoitida simbagʻaz, ishkomb, ikki tomonli simbagʻaz, (soʻritok) soʻri holida va yerbagʻirlatib oʻstiriladi.

Bodom subtropik oʻsimlikdir va Surxondaryo viloyatlarining togʻ va togʻoldi qiyaliklarida qadim zamonlardan buyon oʻsadi va hosil beradi. Bu yerlarda yangidan barpo qilingan bodomzorlardan tashqari tabiiy oʻrmonlarda yovvoyi holda ham oʻsadi. Bu yerlarda ularning oddiy (mahaliy), Buxoro, Petunnikov, Tikanli, Kalmikov deb atalish bodom navlari mavjud. Vohaning koʻpchilik xududlarida bodomning har xil mahalliy navlari va shakllari keng tarqalganligi aniqlandi, ularni oʻsish manzillari belgilandi. Yangi bodomzorlar barpo qilishda ekiladigan navlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois shirin bodomning serhosil, mevasi yirik, poʻchogʻi yupqa va magʻzi toʻyimli navlarini ekish va koʻpaytirish davr talabidir. Bodom poʻchogʻining qattiqligiga qarab toʻrtta toifaga boʻlish mumkin: 1. Gʻalvirak bodom. Poʻchogʻi qogʻozdek yupqa, ikki barmoq bilan yengil chaqiladi. 2. Poʻchogʻi yumshoq, bodom gʻovak, ikkala qoʻlning barmoqlari yordamida chaqiladi. 3. Standart poʻchoqli bodom, bolgʻa bilan sal urganda chaqiladi; 4. Qattiq poʻchoqli bodom, poʻchogʻi qattiq, bolgʻa bilan kuchli urganda chaqiladi. Bodom daraxtiga bir qancha zararkunandalar jiddiy zarar keltiradi. Bogʻ qator oralarini shudgor qilish, daraxtlar atrofini yumshatish, begona oʻtlardan tozalash, qurigan, shikastlangan, zararlangan shox-shabballarni biror joyga yigʻib kuydirish, daraxt tanasini oxaklash (shtamb) zararkunandalarga qarshi kurash demakdir. Daraxtning pastki qismlaridagi eski poʻstloqlarni olib tashlash, qurigan shoxlarni kesib tashlash lozim. Biologik kurash chorasi sifatida kapalaklar tuxum qoʻyish davrida trixogramma chiqarish, biopreparatlardan

foydalanish,feromon tutqichlar yordamida hasharotlarning rivojlanishini bashorat qilib borish lozim.

Surxondaryo vohasining tog‘oldi tumanlari va daryo qirg‘oqlariga yaqin joylarida tabiiy iqlim qulayligi tufayli bog‘dorchilik va uzumchilik ancha rivojlangan. Qishloqdagi tomorqalarda 20-40 tup tok , 5-10 tup mevali daraxtlar mavjud bo‘lgan. Toklar suvni kam ichganligi sababli, boshqa mevali daraxtlardan ajratib ekilgan⁸⁸. Shahar joylardagi hovlilarda daraxt va toklar soni 2-4 tupdan oshib ketmagan. Daraxtlar tagidagi yer bo‘sh yotmasligi uchun beda ekilgan. Chunki boshqa ekinlardan farqli ravishda beda soyada ham o‘savegan. Vohaning Boysun, Sherobod, Denov kabi xududlarida tut daraxtlari xam parvarish qilingan. Joylarda balxitut,shotut, marvarid tutlarni ko‘proq uchratish mumkin bo‘lgan. Shuningdek, olmaning erta pishar va kuzgi pishar, novlari, nokning gulobi, noshvoti kabi turlari hovlilarda parvarishlangan Denov, Yurchi, Mirshodi, Sherobod bozorlarida uzumning charos, kora kishmish, xusayni, maska, sultoni, shakarak kabi turlarini, qovunning xandalak, ko‘kcha, buxori, ko‘kkalavash, bo‘rikalla, zariftolli, tarvuzning olatarvuz, qoratarvuz, chinnitarvuz, qirqkunlik tarvuz, olmaning kizil olma, oq, olma, nok olma, tramoyi olma singari turlarini uchratish mumkin .

2.3. Chorvachilikdagi an‘analar va ularda kuzatilgan transformatsiya jarayonlari

Asrlar davomida O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida chorvachilik sohasi muhim o‘rin tutib kelgan. Hududning tabiiy-geografik va iqlim sharoiti aholining xo‘jalik faoliyati va turmush tarziga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Surxon-Sherobod vohasining mo‘tadil iqlimi, bahor fasli erta kelishi, yoz fasli uzoq davom etib, qishning iliqroq bo‘lishi, hududning dasht, tog‘oldi va tog‘li tumanlarida boy mavsumiy yaylovlarning mavjudligi qadimdan an‘anaviy xo‘jalik tarmoqlaridan biri bo‘lgan ixtisoslashgan

⁸⁸ Qobilov E. Surxondaryoda sug‘orish tizimi// Mustaqillik. Ma’naviyat va tarbiya. – T.: 2000. – b. 133.

chorvachilikning keng rivojlanishiga imkon bergan. Chorvachilikning vohada yetakchilik rolini saqlab qolishiga qo'y-echkilarni tog' va adir yaylovlarida boqishga moslashganligi ham asos bo'lgan⁸⁹. O'zbeklar qadim davrlardan chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ammo o'troq aholi bilan yarim o'troq aholi orasida turli xildagi chorva xo'jaligi mavjud bo'lgan. Hozirgacha cho'ponlar o'zining risolasi va piriga ega. Ularning piri Cho'pon ota hisoblanib, cho'pon bo'lish xudoning marhamati, shuning uchun u juda hurmatli kasb deb qaralgan.

Chorvachilik Surxon vohasi xo'jaligida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblangan⁹⁰. Qulay iqlim, keng yaylovlarning bo'lishi chorvachilik rivojiga keng imkoniyat yaratadi. Yana muhim tomonlaridan biri chorva mollari boqish uchun o'simliklar dunyosining mo'lligi va rang-barangligi, uning davriy ketma-ketligidir. Vohada, o'simliklar dunyosi iqlim sharoitiga qarab va yuqoriga ko'tarilib borishi bo'yicha quyidagicha joylashgan. Cho'l, adir, tog' oldi vayaylov(baland tog' o'rmonliklari). Cho'l mintaqasiga dengiz sathidan 300-500 metr balandlikdagi yerlar kiradi. Voha hududining 51. 1 foizi shu zonaga to'g'ri keladi⁹¹. Adirlar dengiz sathidan 500-800 metrgacha bo'lgan balandlikka to'g'ri keladi. Bu cho'lda o'simliklar qovjiragan bir paytda xilma-xil tabiiy va madaniy o'simliklar qoqi, ismaloq, no'xatak, qashqayo'ng'ichqa, betaga, qo'zigul, lolaqizg'aldoq, qo'ng'irbosh, chalov, jipchak va shularga o'xshash butasimonlar

Ushbu mintaqada chorva mollarining katta qismi yoz faslida tog' yaylovlariga haydaladi. Dengiz sathidan 1700-3000 metr balandlikda yaylovlar (baland tog'lar) bo'lib, bu yerda turli-tuman alp o'tloqlari bo'lib archa, zarang, uchqat, irg'ay, olmurut, qorataloq va boshqalar o'sgan. Hitori qo'ylar va yilqilar uchun qisqa muddatli yozgi yaylov vazifasini o'tagan. Surxon vohasining tog' oldi va tog'-yaylov zonasi umumiy maydonning 48, 9 foizini tashkil etadi⁹².

Surxon vohasining o'ziga xos iqlimi va yerining ustki tuzilishi hududda O'zbekistondagi barcha yaylov turlari (dasht (cho'l), adir, tog' va yaylov)

⁸⁹ Кияткин Ф. Курдючное овцеводство в Узбекистане. – Т.: Fan, 1952. – С. 7.

⁹⁰ Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям. – М.: – С. 23.

⁹¹ Sattorov A. U. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari. Geografiya fani nomzodligiga dissertatsiyasi – T.: O'zMU, 2009. – b. 179.

⁹² Sattorov A. U. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari. – T.: – B. 17.

bo‘lishini ta’minlagan⁹³. O‘zbekistonning janubiy hududlarida yaylovlar tabiiy xususiyatlari va ulardan foydalanish jihatiga ko‘ra, 3 guruhga bo‘linadi: 1) tog‘oldi va adirlardagi kuzgi-qishki-bahorgi yaylovlar; 2) o‘rta tog‘ hududlaridagi o‘tish yaylovlari; 3) baland tog‘ mintaqalaridagi yozgi yaylovlar⁹⁴. Sovet davrida “paxta yakkahokimligi” siyosati tufayli vohada boshlangan qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirilishi natijasida undagi yaylovlar maydoni, ayniqsa, cho‘l yaylovlari keskin qisqarib ketdi. Unumdorligi past va tanazzulga uchragan yaylovlarning 1991 yildan boshlab davlat zahirasi va o‘rmon fondiga o‘tkazilishi hisobiga ular yana 40 foizga qisqardi⁹⁵. Bundan tashqari, yaylovlardan foydalanish qoidalari buzilishi (shaxsiy qaramog‘dagi mollarning uzluksiz boqilishi, yaylovlarni almashtirishga barham berilgani, ulardan tizimli foydalanishga rioya qilmaslik) tufayli yaylovlar unumdorligining pasayishi va yaroqsiz holatga kelib qolishiga sabab bo‘ldi.

Vohada XX asr oxirlarida chorvachilik bilan asosan qo‘ng‘irot, turk, qarluq, qatag‘on, qoraqalpoq, do‘rmon, laqay kabi yarim o‘troq turmush tarzini saqlab qolgan, qabila va urug‘larga bo‘lingan etnografik guruhlar, O‘rta Osiyo arablari, tojiklar, turkmanlar shug‘ullangan⁹⁶. Keyinchalik muntazam o‘troqlashuvi tufayli ular aralash xo‘jalik yuritish tarziga o‘tgan bo‘lsalar-da, aksariyati (jumladan, o‘zbek qo‘ng‘irotlari) xo‘jalik faoliyatida chorvachilik ustun bo‘lib qolavergan. Ta’kidlash joizki, asosiy faoliyat turi sifatida dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tgan aholi uchun ham ushbu xo‘jalik turi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sababi, chorvachilik aholini oziq-ovqat mahsulotlari va ishchi hayvonlar bilan ta’minlashdan tashqari, uy hunarmandchiligi turlari (kigizbosish, gilamchilik, ko‘nchilik) uchun asosiy xom ashyo (jun, teri) vazifasini ham o‘tagan.

Xo‘jaliklardagi chorva turi va tarkibi nafaqat tabiiy-geografik sharoitga va yaylov turlariga, shuningdek ularning ijtimoiy ahvoliga ham bog‘liq bo‘lgan.

⁹³ Сурхан-Шерабадская долина // Сборник научных трудов ТашГУ. – Т.: 1964. – С. 140.

⁹⁴ Морозов О.И. Пастбища и их использование // Сб. “Советский Таджикистан”. – Ст.: 1950. – С. 38.

⁹⁵ O‘zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. – T.: Nasaf, 2010. – B. 15

⁹⁶ Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. Сб. статей., - Т.: Наука, 1965. - С. 124-133; Қайюмов А. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vodiysidagi etnik jarayonlarning ba’zi omillari// O‘zbekiston tarixi. № 4–T.: – 2001.. –B. 28

Masalan, boy chorvadorlar xo‘jaligida ko‘proq qo‘y va otlar, ziroatkor aholida ko‘proq ish ho‘kizlari va sigirlar, kambag‘al xo‘jaliklarda esa ko‘proq echki boqilgan. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy va boshqa xo‘jaliklarda chorva mollari sonining ko‘p bo‘lishiga doimo quyidagi 3 ta omil to‘sqinlik qilgan: 1) yaylov (o‘tloq) maydonlarining tanqisligi, 2) ozuqaning yetishmasligi, 3) qo‘shimcha mablag‘ning yo‘qligi.

Voha chorvadorlari o‘zlari yashaydigan hududning tabiiy imkoniyatlariga mos chorva turlarini boqishga ixtisoslashgan bo‘lib, qo‘ng‘irotlar qo‘ychilik va tuyachilikka, qarluqlar, turklar, arablar, turkmanlar va qoraqalpoqlar qo‘ychilikka, laqaylar yilqichilik va qo‘ychilikka, do‘rmonlar qo‘ychilik va qoramolchilikka, qatag‘onlar, yuzlar yirik shoxli qoramolchilikka, tog‘li tojiklar esa echkichilikka, qolgan aholi guruhlari esa chorvani aralash holda saqlash va boqishga ixtisoslashgan edi⁹⁷. Vohaning shimoliy qismida yashovchi qo‘ng‘irotlar otarlarida hisori qo‘ylar, janubida yashovchilar otarlarida esa jaydari qo‘y zotlari yetakchi o‘rin tutgan. Vohada yashovchi chorvadorlardan tuyachilik bilan faqat qo‘ng‘irotlar shug‘ullanganlar⁹⁸. O‘zbekistonning boshqa hududlarida yashovchi qarluqlar asosan qorako‘l qo‘ylarini, voha qarluqlari esa hisori qo‘ylarni boqishgan⁹⁹. Ichki migratsiyalar tufayli chorvador aholining o‘troq aholi bilan aralash holda yashay boshlashi ular xo‘jaligidagi chorva tarkibi va turiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

XX asr birinchi yarmida vohadagi asosiy etnomadaniy jarayonlar – o‘zaro madaniy ta’sir, o‘troq va chorvador aholining yaqinlashuvi va qisman assimilyatsiyasi jarayoni kuchayib borgan. Vohadagi yarim o‘troq o‘zbeklar va turklar zich bo‘lib yashaydigan joylarda o‘troqlashuv va urug‘-qabilachilik an’analarning yo‘qolib borishi jarayoni asta-sekin davom etgan. Qo‘ng‘irot, qarluq, laqay va do‘rmon kabi o‘zbek qabilalarida ziroatchilik ham keng

⁹⁷ Кармышева В.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана // СЭ. – 1964. - № 6. –Т.:– С. 126.

⁹⁸ Кармышева В.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX - начало XX века) // Советская этнография. № 3. –Т.: 1969.– С. 48.

⁹⁹ Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. –Т.: – С. 68.

tarqalganligiga qaramay, o'tgan asrning 30-yillariga qadar yarim o'troq hayot tarzi va urug'-qabilachilik tizimi unsurlari saqlanib qolgan¹⁰⁰.

Shunday qilib, Surxon-Sherobod vohasida o'tgan asr davomida turli ijtimoiy-siyosiy omillar tufayli chorva mollarining asosiy tabiiy ozuqa zaxirasi hisoblangan yaylovlar maydoni qisqarib borgan va eng achinarlisi, yaroqsiz holatga kelib qolgan yaylovlar salmog'i ham oshib borgan. Etnohududiy joylashuv bo'yicha o'zlari yashaydigan hududning tabiiy imkoniyatlariga mos chorva turini boqishga ixtisoslashgan chorvador aholining keyinchalik yangi o'zlashtirilgan sug'oriladigan hududlarga ko'chirilishi hamda vohadagi boshqa etnik va etnografik guruhlar bilan aralash holda yashay boshlashi tufayli ularning xo'jaligida chorva turlarining ko'payishi hamda aralash xo'jalik yuritishga o'tilishini kuzatamiz. Shunga qaramay, ayrim etnik va etnografik guruh vakillari xo'jaligida chorbachilikning ustunligi va turmush tarzida chorvadorlar madaniyati unsurlarining saqlanib qolganini ko'ramiz.

XX asr boshlarida vohada chorbachilikning quyidagi tiplari mavjud bo'lgan va bugungi kunga qadar saqlanib qolgan : 1) yaylov; 2) haydov-yaylov; 3) qo'ra-haydov; 4) ko'chma¹⁰¹. O'troq aholida chorva boqishning qo'ra-yaylov va keyinchalik qo'ra (og'il) tizimi, yarim o'troq aholida haydov-yaylov va yaylov tizimi, ko'chmanchi aholida esa yaylov va ko'chma chorbachilik tizimi yetakchilik qilgan. Chorbachilikning ko'chma tipi vohada faqat yarim dasht hududlarida yashovchi (asosan Sheroboddaryoning o'rta oqimi havzasida) o'zbek qo'ng'irotlarida tarqalgan edi¹⁰². O'tgan asrning ikkinchi yarmida voha qishloqlaridagi shaxsiy xo'jaliklar uchun chorbachilikning qo'ra (og'il)-haydov va shahar, uning atroflarida esa qo'ra (og'il) tipi chorva mollarini boqishning keng tarqalgan shakli bo'lib qoladi.

Sovet davrigacha vohada chorva mollari faqat oziq-ovqat mahsulotlari uchun boqilmasdan, hududning ichki va tashqi savdosida ham muhim tovar

¹⁰⁰ Кармышева В.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана. –М.: 1976. – С. 100.

¹⁰¹ Кармышева В.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана. –М: 1976. - С. 45.

hisoblangan¹⁰³. Sovet davrida vohaning shimoliy tumanlarida ko‘proq sut va go‘sht, janubiy tumanlarda esa birinchi navbatda qorako‘l terisi, jun va teri tayyorlangan. Shuning uchun shimoliy tumanlarda qo‘ychilikdagi asosiy daromad qo‘y go‘shti va terisidan, janubiy tumanlarda esa qorako‘l terisi va charmdan olingan. Qoramolchilikdan asosiy daromad shimoliy tumanlarda go‘sht va teridan, janubiy tumanlarda esa birinchi navbatda sutdan, so‘ngra go‘sht va teridan olingan¹⁰⁴. Bu davrda xususiy mulkchilikning tugatilishi voha chorvachiligida qator salbiy oqibatlarga olib keldi. Xususiy mulkni jamoa mulkiga aylantirish asrlar davomida shakllangan an‘anaviy xo‘jalik tartib-qoidalari tizimini izdan chiqaradi.

Surxon-Sherobod vohasi tog‘ yaylovlarida qo‘ylarni boqish uchun o‘t-o‘lanlar va o‘simliklarning ko‘plab xillari mavjudki, ular vohada qo‘ychilikni rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Qolaversa, voha aholisining katta qismi, asosan, qo‘y go‘shtini iste‘mol qilishi¹⁰⁵, bundan tashqari aholida tirik qo‘yga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoj bo‘lganligi (qalin tarkibida, to‘yona sifatida va boshqa oilaviy tadbir hamda marosimlarda) qo‘ychilikning chorvachilik xo‘jaligida ustunligini ham ta‘minlagan. Agar voha qo‘ychiligida o‘tgan asrning 50-yillariga qadar otarning katta qismini go‘sht-yog‘i uchun boqilgan dumbali qo‘ylar tashkil etgan bo‘lsa, 60-yillardan boshlab qorako‘lchilik qo‘ychilikdagi yetakchi tarmoqqa aylandi. Qorako‘lchilik vohaning janubiy (Sherobod, Termiz, Angor, Jarqo‘rg‘on) tumanlarida rivojlangan bo‘lib, o‘tgan asr ikkinchi yarmidan boshlab qo‘ychilikning go‘sht-yog‘ va go‘sht-terichilik yo‘nalishining jami qo‘ychilikdagi hissasi kamayib borgan¹⁰⁶.

Voha shimolidagi tog‘oldi hududlarida (Bobotog‘ adirlari va Surxondaryo vodiylarining lalmi yerlarida – Denov va Boysun tumanlari), asosan, ko‘p yog‘ va go‘sht beradigan hitori qo‘ylari (hozirgacha voha aholisi hitori qo‘yni qoraqo‘y deb ataydi) boqilgan bo‘lsa, cho‘l zonalarida va janubiy hududlarda qo‘ylarning

¹⁰³ O‘zRMDA, IZ-fond, 1-ro‘yxat, 398-ish, 120-varaq.

¹⁰⁴ Ro‘ziyev A. Surxon-Sherobod qishloq xo‘jaligi. – T.: O‘zbekiston, 1967. – B. 52.

¹⁰⁵ Kexsa axborotchilarning aytishicha, Boysun tumanidagi Machay qishlog‘ida XX asr 60-yillarigacha qoramol go‘shti umuman iste‘mol qilinmagan. Dala yozuvlari. Boysun tumani Machay qishlog‘i. 2021 yil.

¹⁰⁶ Kichkilov X., Qobilov E. Surxon vohasi ko‘pchiligida ajdodlarimiz an‘anasi. –T.: – B. 41.

boshqa zotlari - qozoqi qoraqo'y (isliqi qo'y), g'aljaki (Afg'oniston hududidan o'tgan), arabi (chibalang, qorako'l), ko'rg'o'za (qozoqi va chibalangdan urchigan), sarjiparang (Sarjiboy tomonidan yaratilgan) va oqgardi kabi zotlari boqilgan¹⁰⁷. Mahalliy sharoitga yoki yaylovning tekislikda yoki adirdaligiga, ozuqa o'tlar, suv bilan ta'minlanganligiga qarab qo'ylarning soni har bir otarda (suruv) turlicha bo'lgan. Masalan, tog' yonbag'ri va tog'larda boqiladigan suruvda qo'ylar nisbatan kam (500-600 tagacha), cho'l yaylovlardagi suruvda esa qo'ylar soni ko'proq bo'lgan (600-1000 tagacha).

Qo'ychilikning rivojlanishi natijasida nafaqat chorvadorlar, balki qassoblar, dallollar ham yaxshi daromad olishadi. Vohada mavjud bo'lgan mintaqa sharoitiga mos bir necha qo'y zotlarini boqish tizimi lokal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, qo'ylarni cho'l-dasht hududlarida boqish nisbatan osonroq hisoblanadi. Bugungi kunda bo'rdoqi boqishga hamma oilalarning imkoniyati yetmaydi. Bunga bir qancha sabablar mavjud : boqish uchun zarur bo'lgan yem-hashakni o'zida yetishtirish imkoniyati bo'lmasa qimmat narxlarda uni sotib olishi , bo'rdoqi boqish uchun alohida oila a'zolaridan bir kishining jalb qilinishi kerakligi , bo'rdoqilar uchun maxsus alohida joyning kerakligi, turli kasalliklarga qarshi doimiy emlash tadbirlarning olib borilishi , bo'rdoqi uchun turli vitamin va o'zgarishi, go'sht qilishi uchun zarur ukollarining qilib borilishi va h.k ¹⁰⁸.

Yaylov tanlash, qo'ylarni tunlari boqish, suvga, tuzga zoriqtirmaslik, vaqtida dam berish, qari qo'ylar sonini kamaytirish, bir yoshgacha bo'lgan qo'ylarni yaylovga haydamaslik, nasldor qo'chqorlar va ayrim qo'ylarni alohida boqish cho'ponning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi¹⁰⁹. Cho'ponlar yaylovda qo'y boqishning avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan tajriba va an'analariga rioya qilib, qo'ylarni me'yorida oziqlantirishgan. Otar dastlab bir tomondan haydalib, keyin ikkinchi tomondan qaytarib kelingan. Har bir suruv uchun maxsus belgilangan joy bo'lgani uchun yaylovning har bir qarich yeri cho'pon nazoratida bo'lib, otar bir joyda tinimsiz boqilmagan. Qo'ylarni haydash, boqish va

¹⁰⁷ Kichkilov X., Qobilov E. Surxon vohasi ko'pchiligida ajdodlarimiz an'anasi. – B. 42.

¹⁰⁸ Dala yozuvlari. Boysun tumani Chilonzor mahallasi. 2022 yil.

¹⁰⁹ Dala yozuvlari. Denov tumani Jar tepa mahallasi. 2021 yil.

qo‘riqlashda itlar va sarka yordamidan foydalanishgan. Qorako‘lchilikda sovliqlar qo‘zilay boshlashi bilanoq tug‘magan qo‘ylar ajratib olinib alohida boqilgan. Havoning tez-tez o‘zgarib turishi sovuq bilan issiq, qor bilan yomg‘ir almashib turganda qo‘ylarni boqish tartibini sharoitga moslab o‘zgartirib turishga to‘g‘ri keladi¹¹⁰.

Cho‘ponlar qo‘chqor tanlashga katta ahamiyat berishadi: har 2 yilda qo‘chqorlar almashtirib turiladi. To‘l olish tabiiy qulay joylarda – qirning panasida, tog‘ daralari va yonbag‘irlarida, qirlarga yaqin kamarlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, tekislikda esa cho‘ponlar to‘l olish paytida qo‘ylarni qishloq yaqiniga haydab kelib, vaqtinchalik qo‘tonda (to‘l qo‘ton) saqlashadi¹¹¹.

Voha chorvadorlari, xususan, cho‘ponlar tomonidan qo‘ychilik sohasini rivojlantirishdagi ko‘p asrlik xalq an‘anaviy tajribasiga tayangan holda hududda boqilgan qo‘ylarning naslini va mahsuldorligini oshirish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan. Bu borada vohada boqilgan bir qator qo‘ylar naslining aynan shu hudud bilan bog‘liqligi, ayniqsa, muhimdir. Asrlar davomida qo‘ychilikni yuritish borasidagi an‘analar to‘planib, o‘ziga xos qoidalar shakllangan va cho‘ponlar ularga qat‘iy rioya qilib kelishgan. Cho‘ponlik o‘ta mashaqqatli kasb hisoblangan va kishidan ushbu sohada yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lish, qo‘ylarni yaylovlarda boqish, nasl olish, ko‘paytirish borasidagi an‘analarni bilish va ularga rioya qilishi talab etilgan.

Voha chorvachilik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlab o‘troq aholi xo‘jaligida yirik shoxli qoramol boqilgan. Voha ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvadorlari to‘liq o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaganlaridan so‘nggina (o‘tgan asr 30-40 yillari) ular tomonidan qoramolchilikka ham e‘tibor kuchaya boshlaydi. Qoramol, eng avvalo, turmush ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan suti uchun boqilib, undan yog‘ va qatiq olingan. Ilgari vohadagi ko‘pchilik xo‘jaliklarda qoramol go‘sht uchun boqilmagan. XX asr birinchi yarmida vohada boqilgan sigir va ho‘kizlarning aksariyati jaydari zotli (kammahsulli va jussasi kichik) bo‘lib, keyinchalik zotdor qoramollar boqa

¹¹⁰ Dala yozuvlari. Jaarqo‘rg‘on tumani Ismoiltepa qishlog‘i. 2022 yil.

¹¹¹ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xo‘jaulkan qishlog‘i. 2022 yil.

boshlashgan. Vohada qoramol o'rnini to'ldirishning o'ziga xos yo'nalishi ikki mavsumga bo'lingan: bahorda sotib olingan qoramolni kuzda sotishgan va o'rniga ozg'in, arzon qoramol sotib olingan. Bu mol bahorgacha boqilib, keyin bozorga chiqarib sotilgan¹¹². Shaxsiy xo'jaliklarda molxonalar qurishda asosan loy, bo'yra, qamish va yog'ochdan, keyinchalik esa xom g'isht, yog'och, shiferdan foydalanilgan. Vohadagi dehqonlarning shaxsiy xo'jaliklarida o'tgan asrning 30-yillariga qadar ho'kizdan omochga, aravaga qo'shish uchun foydalanilgan. Xo'jaliklarda ho'kizlarni boqish qo'ychilik singari tovar xususiyatiga ega bo'lgan. Adabiyotlarda qayd etilishicha, ho'kizlar 15-16 yilgacha ish bergan¹¹³. Ayrim xo'jaliklarda nasl olish uchun buqalar ham boqilgan. Vohadagi qishloq aholisi o'z qoramollarini maxsus podabon yollagan holda to yerda o't-o'lan qolmaguncha qishloqqa yaqin o'tloqlarda, ariq yoqalarida, to'qaylarda, zovur bo'ylarida boqishgan. Respublikada 1970 yillardan boshlab paxta yakkahokimligining tobora kuchayib borishi tufayli shaxsiy xo'jaliklarda davlat va jamoa xo'jaliklariga nisbatan qoramollar soni ko'proq bo'lishiga olib keladi. Sababi davlat va jamoa xo'jaliklari shaxsiy xo'jaliklarni zotli chorva mollari va ozuqa bilan ta'minlagan, shuningdek, o'zlariga tegishli yaylovlardan foydalanish imkonini bergan. Shaxsiy xo'jaliklar esa buning evaziga kolxoz va sovxozlarga davlatga reja majburiyatlari hisobidan topshirishi kerak bo'lgan chorvachilik mahsulotlarini yetkazib berishgan¹¹⁴. Shu tariqa voha xo'jaliklarida chorvaning yuqori mahsuldorligiga, asosan, shaxsiy xo'jaliklar yordamida erishilgan.

Mustaqillik yillarida shaxsiy xo'jaliklarda qoramollarning nafaqat soniga, balki nasliga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Sababi qishloqlarda yashovchi ko'pchilik aholi uchun chorvachilikning ushbu tarmog'i faqat oziq-ovqat emas, balki asosiy daromad manbaiga ham aylandi. Xo'jaliklarda bo'rdoqiga buqa boqish va sog'in sigirlar sonini ko'paytirish aholiga yildan-yilga ko'p daromad keltira boshladi.

¹¹² Современный кishлак Средней Азии (социально-экономический очерк). Вып. 3. – Т., 1926. – С. 54.

¹¹³ Современный кishлак Средней Азии. – С. 55.

¹¹⁴ O'zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. T., Fan. 2014. – B. 29-30.

Mustaqillik yillarida xususiy mulkchilik daxlsizligi, bozor iqtisodiyotining joriy etilishi natijasida qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, xo‘jalik-madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikadagi jami qoramolning 70 foizi, qo‘y va echkilarning yarmi shaxsiy xo‘jaliklarda boqilgan¹¹⁵. Chorvachilikning asosiy mahsuloti – sut va go‘sht tayyorlashning o‘sishi jamiyatni yuksaltirish uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Negaki, bu mahsulotlar asosiy oziq-ovqatlar guruhiga kiradi va qishloq aholisi daromadining muhim manbai hisoblanadi. So‘nggi yillarda chorva mollarini boqish va chorva mahsulotlarini tayyorlash voha qishloqlarida yashovchi aholi uchun muhim daromad manbaiga aylandi. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududining turli tabiiy-geografik mintaqalarida asrlar davomida chorvachilik xo‘jaligining o‘ziga xos etnolokal tiplari shakllangan va an’anaviy chorvachilik xo‘jaligi xususiyatlari mana shu lokal tiplar asosida paydo bo‘lgan. Surxon-Sherobod vohasida tabiiy-geografik muhitga qarab o‘troq va yarim o‘troq aholida chorvachilik xo‘jaligini yuritish shakli turlicha bo‘lganligi kuzatilib, uning voha etnoiqtisodiy tizimidagi, xususan, oila iqtisodidagi o‘rni juda muhim bo‘lganligi aniqlandi.

Yilqichilik Surxon-Sherobod vohasida sovet tuzumiga qadar chorvachilikda qo‘ychilikdan keyingi o‘rinda turuvchi muhim tarmoq hisoblangan. Sababi, otlar faqat harbiy qo‘shin uchun emas, asosiy transport vositasi sifatida ham zarur bo‘lgan. Shu sababdan o‘tgan asrning birinchi yarmida voha aholisi, xususan yarim o‘troq aholi xo‘jaligida yilqichilik muhim o‘rin egallagan bo‘lib, undan asosan transport vositasi sifatida va dehqonchilik ishlarida foydalanishda davom etishgan¹¹⁶. Respublika qishloq xo‘jaligida, xususan, chorvachilikda o‘tgan asrning 80-yillaridan tanazzul jarayonlari chuqurlashib borishi tufayli vohada ham otlar soni keskin kamayib ketgan. Mustaqillik yillarida yilqichilikda ham ijobiy o‘zgarishlar bo‘lib, ularning soni muttasil oshib borgan. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda vohada shaxsiy xo‘jaliklarda otlar, asosan uch

¹¹⁵ Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to‘g‘risida // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – B. 220.

¹¹⁶ Surxondaryo viloyat Davlat arxivi. 521-fond, 1-ro‘yxat, 40-ish, 198-varaq.

maqsadda - transport, ya'ni minish uchun, uloq (ko'pkari) chopish uchun va go'shti uchun boqilgan. Vohada, asosan, qorabayir, qisman laqayi va turkman zotli otlar boqiladi. Hozirgi kunda tog' hamda tog'oldi qishloq va mahallalarida ot boqish darajasi keskin kamaygan. Bunga asosiy sabablar sifatida otboqardan bu jarayon ancha vaqt va sabr talab qilishi, boqish uchun olinadigan otning o'zi mahalliy bozorlarda qimmatligi, yem (arpa) va hashak (somon va beda) ham ko'p miqdorda kerakligi va bu ham bevosita mablag'ga borib taqalishi (bitta ot bir yilda o'rtacha 500 kg dan 1,5- 3 tonnagacha arpa yeydi, somon esa o'rtacha 400-500 zambil, 1000 bog'dan 3000 bog'gacha beda iste'mol qiladi. Bugungi kunda 1kg arpaning narxi 4-5 ming so'm atrofida, 1 bog' beda 25-30 ming so'm) hamda ketgan vaqt va harajatlarni qoplatish masalasi mavhumligi (chunki bu hududda otlar asosan ko'pkari uchun boqiladi va faqatgina nasldor va sog'lom otlargina xaridorgir bo'ladi hamda ko'pkarilarda yirik zotlarni ayirish orqali egasiga foyda keltirishi mumkin, kamdan-kam holatlarda go'sht uchun boqilmasa, deyarli ot so'yish holati kuzatilmaydi) kabi jihatlarini aytib o'tishimiz mumkin. Misol sifatida raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Boysun tumani Chilonzor mahallasida umumiy 554 ta xonadon mavjud bo'lib, shundan 40 tasida ot boqiladi, Sherobod tumani Laylagon qishlog'ida esa 200 dan oshiq xonadon bo'lib, shundan 21 tasida ot boqiladi. Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ot boqish qishloqning o'ziga to'q, boy qatlami tomonidan amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda o'sha aholi vakillari otlarini ma'lum mablag' evaziga ot boqish tajribasiga ega kishilarga topshirishgan, yem va hashagini vaqtida olib berib turgan. Vohada qoramolchilikni rivojlantirishda o'tgan asrning 50-60 yillarida ma'lum muammolar boshlanib, 80-yillarda shaxsiy xo'jaliklarda soha birmuncha rivojlangan. Vohada yilqichilik va tuyachilik tarmoqlari ham aholi xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'lgan.

To'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, chorvachilik bilan bog'liq urf-odat va marosimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin: 1) chorva turlarining kelib chiqishiga oid qarashlar; 2) chorvaning o'zi yoki uning ayrim tana a'zolari (shoxlar, kalla suyagi) va anjomlari (egar-jabduq,

bo'yinturuq, arqon va h.k.) bilan bog'liq; 3) har bir chorvachilik tarmoqlaridagi "pir-homiylar"ga bag'ishlangan; 4) "chorva hisobi" taqvimiga oid; 5) chorvachilik mehnat qurollari (cho'pon tayog, qamchi) asosidagi; 6) chorvachilik mahsulotlariga (sut, go'sht) oid; 7) nasl olish bilan bog'liq; 8) chorvani davolashga oid.

Qadimdan turkiy xalqlar qatorida o'zbeklarda ham qo'y eng muqaddas jonivor sifatida qadrlangan va uzoq o'tmishda unga totem sifatida e'tiqod qilingan. Chorvachilik xo'jaligidagi ayrim anjomlarga (cho'pon tayog'i, no'xta, tizgin, yugan (jugan), qo'riq (otlarni ilintiruvchi vosita) va boshqalarga muqaddas buyumlar sifatida qaralgan. Cho'ponlarning asosiy ish quroli bo'lgan tayog'i ham o'ziga xos magik (afsungarlik) xususiyatiga ega deb hisoblangan. Qadimda fenologik bilimlar dehqonlar kabi chorvadorlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. "Chorva hisobi" o'zbek xalq taqvimining qadimiy turlaridan biri hisoblanib, u cho'ponlar orasida keng qo'llanilgan¹¹⁷. "Chorva hisobi"ni bilish cho'ponlar uchun juda katta amaliy ahamiyat kasb etgan. Chunki "chorva hisobi"ni (qo'ton buzish, qo'chqor qo'shish, to'l olish, qirqim, yaylov almashtirish, qish qo'ton) yaxshi bilgan va unga to'la rioya qilgan cho'pon otarni xavf-xatardan to'la saqlay olgan¹¹⁸. Har yili voha chorvadorlari yaylovga chiqish va yaylovdan qaytishdan oldin chorva homiylari – Cho'pon ota (qo'ychilik homiysi), Chechan ota (echkichilik homiysi) va Zangi ota (qoramolchilik homiysi)ga bag'ishlab qurbonlik qilishgan"¹¹⁹.

Chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan yarim o'troq o'zbeklarda cho'ponlarga bag'ishlangan to'y marosimlari o'tkazilgan¹²⁰. Bu marosim ikki-uch yil davomida tajribali cho'ponga shogird tushib ko'ychivonlik qilgan yosh cho'pon- cho'liqlarga cho'pon tayog'ini topshirishga bag'ishlangan. Ular cho'ponlikka o'tish oldidan cho'pon tayog'ini olib qasamyod qilishgan.

¹¹⁷ Folklorshunos olim V. Sarimsoqovning yozishicha, cho'pon yili 16-martdan boshlangan. Bu yerga amal kirishi va o't-o'lanlarning o'sib chiqish boshlashi bilan bog'liq. Na shu kundan boshlab chorvadorlar yozgi yaylovga ko'chish tabirini boshlab yuborganlar. Qarang: Sarimsoqov V. O'zbek marosim folklori. – T.: Fan, 1986. – B. 40-41.

¹¹⁸ Jo'rayev M., Pirmatova S. O'zbeklarning chorvachilik bilan bog'liq marosimlari. – B. 60-61.

¹¹⁹ Sarimsoqov A.A. Shimoliy Farg'ona qipchoqlarining chorvachilik bilan bog'liq marosimlari. – B. 138.

¹²⁰ Dala yozuvlari. Boysun tumani, Padang qishlog'i. 2022 yil.

Chorvadorlardagi yana ko‘plab urf-odat va marosimlar uy hayvonlarini turli yuqumli kasalliklardan davolash bilan bog‘liq bo‘lgan. Chorvachilikka oid to‘plangan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘tmishda chorva mollarini davolashning, asosan, ikki usulidan foydalanilgan, ya’ni yuqumli kasalliklarni “magik” davolash (kasalga qarshi qaytariq qilish, duo o‘qish, tumorlar va h.k.) va hayotiy tajribaga asoslangan xalq veterinariyasi (dori malham qo‘yish, qon olish, isiriq tutatish va h.k.). Chorva mollari yoppasiga kasallanganda, ko‘pincha davolashning “magik” usuli qo‘llanilgan.

Ilgari chorvadorlardan nafaqat chorva mollarini boqish usullarini bilishni, balki fenologik bilimlarga ega bo‘lishni, kasal mollarga veterinariya yordamini ko‘rsatishni bilishi ham talab etilgan. Sababi, zootexnika va veterinariya xizmati bo‘lmaganligi tufayli, chorvadorlar tomonidan uzoq yillik tajribaga asoslangan chorvani davolashning turli usullari ishlab chiqilgan xalq veterinariyasiga tayanilgan.

Mustaqillik davrida chorvachilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotining taxminan 45 foizi uning ulushiga to‘g‘ri keladi. Tarmoqning asosiy xususiyati shundaki, chorva mahsulotlarining katta qismi shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqariladi. Ularga tegishli yer uchastkalarining o‘rtacha hajmi 0,15 gektarni tashkil qiladi. Qoramollarning 93 foizi dehqon xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri keladi. 2007 yilning sentabrida dehqon va fermer xo‘jaliklari vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov qoramol boqayotgan o‘rtacha dehqon xo‘jaligi 2,8 bosh qoramolga, jumladan, 1,1 bosh sigirga (fermerlar uy xo‘jaliklarida ushbu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 4,4 va 1,8 bosh) ega ekanini ko‘rsatdi. Bunda qoramol parvarish qilish bilan shug‘ullanayotgan o‘rtacha fermer xo‘jaliklarida taxminan 55 bosh qoramol, jumladan, 21 bosh sigir bor.

1991 yildan boshlab mamlakatda qoramol soni qariyb 1,5 baravar ko‘paydi va bu O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmida chorva mahsulotlari ulushining oshishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkich 80 yillardagi 30-35 foizdan 1997 yildan keyin 45-50 foizga o‘sdi (Ilovaning 1-jadvali). Bu yuksalish MDHda

asosiy chorva mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar sanalgan Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog‘iston va Qirg‘iziston kabi mamlakatlar bo‘yicha shunday ma’lumotlar bilan taqqoslanganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. 1990-2006 yillarda ushbu mamlakatlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarida chorvalikning ulushi 55-60 foizdan 45 foizga kamaygan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4576 qarori yuzasidan ushbu soha tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash hamda naslchilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

O‘rganilayotgan davrda chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lgan qoramolchilikda O‘zbekistonda sut yo‘nalishidagi qora – ola, qizil cho‘l, beshuev; sut-go‘sht yo‘nalishidagi qozoqi oqbosh, santa gertruda, va aberdin qoramol zotlari parvarishlanadi.

Shunday qilib, xo‘jalik yuritish – bu albatta, murakkab kechadigan jarayon hisoblanib, u chorvadorlardan katta hayotiy tajriba, sabr-toqat, o‘ziga xos bilim talab qiladi. Har bir etnosning, har bir soha egalarining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq o‘ziga xos urf-odat va marosimlari shakllanib, ular juda qadim davrlardan beri o‘tkazib kelinadi. Surxon-Sherobod vohasida an‘anaviy chorvachilik tarmoqlarining bir-biridan farqlanuvchi salmog‘i, aholining chorva turlariga bo‘lgan munosabati xo‘jalikning ushbu turi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarda ham o‘z aksini topgan. Voha aholisi, xususan, ziroatkor aholi turmushida qoramol, ayniqsa, sog‘in sigirlarning o‘rni katta bo‘lganligi bois, u bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar mavjud bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Tog‘li hududlarda yashovchi aholining sigirga bo‘lgan munosabatlarida qadimiy qarashlar diniy unsurlari saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Masalan, sigir o‘lsa, o‘sha xonadon ayollari uni yaqin qarindosh sifatida ko‘rib, aza tutish odati ham bo‘lgan¹²¹. Chorvadorlar sigirlarni yomon ko‘zlardan asrash maqsadida uning shoxlariga

¹²¹ Dala yozuvlari. Boysun tumani Kofrun qishlog‘i. 2020 yil.

maxsus duolar yozilgan tumorlar, ko'zmunchoq yoki do'lana shoxidan tayyorlangan tumor taqib qo'yganlar. Sigir tuqqanidan so'ng yelinidan sut chiqmasa, isiriq tutatish keng qo'llanilgan. Vohada sigir sutini oshirishga bag'ishlangan bir qancha urf-odatlar mavjud bo'lgan¹²².

Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasi aholisi an'anaviy chorvachiligi va u bilan bog'liq an'ana va marosimlar, sohaga oid qadiyatlarni tarixiy-etnologik nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Chorvadorlarda shakllangan an'anaviy xo'jalikka oid urf-odat va marosimlar, xalq bilimlari meros tariqasida avloddan-avlodga o'tib kelgan, lekin hozirgi kunda ko'pchiligi unutilgan. Shunga ko'ra, xalq bilimlari va an'analarini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish fandagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xullas, voha aholisi qadimiy tarixiy tajribalarga ega bo'lib, o'tmish avlodlardan qolgan an'analar asosida o'ziga xos jihatda ziroatchilik sohasida qishloq xo'jalik texnikasi ish qurollarining oddiyligiga qaramasdan yuqori hosildorlik olishga erishib kelganlar. Qolaversa, ming yilliklar davomida avlod-ajdodlardan qolgan an'analarni saqlab, takomillashtirib, avloddan-avlodga yetkazib kelgan qadimiy o'troq madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri sanaladi.

¹²² Dala yozuvlari. Sariosiyo tumani Telpakchinor qishlog'i. 2021 yil.

III BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA TOG‘OLDI AHOLISINING IQTISODIY HAYOTIDA HUNARMANDCHILIKNING O‘RNI

3.1. Tog‘oldi hududlarida uy hunarmandchiligining etnografik xususiyatlari

O‘ziga xos etnografik mintaqalardan hisoblangan Surxondaryo vohasi an’anaviy hunarmandchiligi hudud iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Hududlarda hunarmandchilikning to‘qimachilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik va ko‘nchilik kabi turlari mavjud bo‘lib¹²³, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar xarakterida bo‘lgan. Tovlar ishlab chiqarishning ushbu usuli ko‘proq yarim natural shaklda bo‘lib, o‘z ehtiyojlarini qondirish, muayyan qismi esa ayirboshlash maqsadi uchun xizmat qilgan. Xususan, Janubiy O‘zbekistonning Boysun, Denov, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlarida hunarmandlar o‘z mahsulotini bozor uchun ishlab chiqargan. Chunki bu vohalarda qadimdan bir qancha xo‘jalik turlari, masalan, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi uchun qulay tabiiy sharoitlar mavjud bo‘lgan. Asosiy xo‘jalik mashg‘uloti chorvachilikka asoslangan aholi orasida gilam, sholcha, mato to‘qish, kigiz bosish va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlash kabi xonaki hunarmandchilik sohalari rivojlangan. Qolaversa, ular qo‘y, echki junidan chakmon, po‘stin, cholvor kabi kiyim-kechaklar, xalta, xurjun, uy-ro‘zg‘or buyumlari hamda o‘tovlar va chorva mollari uchun arqon, bog‘ichlar tayyorlashgan.

Hunarmandchilik rivoji uchun zarur bo‘lgan xom ashyo dehqonchilik, chorvachilik va qazilma boyliklar hisobidan qondirilgan bo‘lib, to‘qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, kandakorlik, zargarlik, gilamdo‘zlik va boshqalar rivoj topgan edi. To‘quvchilik hududlarda qadimdan rivojlanib kelgan yetakchi hunar turlaridan bo‘lib, mato to‘qish, tikuvchilik (kiyim-bosh tayyorlash), kashtachilik, bo‘yra to‘qish va gilamdo‘zlik turlari rivojlangan. . Bu sohaning

¹²³ Xoliqulov A. Hunarmandchilik va savdo markazlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2003. – № 1. – B. 54.

asosiy manbai dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta, ipak, kanop, jun va teri mato tayyorlashdagi xom ashyo hisoblangan¹²⁴. Matolar to‘qish uchun ishlatiladigan dastgoh – do‘kon¹²⁵ deb atalib, Surxondaryo vohasida qadimdan uy sharoitida mato to‘qish va teridan kiyimlar tayyorlash aholining asosiy mashg‘ulotlaridan hisoblangan¹²⁶.

Ta’kidlashi kerakki, O‘rta Osiyoning barcha yarim ko‘chmanchi aholisi mato to‘qishda jun tayyorlash va uni ip shakliga keltirishda deyarli bir xil usulni qo‘llashgan. Dastlab saralab olingan jun oldin yuvilgan, titilgan va so‘ng bo‘yalgan. Jundan ip qilishda maxsus urchuqdan¹²⁷, uni titish va savashda savacho‘plardan foydalanilgan¹²⁸. To‘qimachilik tarkibida ip yigirish, mato to‘qish, bo‘yash va gul bosish kabi bir necha tarmoqlar bo‘lgan. Surxondaryoda ip yigiruvchilarning asosiy xomashyosi paxta, jun va ipak bo‘lib, ayniqsa, jun iplarning ohorini olish uchun bug‘doy uni solingan suvda qaynatib olingan¹²⁹. Surxon vohasida to‘qimachilik hunari o‘ziga xos bo‘lib, ayniqsa, Boysun va Denov tumanlarida juda yaxshi taraqqiy etgan edi. Uy sharoitida sidirg‘a va guldor ip, ipak va yarim ipak matolar to‘qilgan. Jundan shol, bosma, qoqma kabi qimmatbaho matolar to‘qilib, ustki kiyimlar tayyorlangan¹³⁰.

Janubiy hududlarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida to‘qimachilikning kashtachilik turi o‘ziga xos rivojlangan. Kashtachilik buyumlari aksariyat hollarda bozorga mo‘ljallanmagan bo‘lib, asosan xonadon ehtiyojini qondirish, urf-odatlarini davom ettirish uchun tikilgan. Kashtado‘zlik, ya’ni matoga kashta (bezak) tikish O‘rta Osiyo xalqlarida

¹²⁴ Кармышева В.Х. Ткачество и прядение у народов южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX - начало XX в.) // Проблемы типологии и этнологии. – М., 1979. – С. 258; Shahrisabz ming yillar merosi. – Toshkent, 2002. – B. 56.

¹²⁵ Do‘kon va uning ishlab chiqarish xususiyatlari to‘g‘risida qarang: Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX в. Ремесленная промышленность. ... – С. 56-82.

¹²⁶ O‘zR MDA, 2231-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 49-yig‘ma jild, 4-5-varaqlar.

¹²⁷ Qo‘l urchuqlari: qoraqalpohlarda – уршык, turkmanlarda – ик, qirg‘izlarda – ийк deb atalgan. Qarang: Tomina T. N. Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии ... – С. 231.

¹²⁸ Abdullayev U. S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 112.

¹²⁹ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, Xomkon qishlog‘i. 2022 yil.

¹³⁰ Sodiqova N., g‘aybullayeva Y. O‘zbek milliy bosh kiyimlari. – B. 26.

tarixning qadimgi davrlaridayoq shakllana boshlagan bo‘lib¹³¹, kashtalarga turli xil o‘simlik, gullar, hayvonlar tasviri aks ettirilgan.

Surxon vohasi kashtachiligi o‘ziga xos bo‘lib, tuzilishi va nomlanishiga ko‘ra boshqa hududlardan farq qiladi. Kashtachilik mahsulotlari turlariga qarab ikki qismga: uyni bezatish uchun foydalaniladigan, ya’ni estetik vazifani bajaruvchi yirik gulli so‘zana, nimso‘zana, zardevor va kishilar kiyim- kechagining ayrim qismlarini bezovchi mayda gulli kashtalarga bo‘linadi. Bunday buyumlarni peshkurta¹³², yelkaga tashlab qo‘yiladigan ro‘mol, yoqa, yeng, qo‘lro‘molcha, do‘ppi, kultapo‘shak, etik va belbog‘lar, shuningdek, ro‘zg‘or uchun oyna xalta, choyxalta, dastro‘mol, bolish, sarpokkun¹³³, qoshiqlov va boshqalar tashkil etadi¹³⁴. Jumladan, Boysunning qo‘ng‘irotlari ko‘ylaklarining yoqalariga kashta solingan bo‘lsa, chig‘atoy, o‘zbek, tojik chig‘atoy ayollari esa ko‘proq ko‘ylak oldi va yenglariga kashta tikishgan¹³⁵. Voha kashtachiligining o‘ziga xos lokal xususiyatlariga sabab, uning aholisi murakkab etnik guruhlar madaniyatlarining qorishuvidan tashkil topgan. Chunonchi, Sho‘rchi, Denov va Sherobod kashtachiligi tog‘li tuman Boysun kashtachiligidan ancha farq qiladi. Boysun kashtachiligida mavjud bo‘lgan boy o‘simliksimon naqshlari bilan Tojikistonning tog‘li tumanlari kashtachiligi an‘analari umumiy lashib ketgan¹³⁶.

Surxon vohasi kashtachiligining Buxoro, Samarqand va Shahrisabz kashtachilik markazlaridan farqlanuvchi tomonlari uning ranglarini berilishi bo‘lsa, bundan tashqari oq matoga yirik gullar bilan kashta tikishdir. Bu davrda sanoat yuksalib, kashta tikish mashinalari qo‘l mehnatini siqib chiqargan bo‘lishiga qaramay, badiiy did va nafosatni o‘zida mujassamlashtirgan jo‘rma, ilma va bosma kashtalar ayollar qo‘l mehnatining yuksak namunasi sifatida e’tirof etilgan.

¹³¹ Морозова А. Декоративная машинная вышивка. – Ташкент, 1960. – С. 9.

¹³² Surxondaryo vohasi kelinlari yopinadigan to‘y yoping‘ichi.

¹³³ Sarp o‘solishga mo‘ljallangan mato; matodan tayyorlangan buyum.

¹³⁴ Абдуллаева Ш. Ручная вышивка Сурхандарьи 2-й половины XX века // Boysun bahori. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Boysun, 2002. – С. 81.

¹³⁵ Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. ... – В. 243.

¹³⁶ Абдуллаева Ш. Ручная вышивка Сурхандарьи 2-половины XX века. ... – С. 81

O'zbekistonning janubiy hududlarining dasht, tog'li va tog'oldi mintaqalarida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qo'ng'irotlar orasida jundan chakmon, po'stin va boshqa kiyimlar, turli xildagi gilamlar, xalta, xurjunlar tayyorlash rasm bo'lganligi bois, jundan ip yigirish va kigiz tayyorlash keng rivojlangan¹³⁷.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan hududlar gilamdo'zligida bo'yoqlar hali ham tabiiy usulda bo'yalishi gilamlarda o'ziga xos lokal xususiyatlarni aks ettiradi. Chunonchi, Boysun tumani Gumatak qishlog'ida qora bo'yoqni tatum degan daraxt mevasidan, sariq bo'yoqni yong'oq daraxtida o'suvchi zamburug'dan, qizil bo'yoqni esa yovvoyi ro'yandan oladilar. Bo'yoq sifatida yana jiyda, o'rik, qizil va jigarrang bo'yoq olishda juda qulay terak ildizlaridan ham foydalanadilar. Biroq, bu bo'yoqlarda bo'yalgan junlarning rangi tiniq chiqmaydi¹³⁸. Surxon vohasi ayollari jundan naqshli namatlar (kigiz) tayyorlashgan va o'tov uchun tukli mahsulotlar ham to'qishgan. Shuningdek, Surxondaryoning g'ajari va terma gilamlari o'zining murakkab to'qilish uslubi bilan ajralib turadi.

XX asr boshlarida vohada terilarning asosiy qismi chorva mollari terisidan olingan¹³⁹. Ko'nychilar muayyan bir yo'nalish bo'yicha ixtisoslashgan bo'lib, charm (tagcharm) ishlab chiqaruvchilar charmgar, rax tayyorlovchilar raxgar, mesh oshlovchilar meshgar, qayish ishlab chiqaruvchilar qayishpaz yoki saxtiyongar, kemuxt oshlovchilar kemuxtgar deb yuritilgan. Qashqadaryo vohasi qishloqlarida faoliyat olib borgan barcha toifadagi ko'nychilar charmgarlar va Surxon vohasidagilar charmsozlar¹⁴⁰ deb atalgan.

Surxondaryoning Termiz, Sherobod va Denov kulolchilik markazlari tor doirada bo'lsa-da, mavqeini saqlab qolgan¹⁴¹. Boysun kulollarining asosiy asbobi charx hisoblanib, ular qurilish materiallari, piyola, kosa,

¹³⁷ Davlatova S. O'zbekistonning janubiy hududlari an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) // Dissertatsiya. - Toshkent, 2019. - B. 87

¹³⁸ Gyul E. Qo'ng'irotlar gilamlari // Moziydan sado. – 2004. – № 1. – B. 8

¹³⁹ Развадовский В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае // Туркестанское сельское хозяйство. – 1916. - № 5. – С. 446.

¹⁴⁰ Tursunov S., Pardayev T. R. va B. Surxon vohasida moddiy madaniyat tarixi. – T., 2013. – B. 206.

¹⁴¹ Холиков З. Термез и Чаганиян в позднем средневековье: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 2001. – С. 11.

tovoq, lagan, ko‘za, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir va boshqa idishlar tayyorlaganlar¹⁴².

Surxondaryoning tog‘ va tog‘oldi hududlarida yog‘ochga ishlov berish keng tarqalgan qadimiy kasblardan hisoblanib, duradgor ustalar aholi ehtiyoji, buyurtma va bozor uchun eshik, eshik kesaklari, darvozalar, yog‘och sandiqjavonlar, xontaxta, beshik, kosa, qoshiq, arava va boshqa narsalar yasaganlar. Ayniqsa, o‘ymakorlik duradgorligi alohida ahamiyat kasb etib, eshik va darvozalar, ustun va shiftlar hozirgacha amaliy bezak san‘at buyumi sifatida bugungi kungacha shuhrat qozonib kelmoqda¹⁴³. Vohalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar mahalliy aholi ehtiyojini qondirishi bilan birga, mahsulotlarning bir qismi chetga ham chiqarilgan.

Surxon vohasida uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasashda duradgorlik (yo‘niqchilik) hunari muhim hisoblanib, bevosita qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan. Mahalliy ustalar yog‘ochdan ishlab chiqarish qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, transport vositalari (arava, kema) va boshqa buyumlar yasashgan. Duradgorlarning ish qurollari bir necha xil arra, bolta va teshalar, qachov va randa (o‘roq, randa, mujranda, taxtaranda), bolg‘a va iskanalardan iborat bo‘lgan¹⁴⁴. Uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasaydigan harratlar beshik, har xil charx, o‘qlov, juvoz, duk, urchuq, chilim, o‘g‘ir kabi buyumlarni yasashgan. Vohalarda bu hunar turini rivojlanishiga sabab aholi xo‘jaligi uchun zarur uy-ro‘zg‘or buyumlarini doimiy ravishda ishlab chiqarish bilan bog‘liqdir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda hunarmandchilik an‘analarini saqlab qolish, tiklash, rivojlantirish va ularni kelajak avlodga yetkazish maqsadida keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Hunarmand ustalarning ijtimoiy mavqei sezilarli darajada yuksaldi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini asrash, an‘anaviy hunarmandchilikning unutilayotgan sohalarini tiklash va targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy hunarmandchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida urg‘u berildi. Shu bois, Surxondaryoda

¹⁴² Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. ... – B. 217

¹⁴³ Tolipova N. Yog‘och o‘ymakorligi san‘ati // Moziydan sado. – 2008. – № 4. – B. 20.

¹⁴⁴ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Boysun tumani. 2020 yil.

hunarmandchilikning bir qator turlari jumladan, kulolchilik, to‘quvchilik, tikuvchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, yog‘ochga ishlov berish, mato to‘qish, metallga ishlov berish, zardo‘zlik va boshqalar qayta tiklanib, rivojlantirilmoqda. O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri hisoblangan Surxondaryo vohasi hunarmandchiligi o‘ziga xos lokal an‘analarga ega bo‘lib, shahar va qishloqlarda asosan uy sanoati ko‘rinishida rivojlanib kelgan. Surxondaryo viloyati qadimiy tarixga ega bo‘lib, undan topilgan sun‘iy sug‘orish dehqonchiligining dastlabki manbalari, hunarmandchilik manzilgohlari, ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi, to‘qimachilik dastgohlari, kulolchilik ustaxonalari buning yorqin isbotidir¹⁴⁵.

Vohada uy sharoitida gilamlar to‘qish an‘anasi Ittifoq davrida biroz unutilib, eskilik qoldig‘i sifatida qoralangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston istiqloli tufayli ko‘plab milliy qadriyatlar kabi qayta tiklandi. Bugun voha hunarmandlari qadimiy gilam to‘qish hunarini qayta tiklash va sifatli gilam, sholchalar ishlab chiqarish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu borada Surxondaryoning Boysun tumanida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu hududning 2001 yilda Jahon nomoddiy yodgorliklari durdonasi sifatida e‘tirof qilinishi uy hunarmandchiligi hisoblangan gilamdo‘zlik an‘anasining (oq enli gilam) yana qayta tiklanishi va ravnaq topishiga muhim turtki bo‘ldi. So‘nggi yillarda vohada kasanachilik orqali patsiz gilam va paloslar to‘qish keng avj olmoqda. Jumladan, Termiz tumanida Dilafruz Vallaeva “Ostona hunarmand” nomli gilamchilik korxonasini ochib (2007 yil), ip, ipak, paxta, qo‘y va tuya junidan taqir, g‘ajari, oygilam, chumchuqko‘z va qolin gilamlar to‘qimoqda¹⁴⁶.

Surxon temirchiligi shunchalik rivojlanganki, uning ichida mehnat taqsimoti asosida mustaqil sohalar yuzaga kelgan. Masalan, uy-ro‘zg‘or buyumi va erkak sarpasi tarkibi hisoblangan o‘zbek pichog‘ini maxsus pichoqchilar, qulf-kalitni qulfchi yoki qulfgarlar, igna-bigizni ignachi yoki ignasozlar, har xil asbob va buyumlarni chilangar misgarlar xom ashyo (taxtalangan mis, jez, qizil yoki sariq mis)ni asosan Rossiyadan keltirganlar, rux, qo‘rg‘oshin, kislota, nashatir

¹⁴⁵ Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev V. Surxondaryo tarix ko‘zgusida - Toshkent : Sharq, 2001. - B. 376.

¹⁴⁶ Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy veb sayti. 2016 yil.

ham tashqaridan yetkazilgan. Odatda idishlarni qizil misdan yasaganlar, nashatir va tuz bilan olovda qattiq qizdirib, keyin suvga solib qizartirganlar. O'tga solinmasdan yasaladigan idishlar (ko'zacha, kosa, piyola, patnus va x.. k.) ni qalaylashtirib oqlaganlar. Barcha manbalarda mahalliy ustalarning zo'r maxorat bilan badiiy buyumlar yasaganligi to'g'risida gapiriladi. Har xil buyumlarda o'simliklar, geometrik va hayvonlar stilidagi islmiy uslubdagi naqshlar o'zining jozibadorligi va yuksak saviyasi bilan kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Boysun do'ppisi o'zining aylana jihozi, sochiq popik jilosi, naqshning puxta va qalin nafis iplar bilan to'qilishi, namgarchilikka chidamliligi, jun iplardan mustahkam to'qilishi bilan ajralib turgan. Boysun do'ppilari asosan baxmal, satin, sidirg'a shohidan tayyorlangan. Boysun, Ko'hitang, Hisor, Bobotog' tog' tizmalari hamda tog' oldi qishloqlarda Boysunda tikilgan mo'ynali hamda qo'y terisidan tayyorlangan ichiga baxmal yoki bo'z matodan tikilgan telpaklar ko'plab tayyorlanib, telpak tikadigan hunarmandchilik ustaxonalarining maxsus savdo do'konlari bo'lgan. Surxon vohasida milliy urf-odatlarimizga an'anaviy jilo berib kelgan to'qima choponlarini tayyorlash, to'qish qadimiy tarixga ega bo'lib, dehqonchilik madaniyatining rivojlanganligi, paxta iplaridan, momiq tolasidan tayyorlangan choponning inson tanasini sovuqdan saqlashdagi xizmati beqiyosdir. Choponlar odamlarning yoshiga, xizmat vazifasi, lavozimiga qarab bichilgan. Chopon tabiiy iqlimga xos to'qilib, Boysun choponlari o'zining to'qilishi, matosi, astar hamda naqsh bezagi bilan ajralib turgan.

O'rta Osiyoda suvga bo'lgan katta ehtiyoj sopol idishlarning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa o'zbeklar va tojiklar yashaydigan shahar va qishloqlarda keng rivoj topdi. Kulolchilikda asosiy xomashyo – tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'ladigan tuproqlarda turli xil kulol mahsulotlari uchun loy tayyorlanadi. Loy ikki soatcha oyoq bilan tepilib, mushtlab, pishitiladi. Keyin nam matoga o'rab qo'yiladi. Keyingi kuni yana bir soatga pishitilgandan so'ng idish tayyorlashga kirishiladi. Loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikda asosiy qurol-charx. Kulol charxi katta va kichik ikki yog'och

g'ildirakdan iborat bo'lib, yog'och o'q bilan o'zaro birlashtirilgan. Kulol pastdagi katta g'ildirakni oyog'i bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi g'ildirakning ustiga loy qo'yadi, unda idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar qurutilib, xumdonda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar esa sirlanib, shundan keyin yana bir marta xumdonda qizdiriladi.

Kulolchilik uchun tuproqni kulollar Boysundan 3 kilometr naridagi Pasurxi qishlog'idan keltirib, kulolchilikda idishlarga qoramtir yaltiroq tus berish uchun qo'rg'oshindan foydalanishgan. XX asr Markaziy Osiyo kulolchiligida bunga o'xshash sopol buyum topilmaydi. Lagan naqshlari qalami texnikasida bajarilgan, unga yorug' fonga nafis, jimjimador yirik naqshlar ishlangan. Surxon vohasida sirlangan va sirlanmagan ajoyib kulollik buyumlarini saqlab, o'rganib, o'zi ham sarg'ish-qizil tusli, to'pbarggulli bezakgullar bilan naqshlangan laganlar, kosalar, sirlanmagan ko'za, obxo'rak (qushlar qafasiga qo'yiladigan suv idishi), ushpullak ko'zachalar tayyorlagan. Sirlangan lagan va kosalar Urgutning mashhur sarg'ish-qizil keramikasi o'yma naqshlari asosida berilgan. Katta lagan naqshlari Buxoro kulollik maktabi "panja" bezaklariga o'xshaydi. O'yinchoqlar xumdonda pishirib olinib, o'yinchoq tayyorlaydigan xumdon to'g'ri burchakli pechka bo'lib, pastida temir panjarasi bor. Surxon kulolchiligi asoslari va uning taraqqiyotini ilmiy o'rganish asosida sirlangan keramikasi tarixini o'rganish asosida Buxoro kulolchiligida yo'qolib ketgan an'analarni tiklash hamda Boysuncha hushtak o'yinchoqlar, sirlangan sopol idishlarini ishlab chiqarilishni qayta yo'lga qo'yish imkoniyati yuzaga keladi.

Sayrobda ishlab chiqaradigan mahsulot turlari – uloq uchun etiklar, qamchi, kovushlar, mahsilar va egarlardan iborat bo'lib, u asosan buyurtma asosida ishlaydi. Charmni an'anaviy texnologiya asosida qayta ishlaydi. Masalan, mahsi tayyorlash uchun takaning terisi olinadi. Charmni ishlash usuli juda oson: teri junlari ichki tomonga qilingan holda pohl bilan birga o'raladi. 2-3 kundan so'ng u chiriq boshlaydi. So'ng tugun yechiladi va jun o'zidan-o'zi tushib ketadi. Bex (bodom yoki o'rik daraxtidan) qaynatishadi va teriga quyishadi, 3-4 kun shu suyuqlikda ushlab turishadi. Bu hol charmga jigarrang berib, suv o'tmaydigan

holga keltiradi. Tarkibida oltingugurt mavjud alohida navli gilga (zok) suv qo'shiladi va bo'tqasimon holga keltiriladi va terining ichki qismiga surtiladi, bunda teri qora rangga kiradi. Zokni Qashqadaryo yoki Bandixondan keltirishadi. Keng tarqalgan charm mahsulotlari soniga po'staklar – teridan yasalgan o'ziga xos, yorqin gilamlar kiradi. Ular Besherkak, Qizil Navr qishloqlarida topilgan. Boysunda shuningdek Pulhokim qishlog'ida terisi ichki tomonga qaragan podachilar po'stini ham tikilgan¹⁴⁷.

Yog'ochga nisbatan ashyo, boy rang va teksturaga ega mahsulot sifatida qaralishi, uning keng qo'lamda ishlatilishiga olib keldi. Boysunda yog'ochga ishlov berish ishlari o'z tarixiga ega. Sayrobning Juma machitiga o'rnatilgan XIX asrda tayyorlangan o'yma naqshli ustun buning isbotidir¹⁴⁸. Yog'och o'ymakorlik ro'zg'ordagi ko'pgina buyumlarni – turli xil tagliklar, sandiqlar, qutichalar, beshiklar, kirish eshiklari, tokchalarni bezab turadi. Material sifatida duradgorlar esa terak, yong'oq, qarag'ay daraxtlarini ishlatishgan.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asosiy asboblari-tesha, bolta, arra, iskana, randa, ombur va boshqalardir. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ustalar ishni osonlashtiradigan va yengillashtiradigan duradgorlik dastgohlarini qo'llay boshlashgan, shu sababli ommaviy ro'zg'or buyumlaridan ilgari naqshlab o'yilgan qismlarni tokarli detallarga almashtirilgan. Boysun beshiklari faqat naqshlarni kuydirish va o'yma usulida bajarilgan. Boysun ustalarining fikricha, xalq tabobati beshiklarni bo'yashni taqozo yetmaydi. Beshiklar konstruksiyasi oddiy: ular lola (harroting dastgohida kesib olinadi), qush (lolaning uchlaridagi 2 ta vertikal ushlagich), yarim oy shaklidagi iyma, ularning orasidagi panjara, kaptoli, o'rta qismlardan iborat. An'anaviy tuzilmaga qo'shimcha-chaqaloqlarning so'rg'ichlarini saqlash uchun mo'ljallangan tortma kiritilgan. Beshiklar naqshida kashtachilik va sandiqlarda uchraydigan naqshlar qo'llaniladi: oy gul, lola guli, panjara va hokazo.

Surxonning zargarlik san'ati tegishli bo'lgan ayollar, erkaklar va bolalar zargarlik taqinchoqlari, ot abzallari, oltin va kumush muxrlar va idishlarni tashkil

¹⁴⁷ Dala yozuvlari. Boysun tumani Pulhokim qishlog'i. 2022 yil.

¹⁴⁸ Dala yozuvlari . Boysun tumani Sayrob qishlog'i. 2021 yil.

etadi. Qimmatbaxo toshlar (gavhar, feruza, dur, xaqiq va boshqa) ga ishlov berib zargarlik buyumlari (bargak, bibishak, bilakuzuk, bozuband, bozgardon, baldoq, buloqi, bo'yintumor, gajak, duo tuzi, jevax, jiga, zarkokil, zebigardon, zulf, isirg'a, kokil, oybaldoq, osmatuzi, sanchoq, tavq, tilla, bargak, tilla tuzi, tillaqosh, turunj, uzuk, shokila, qoshqarbaldoq, xalqa kabi) yaratilgan. Zargarlik asosan oltin va kumushdan foydalanishgan. Surxon oltin va kumushsozlikda badiiy maktabi taqinchoqlarining tarkibi, texnik hamda badiiy uslubning o'ziga xosligi bilan Buxoro badiiy maktabiga yaqin turadi. Zargarlik ishlarida toblash, o'ymakorlik, kesma, filigran', tekis va chuqur o'ymakorlik, chizmachilik, sayqallash, oltin suvi yuritish, sirlash kabi usullar qo'llanilgan. Filigran' buyumlari bo'lishi «Panjara», «Bozbandcha», «Qatmala», «Moxitillo» kabi bilakuzuklar Buxoro zargarlik maktabining asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Shuningdek, bu davrda dastlab etnografiyaga oid ishlarda shahar aholisi hunarmandchiligi o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik qishloq aholisi hunarmandchiligini o'rganishga ham qo'l urilgan¹⁴⁹.

Surxon zargarlarini buyumlardagi rang-barang va beqiyos naqshinkor bezaklar «Islimiy» va «xandasaviy» shakllardagi qat'iy chiziqlarning o'ziga xos go'zalligi kishini beixtiyor xayratga soladi. Naqshlarda yozuvchilar, she'rlar, Qur'on suralariga ham alohida e'tibor berishgan. Nozik arab imlosida bitilgan yozuvchilar buyumlarga o'zgacha ifoda baxsh etgan. Qur'ondan parchalar, shaxs va ism va boshqa narsalar o'yib yozilgan. Eron feruzasi va xaqiq zargarlar tomonidan alohida qadrlangan. Toshlar sexrli xususiyatga ega deb hisoblangan. Taqinchoqlar tarkibi o'zida aholining jinsiy bo'linishini aks ettirgan. Ayollar taqinchog'i 3-4 yoshdan to keksalik davrigacha taqilgan. Boysun shahar kelinchaklari boy, rang-barang sepi alohida ajralib turgan. Binobarin taqinchoqlar avlodlar, sulola davomiyligini bildirgan. To'y taqinchoqlariga bosh, bo'yin, ko'krak bezaklari: «Qoshitillo», «Bolo-abru», «Tillo bargak», «Moxitilla» kabi zebi-ziynatlar kirgan. «Kishitillo»ning dastlabki shakli oltin qoshlar ko'rinishida bo'lgan va qoshlar ustidan taqilgan. Taqinchoqlarni bora-bora tosh ko'zlar,

¹⁴⁹ Toshev X., O'roqov M. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshon vohasi qishloq aholisining hunarmandchiligi. – Toshkent : Fan, 1981. – 104 B.

keyinchalik esa, toshlar bilan bezalgan yaxlit tasma egalladi. Qolipsimon ma'lum bir uslubga solingan yaproqli «Bargak» taqinchog'i gul va barglardan yasalgan guldastaga o'xshaydi. U yashash va tug'ilish ramzini bildiradi. «Bibishak» boy xotinlarga ya'ni begoyimlarga tegishlilikni anglatadi. Boshni bezaydigan taqinchoq-bezaklar «Sinsila» yoki «Silsila» deyilib, ikki xil ma'noni ya'ni «zanjir» va «sulola» ma'nolarini bildiradi.

Zargarlik kasbini egallagan ustalar turli xil buyumlar tayyorlashda o'z mahoratlarini ko'rsatib, el orasiga alohida nufuzga ega bo'lib, amaldorlar o'z buyurtmalarini ana shunday iste'dodli ustalarga taqdim etganlar. Soch tugnagich esa «sarso'zan» deb atalgan. «Sochpopuk», «Tuf» kabi shakldagi turli xil kumush detali ipak bog'ichlar o'rim sochlarning asosiy ziynati hisoblangan. Ular go'yoki sochlarni berkitib turish va yomon ko'zlardan asrash uchun ishlatilgan. Surxon zargarlik san'atiga xos bo'lgan ziraklarning barcha asosiy turlari-doirasimon-«kundalsozi», «muhammadi», «qashqar baldoq», «shibirma» va boshqalar mavjud. «Shibirma» qizlarga balog'at yoshiga yetganda yoki to'y kuni sovg'a qilinadi. Ziraklar, an'anaviy filigran' texnikasi uslubida tayyorlanib, och-qizil yoqut, feruza marvarid bilan jilo berilgan. Bu yerda ko'krak taqinchoqlaridan marjon, bozbandchanning oltin va kumush o'rnatilgan yarim qimmatbaxo toshli, jimjimador qatmola sharchali, tangachali shoda munchoqlarning bir necha turi zargarlar tomonidan yasalgan¹⁵⁰.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mexnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan:

- 1) Uy hunarmandchiligi.
- 2) Buyurtma bilan maxsulot tayyorlaydigan hunarmandlar.
- 3) Bozor uchun maxsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi avvalda va hozirda eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi. Buxoroda xususan, Surxon xududida hunarmandchilikni barcha turlari XX asrning 20 yillarigacha saqlanib, hududida hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. Boysun shahristonidagi yopiq Timda (bozor) hunarmandlarning 53 ta

¹⁵⁰ Dala yozuvlari . Surxondaryo viloyati , Boysun tumani, Panjob qishlog'i . 2022 yil .

do‘koni bo‘lgan. O‘zida xilma-xil kasbkorlarni birlashtirgan terini qayta ishlash sohasida kunchilar, etikdo‘zlar, maxsido‘zlar, kovushchilar, egar-javduqchilar, telpakchilar, po‘stinchilar, kamarchilar, to‘qimachilik sohasida bo‘zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo‘lgan¹⁵¹. Bular hunarmandchilikning tarmoq tuzilishini belgilagan.

Voha hunarmandchiligi sohalarida mustaqillik davrida kasanachilikni rivojlantirish maqsadida ularning mahalliy xususiyatlari ham e‘tiborga olindi. “Hunarmand”, “Usto” uyushmalari va uning joylardagi organlari birgalikdagi kasanachilar bilan shartnoma tuzilib, qandolatchilik, pichoq yasash ishlari bo‘yicha rivojlantirilmoqda¹⁵².

Ilmiy tadqiqot ishi davomida milliy madaniyatimizni an‘ananaviy kashtachiligi, so‘zana va uy-ro‘zg‘or buyumlari haqida quyidagi ma’lumotlarga duch to‘pladik : Kashta tikiladigan matoga rang tanlash Surxon chevarlari uchun muxim sanaladi. Buning uchun esa kashtachi-chevardan yuksak did, an‘anaviy odatlarni puxta bilish, momolar, ajdodlarning bu borada to‘plagan tajribalari, sirlaridan xabardor bo‘lish talab etiladi. Kashtachilik ipakchilik negizida taraqqiy etgan O‘rta Osiyoning barcha hududlari, jumladan, Surxondaryo vohasida ham rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri hisoblangan. Asrlar davomida avloddan avlodga utib kelayotgan kashtachilik ayollarning ijodiy qobiliyatlari, orzu-umidlari, tabiatga, go‘zallikka bo‘lgan muhabbati namoyon bo‘lgan. Qiz bolalarni yaxshi kashtachi bo‘lib yetishishi uchun ularga yoshligidan hunar o‘rgatilgan. O‘rta Osiyo, jumladan, voha ayollarining barchasi o‘z oilasi uchun kashtachilik buyumlarini o‘zlari tikishgan. Kashtachilik buyumlari sirasiga so‘zana, joynamoz, taxmonpech, bo‘g‘joma, yostiqqo‘sh, zardevor, dorpech choyshab, palak, belbog‘, do‘ppi va xokazolarni kiritish mumkin.

Turli kashtalarning ko‘rinishi, shakli, o‘lchovi, asos, ya’ni tag matosi, gul naqshlari hamda tikilish uslubiga qarab ularning turmushda tutgan o‘rni belgilangan. Masalan, devorlarga osiladigan va yoshlarning to‘shaklari ustiga

¹⁵¹ Dala yozuvlari. Boysun shahri. 2022 yil.

¹⁵² Hunarmand uyushmasi joriy arxivi. 7-yig‘ma jild. 2006 yil.

yopiladigan so‘zanalar (bo‘yi 230 — 280, eni 170 — 200 sm.) markaziy gul-naqsh va hoshiyali bir bugun ko‘rinishga ega bo‘lgan. Taxmonga yig‘ilgan to‘shaklarning ustini yopish uchun ishlatiladigan taxmonpo‘sh so‘zanadan o‘lchovining kichikligi (bo‘yi 170 — 250, eni 120 — 150 sm) bilan farqlangan. Sandalpo‘sh esa kvadrat shaklida, ya’ni to‘rt tomoni bir xil (150 - 150 yoki 170 - 170 sm) o‘lchamda bo‘lgan. Joynamozning o‘rtasiga gul tikilmagan. Bosh tomoni va ikkala chetidagi naqshli hoshiya bir-biri bilan ravoq hosil qilib birlashadi.

Bo‘g‘joma yoki bug‘chapo‘sh turli xil buyumlarni tugib quyish uchun ishlatilgan. Uning bezagi buyum markazida joylashgan. Bo‘g‘jomaning boshqa joyida bezagi bo‘lmagan. Xonaning, asosan, tepa qismini bezatish uchun tiqiladigan zardevor aynan takrorlanuvchi gullar bilan bezatilgan. Uning bo‘yi 50 sm, eni 350 — 400 sm o‘lchamda bo‘lgan. Yirik so‘zanalarni tikish uchun uzoq, vaqt ketgan. Bunda gul bosilgan mato bo‘lak-bo‘lak bo‘lib, har biri alohida tikilgan va keyin yaxlit holga keltirilgan. Buning natijasida, ba’zida naqshlar bir-birga to‘g‘ri kelmay qolgan xollar ham uchraydi.

XIX asr 80-yillarigacha so‘zanalar oq karbos yoki sariq rangli qalin matolarga tikilgan. Ushbu kashtalar maftunkorligini naqshlar rang-barangligi, nozik tikilish usuli va tabiiy buyoqlarda bo‘yalgan ipak iplar jozibasi bilan izohlash mumkin. Kashtalarni tikishda ipak iplardan tashqari, och qizil rangli jun iplardan ham foydalanishgan. Keyinroq esa kashta tikish uchun mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan binafsha, ko‘k, jigarrang sidirg‘a matolar, Rossiyadan keltirilgan oq va rangdor gazlamalar hamda ko‘proq sun‘iy ranglarga bo‘yalgan mahaliy ipaklardan keng qo‘llanilgan. Shu jumladan, XIX asrning 80 - 90-yillaridan ipaklarni arzon anilin bo‘yoqlari bilan bo‘yash urf bo‘la boshlagan. Bu esa kashtachilik buyumlari sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu bo‘yoq, tabiiy bo‘yoqlar rangidan mutlaqo farq qilib, ipakka keskin ochiq rang bergan.

Surxondaryo vohasi kashtachiligida so‘zanalarga bosma va yo‘rma choklarining turli xillari bilan sidirg‘a matoga to‘ldirib gul tikish xos bo‘lgan. Bezak naqshlari ham shu choklarda tikilgan. Vohaning Boysun kashtachiligi

qishloqlardagiga nisbatan yuqori sifatlilik bilan ajralib turadi. Boysun do'ppilari va sinavanchalari, asosan, iroqi chokda sanama hamda chizma uslubda tikilgan.

Sanama uslubida asos uchun ikki qavat chit ustidan bo'z qo'yilib, keyin gullarning o'rni belgilangan. Ba'zi tajribali tikuvchilar bezak naqshini yoddan bilsa, ko'pchilik kashtachilar oldida ma'lum bir namuna turgan va o'sha namunadan ko'chirma olgan. Odatda, gullarning o'rni qora rangda tikib chiqilgan. Keyin kashta gullarining ichi to'ldirilgan. Bu usulda kashta tikishda rang tanlash ko'proq tikuvchining hohishiga bog'liq bo'lgan. Boysun an'anasiga ko'ra, ko'proq yashil rang do'ppilar quri uchun ishlatilgan bo'lsa, ko'k va oq rangli ipak iplar, asosan, do'ppi hamda sinavanchalarning asosini tikishda ishlatilgan. Do'ppi gullari ko'proq och hamda to'q pushti, jigarrang, sariq hamda siyohrang iplarda tikilgan¹⁵³.

Surxon vohasi kashtachilarning mahorat va san'ati ayniqsa so'zanalarda yorqin namoyon bo'ladi. Asosan to'q qizil, to'q sariq yoki qora sidirg'a matolarga ipak ip bilan tikiladigan har xil shakl o'z ma'nosiga ega bo'lib, ma'lum bir buyum, novda, o'simlik qismi, hayvonlar a'zosi, oy, quyosh, zaminning ma'lum bir qismiga oid ranglarni ifodalaydi. Kashta tikishda ishlatiladigan ipak iplar esa asosan yorqin ranglarda bo'ladi. So'zana markazi aylana-doira shaklida bo'lib, qolgan qismi "tark gul", "kuchkormez gul", "oy gul" kabi naqshlar bilan bezatiladi. Momolar bisoti orqali avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu san'at bugungi kunga kelib, yangi-yangi chizgilar, shakllar va tasvirlar bilan boyitib borilmoqda. Endilikda zamonaviy so'zanalarda aniq va yorqin tasvirlangan o'simlik barglari, atirgullar, Surxon diyorida o'sadigan turli gul tasvirlarini kuzatish mumkin. So'zana tikish, unga rang va tasvirlar tanlash jarayonida xuddi qadimgidek, hozir ham qo'ni-qo'shnilar, qishloq chevarlari birgalikda qatnashadilar. Bu kashtachilikda muhim an'ana sanaladi va bugunga qadar saqlanib qolgan.

Surxon amaliy san'atining kashtachilik turini jiddiy o'rgangan Boysun ilmiy ekspeditsiyasi a'zosi, san'atshunos Z.Nosirovaning ta'kidlashicha, bu hudud kashtachiligi juda qadim tarixga ega. San'atshunos olimi bu haqda shunday yozadi:

¹⁵³ Dala yozuvlari . Boysun tumani Sayrob qishlog'i. 2022 yil.

"Boysun ilmiy ekspeditsiyasi Boysunning 50 ga yaqin qishloqlarida taraqqiy etgan kashtachilik tarixi, uning badiiy xususiyatlarini o'rganib, usta-chevarlar bilan suxbatlar davomida ularning ishlash uslubi, texnologiyasi, naqshlar talqini bilan yaqindan tanishib chiqdi. Ilmiy izlanishlar asosida kashtachilikda asosiy mavzu baxor fasli, Navruz bayrami bilan boyaliq ekanligi ayon bo'ldi. Ayniqsa, bu Boysun kashtachiligida keng tarqalgan so'zanalarning kompozitsiya va naqshlarida yaqqol namoyon bo'lgan". Darhaqiqat, san'atshunos olimi ta'kidlaganidek, Boysun kashtachilari yaratgan so'zanalarda inson tafakkurida shakllangan, ya'ni u o'z xolicha tasavvur etgan sungeiz samo, tabiat go'zalliklari, shuningdek baxt va sevgi tushunchalari, sadoqat ramzlari o'zining ham yorqin, xam obrazli ifodasini topgan. Boysunning chekka xududlarida, xususan, Gumatak va Duoba qishloqlarida esa so'zana kizil fondi, qush tasviri tushirilgan, ya'ni zoomorf usulida bo'lib, "tovus nusxali" suzanalar tikish urf bo'lgan. Bu turdagi so'zanalar kashtasining asosini qora boshli, qizil, sariq, oq patli qush tasviri tashkil etadi. So'zananing yon tomonlarida ikkita yirik tupbarggullar tikilgan bo'ladi. Atrofi esa yashil rangli shoxsimon naqsh bilan bezatiladi. Boysunning Avlod yoki Ko'chkak qishloqlarida esa so'zana yana boshqa usulda, o'zgacha naqshlar bilan bezatilgan holda tikiladi. Masalan, muzeyda saqlanayotgan yoki shu qishloqlar xonadonlarida uchraydigan so'zanalarning naqshlari yorqin qizg'ish matoga tikiladi. So'zanaga oltita yirik oq, sariq, qora rangli tupbarggullar joylashtirilgan. Naqshlar zich va quyuq bo'lib, har bir tupbarggullar orasida gullar bor, ya'ni oraliq gul nusxalari bilan to'ldirilgan. Tashqi xoshiyasimon naqsh, ya'ni "oba" shaklida, ichki hoshiyasida esa "mexrob gul" deb nomlanuvchi o'simliksimon naqshlar va bodom gullarini uchratish mumkin. Asosan qora rangdagi matolarga tikiladigan so'zanalarda yulduzsimon naqshli un ikkita tupbarggullar och va yorqin rangli qizil iplar bilan tikilgan naqshlarni uchratish mumkin.

Kashtachilikda yana bir muhim uy jihozi vazifasini o'tagan zardevorlar ham tayyorlangan. Zardevorlar asosan uzun va enli tasma shaklida tayyorlanadi. Ilmiy til bilan aytganda, bu kabi friz-tasmalar xonaning kundalang va boylama devorlarining ustki qismini bezatishda ishlatiladi. Avvalida o'tovlarni, keyinchalik

xonalarni bezatishda qo'llanilgan zardevorlarning xam turlari kup. Ular bir-biridan rang, naqshlarning joylashtirilishi, nusxasi, tikish uslubi bilan ajralib turadi. San'atshunos va etnograf olimlarning e'tiroficha, Sherobod chevarlari ijodiga mansub deb qaraladigan qizil fondagi zardevorlar naqshlarning jozibadorligi, ranglarning uyg'unligi, tikish uslubining nafisligi bilan aloxida ajralib turadi. Bunday zardevorlarda un to'rtta tupbarggullar joylashtiriladi. Ular asosan kuk, jigarrang va kulrang iplardan tikiladi. Yulduzsimon tupbarggullar borligi tufayli bu kabi zardevorlar Surxondaryo kashtachilik maktabiga xos hisoblanadi. So'zanalar va zardevorlarda aks etgan naqshlarda bir-biriga uyg'un bo'lgan jihatlarni alohida ta'kidlash zarur. Chunki kashtachilikning bu noyob namunalarida asosan "mexrobgul" deb nomlanuvchi jingalak naqshlar tushirilgan keng xoshiyalar bilan o'rab olinganligi ko'zga tashlanadi. Bu usul asosiy maydonning naqshidan qat'iy nazar xamma so'zanalar va zardevorlarga xosdir. Tashqi xoshiyalarning "oba" deb ataluvchi tulqinsimon naqshlar bilan bezatilishi ham Surxon kashtachiligiga xos unsurlardan biri sanaladi. Buning ma'nosi ham qiyofali bo'lib, ya'ni bahor kelib, qorlar erishini, soylar, irmoqlar, daryolar yana to'lib-toshib oqa boshlashini anglatadi. Zero, "oba" so'zining ma'nosi ham "suv" demakdir. Barcha kashtachilik namunalariga xos bo'lgan yana bir o'xshashlik shundaki, odatda so'zana markazida oy va quyoshni majoziy tasvirlaydigan katta doiralar-aylanalar joylashtiriladi. Shu tariqa aks ettirilgan sayyoralarning nomi bitta, ya'ni oy sanalsa-da, lekin ular katta oy yoki panja oy, kichik sayyoralar-kichik oylarga ajratiladi. So'zanalar aslida chinakam san'at namunalaridir. Oddiy matoda aks etgan ipak bitiklar esa millatimizning boy o'tmish tarixidan, insonning orzu xayollaridan, sevgi va baxtidan o'ziga xos rivoyatlar so'zlaydigan kashtalardir.

Surxon kashtachi chevarlari tomonidan yaratilgan "oynaxalta", "choyxalta", "qoshiqxalta" va boshka maishiy turmushda foydalaniladigan uy-ro'zg'or buyumlarida xam ularning orzulari, estetik didlari namoyon bo'lib turadi. Yana bir hunarmandchilik namunasi hisoblangan bo'g'jomalar xalq xunarmandchiligining, xususan xalq amaliy san'atining o'ziga xos turi sifatida Surxondaryoning turli hududlarida turlicha usul va naqshlarda tikilgan. Xuddi shunday o'ziga xoslikni

Surxonlik chevarlar yaratgan boshqa o'y-ruzg'or buyum va ashyolarida ham kurish mumkin. Masalan, qadimda juda mashxur bo'lgan "oina xalta"ni (ayrim manbalarda "to'rva" ham deyiladi) olib kuraylik. Oina xalta- ya'ni to'rva aslida to'rtburchak shaklida tayyorlanib, turli kashtali naqshlar bilan bezatilgan. Masalan, qizil fon markazida bitta ochiq yashil rangli to'pbarggul tasviri tushirilgan "oina xalta" ko'p tarqalgan. Yirik to'pbarggul atrofida, aniqrog'i to'rtta burchakda bittadan kichikroq hajmdagi to'pbarggullar joylashtiriladi. Ular sariq, oq, yashil, moviy rangli iplar bilan tikiladi. Oraliqlari esa to'q yashil rangdagi o'simliksimon naqshlar bilan to'ldiriladi¹⁵⁴.

Surxon kashtachilari azal-azaldan tikish va to'qish usullaridan foydalangan holda o'y-ruzg'or buyumlari va ashyolari, erkaklar va ayollarning kundalik turmushida ishlatiladigan buyumlarini kashtachilik mahorati bilan to'qib, tikkanlar. Ana shularning biri "kulburcha" deb ataladi. Ayrim jihatlari bilan hozirgi zamon ayollarining qul sumkalariga o'xshab ketadigan bunday buyum aslida xam "sumka" vazifasini o'tagan, desa bo'ladi. Shuningdek, "Cha-noch", "Tuzliq", "Xanjarqin", "Qizlar hamyoni" deb ataluvchi buyumlar xam Surxon kashtachilari mahoratidan darak beruvchi qulay va guzal namunalar hisoblanadi. Bu naqshlar qadimda o'tovlarni bezashda qul kelish bilan birga ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini ruzg'or buyumlarini toza-ozoda saqlashda asqotgan.

Bulardan tashqari Surxonliklarning turmush madaniyati, o'y-ruzg'or yuritishi darajasidan xabar beruvchi gul-ko'rpalar, kashtali choyshablar, joynamozlar, lo'labolishlarda aks etgan kashtalar xam diqqatga molik sanaladi. Masalan, yorqin qizil rangdagi matoga kashta tikish yo'li bilan tayyorlangan lulabolishni olib ko'raylik. Lulabolishlarda asosan to'pbarggullar va geometrik shakllardan iborat naqshlar tushirilgan kashta usulidan foydalaniladi. Lo'labolishning har ikkala tomoniga baravar tushib turadigan uchtdan, oltita tupbarggullar sariq, oq., yashil, och kukish ranglardagi ip va ipaklardan tikiladi. Shunisi ham borki, bu tupbarggullar oralig'iga hech qanday qushimcha naqshlar joylashtirilmaydi.

¹⁵⁴ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Xomkon qishlog'i. 2022 yil

Joynamozlarga kashta tikish xam Surxon chevarlari faoliyatida muhim o‘rin tutgan yo‘nalishlardan biri xisoblanadi. Shuni xam ta’kidlab o‘tish kerakki, joynamozlarning aksariyati qizil, kuk, moviy, siyohrang, tuq, sariq, matolardan kashta tikish yo‘li bilan tayyorlangan. Joynamozlarga tushiriladigan kashtalar, ya’ni naqshlar aslida yirik buyumlar bo‘lmish so‘zana va zardevor naqshlariga o‘xshab ketadi. Joynamozlarda odatda ibodat qiluvchining oyog‘i turadigan joyida kashtalar bo‘lmaydi. Lekin chetlari buylab u mehrob yulakchasini bezab turadi. Joynamozlarda asosan o‘simliksimon naqshlar ko‘proq ishlatilishini ta’kidlab o‘tmoq, joiz. Masalan, anor mevalari va lola g‘unchalari, ikki qarama-qarshi rangdagi bodom rangi kup qo‘llaniladi. Bodomgul qora-oq rangda, ko‘pchilik holatlarda esa qora-sariq, qora-moviy kabi qarama-qarshi ranglarda tasvirlanadi. Joynamozning mehrob qismiga esa kichik hajmdagi, mayda-mayda to‘pbarglar tikiladi. Bu to‘pbarggullar soni joynamoz xajmiga qarab 9 tadan 16 tagacha bo‘lishi mumkin.

3.2. Hunarmandchilik sohasidagi o‘zgarishlar tavsifi

Avlodlardan ajdodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odat an’analar hamda milliy hunarmandchilik namunalari Surxondaryo viloyatining tog‘ va tog‘oldi vohalarida, ayniqsa Boysun, Sherobod, Denov tumanlarining tog‘oldi va tog‘li qishloqlarida saqlanib qolgan. Etnografik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Boysun va uning atrofidagi qishloqlar etnik tarkibga ko‘ra xilma-xildir. Sariosiyo, Avlod, Pasurxi, Bibishirin, Ko‘chkoq, Rabot, Kofrun kabi tog‘li qishloqlarida va Qizilnavr, Kengdala, Yuqori Machay, O‘rta Machay, Pastki Machay kabi uzoq tog‘li qishloqlarida o‘zbek xalqi tarkibidagi turk, qo‘ng‘irot, qatag‘on, xo‘ja kabi etnik guruhlar va tojiklar uzoq davr mobaynida birgalikda yashab keladi. Shu sababli ham ularning tili, urf-odatlari, to‘y va motam marosimlari, shuningdek, kiyim –kechaklari, xo‘jalik xususiyatlari, milliy hunarmandchiligi va hatto xalq og‘zaki ijodida ham umumiy mushtaraklikni kuzatishimiz mumkin. Bu yerda turli etnik guruhlar, turli madaniyat va rang-barang sheva va tillar qorishib “Boysun

qo'ng'irot eli" vujudga kelgan va o'ziga xos madaniyat yaratganlar desak xato qilmagan bo'lamiz¹⁵⁵.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlanib, xalq hunarmandchiligi an'analarini bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda qayta tiklashga e'tibor qaratildi. Bozor munosabatlariga o'tishning muhim shartlaridan biri – ko'p ukkladli iqtisodiyotni, ya'ni mulkchilikning turli shakllarini yuzaga keltirishdir. Sotsialistik rejalashtirishga asoslangan markazlashtirilgan iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga aylantirishda yangi mustaqil davlatlar tanlab olgan turlicha yondashuv va modellar ko'p jihatdan aynan mulkchilik masalasini hal etish xususiyatlari bozorni vujudga keltirishga qaratilgan tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Bu mustabid sovet tuzumidan keyin bozor munosabatlari yo'lini tanlagan mamlakatlarda dolzarb muammolardan bo'lib, aynan shu masalani hal qilish bilan yangi jamiyat va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida muhim qadam bo'ldi. Dastlab, bozor munosabatlariga o'tish yo'li jarayonida korxona va ishlab chiqarish jamoalarining tutgan o'rnini keskin masala qilib qo'yildi.

Bu holat, sanoatni rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun janubiy viloyatlardagi an'anaviy hunarmandchilik rivojida yangicha yondashish va uni yanada taraqqiy etishi uchun keng yo'l berishni taqozo etar edi. Sovet davrida O'zbekistonda sanoati nisbatan kam rivojlangan viloyat Surxondaryo bo'lib, u respublikada o'ninchi o'rinda turgan. Bu davrda viloyatda 23 ta sanoat korxonasi bo'lib, 1345 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va aholi jon boshiga 1011, 63 so'mlik sanoat mahsulotlari yetkazib berilgan edi¹⁵⁶. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sanoatlashgan milliy hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi¹⁵⁷. Eng avvalo, amaliy san'at – hunarmandchilikka

¹⁵⁵Boysun tarixi va milliy madaniyati. Boysun ilmiy Ekspeditsiyasi to'plami. Nashr II. Toshkent .2005. B 97-98.

¹⁵⁶ Surxondaryo viloyati JA, 1-jamg'arma, 3-ro'yxat, 4-ish, 55-varaq.

¹⁵⁷ O'zbekiston SSR Oliy kengashi Prezidiumining 1991 yil 22 iyuldagi "O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi korxona, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy modeliga o'tkazish" to'g'risidagi qarori // Xalq so'zi. 1991, 24 iyul; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrdagi "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni// Xalq so'zi. 1991, 20 noyabr.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishda janubiy viloyatlardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisobga olindi. Janubiy hududlarda yirik tikuvchilik fabrikalaridan farqli ravishda, kichik tikuv sexlari qurila boshladi. Jumladan, 1992 yilda Denovda 30 o‘rinli “Baxtiyor” tikuvchilik kichik korxonasi ishga tushdi. Janubiy vohalarda xususiylashtirilgan korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning o‘shishi va ishchilar sonining oshishi ham kuzatiladi. Xususan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish rejalari Qumqo‘rg‘onda – 115,1%, Denovda – 102,9% va Boysunda – 117% ga bajarildi. Ushbu shaharlar sanoat korxonalarida 29961 kishi faoliyat olib borib, asosiy ishchilar soni 20201 nafarni tashkil etgan¹⁶¹.

Xalq hunarmandchiligi rivojida O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarining ahamiyati katta bo‘lib, qo‘l hunarmandchiligiga doir ko‘rgazma, ko‘rik-tanlov, simpozium va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarning o‘tkazilishi soha rivojiga katta hissa qo‘shdi. Ushbu tadbirlardan ko‘zlangan maqsad hunarmand ustalar bilan xorijliklar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va tajriba almashish, an‘analarni saqlab qolish, hunarmandlarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishdan iboratdir.

1994 yil 24–25 oktabr kunlari Toshkentda BMTning O‘zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O‘zbekiston xalq ustalari bilan hunarmandlari ishtirok etgan birinchi Respublika yarmarkasining o‘tkazilishi hunarmandlar faoliyatiga e‘tiborning oshishiga turtki bo‘ldi¹⁶². Xalq hunarmandchiligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator jamg‘arma va uyushmalar tashkil etildi. Respublikada Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamg‘armasi tashkil etilishi (1996 yil), “Musavvir” ilmiy-ishlab chiqarish markazi, respublika “Ustazoda” va “Usto” maxsus ijodiy-ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etilishi, har yili o‘tkazilib kelinayotgan “Tashabbus” ko‘rik-tanlovi va unda “Eng yaxshi hunarmand” nominatsiyasining tashkil qilinishi milliy hunarmandchilik rivoji uchun alohida e‘tibor hisoblanadi. Mazkur tuzilmalar faoliyati tufayli gul bosilgan mato tayyorlash, lokli miniatyura rang tasviri, gilamdo‘zlik kabi hunar turlari qayta tiklandi.

¹⁶¹ Tursunov A. Janubiy shaharlardagi iqtisodiy o‘zgarishlar // Jamiyat va boshqaruv. – 2008. – № 2. – B.82.

¹⁶² Xalq so‘zi. 1995, 29 noyabr.

O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikka bo‘lgan e‘tibor 1997 yildan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy hunarmandchilik, an‘anaviy qadriyatlarni asrash, qo‘lda ishlangan badiiy buyumlar tayyorlashning asriy an‘analari, o‘ziga xos hunar turlarini qayta tiklash va hunarmandlarga g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, uning huquqiy asoslari yaratildi¹⁶³. Shu bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq hunarmandlari mahalliy xom ashyo, asbob va boshqa materiallar bilan ta‘minlandi. Ular o‘zlari tayyorlagan mahsulotini ko‘rgazmayarmarkalar, kim oshdi savdosi va do‘konlarda erkin sotish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1997 yil 24 martdagi “Xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida”gi¹⁶⁴ PF uy sharoitida yuksak saviyadagi badiiy hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarayotgan xalq ustalari uchun muhim amaliy yordam bo‘ldi. Unga ko‘ra, hunarmandlar dastlab besh yilgacha daromad solig‘idan ozod qilinib, chetga chiqariladigan hunarmandchilik buyumlari uchun boj olish bekor ham qilindi.

Hunarmandchilikning rivojlanayotgan sohalarini malakali yosh kadrlar bilan ta‘minlashda hunar ta‘limining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida hunar ta‘limi isloh qilinib, 1995 – 1996 yillarda respublikada 140 ta kasb-hunar va 18 ta milliy hunarmandchilik kollejlari tashkil etildi. Shuningdek, an‘anaviy hunar turlarini saqlash va rivojlantirish maqsadida 12 ta bilim yurti milliy hunarmandchilik kollejlariga aylantirilib, 76 ta yo‘nalish va 140 ta ixtisoslik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanishi belgilab qo‘yildi¹⁶⁵. Janubiy hududlar kasb-hunar kollejlarida tikuvchilik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik, o‘ymakorlik, yog‘ochga ishlov berish, oshpaz, qandolatchi va sartaroshlik kabi sohalarda mutaxassislar tayyorlanmoqda¹⁶⁶.

Mustaqillikning dastlabki yillarida hunarmandchilik akademiyasini tashkil etish yuzasidan takliflar berilib, hunarmandlar tayyorlashni o‘quv yurtlari dasturiga

¹⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 mart “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san‘atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Ma‘rifat gazetasi. 1997, 2 aprel.

¹⁶⁴ O‘zbekiston san‘ati. ... - B. 10.

¹⁶⁵ Kasb-hunar ta‘limi. – 2005. – № 6. - B. 6-7.

¹⁶⁶ O‘zbekiston ovozi. 1992, 15 yanvar.

kiritish, milliy hunarmandchilik sohalarini o'rgatish bo'yicha darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish masalalari dasturga kiritilgan edi. O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'at maktablarining an'alarini asrab-avaylash, tajriba o'rganish, san'atning nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, shuningdek, sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini yaratish hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi (1997 yil 23 yanvar qarorga binoan) tashkil etildi.

1997 yil O'zbekistonda hunarmandchilik taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishda Respublika xalq ustalari, hunarmandlari va musavvirlarining "Hunarmand" uyushmasi tashkil etilib, dastlabki yillarda a'zolar soni 750 nafarga yetgan. Uyushmaning maqsad, vazifalari usta va hunarmandlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, uy sharoitida ishlash uchun qulayliklar yaratish, zarur xom ashyo, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish va eksport qilishga ko'maklashish, mamlakat va xorijda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini keng targ'ib qilishdan iborat. Uyushma tashkil topgan vaqtdan boshlab, kasb-hunar ta'limida hunarmandchilik sohalarini o'rgatishning davlat dasturini ishlab chiqish, malakali hunarmandlar tayyorlashni yo'lga qo'yish va ustoz-shogird munosabatlarini qayta tiklash masalasiga e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, "Hunarmand" uyushmasi va kasb-hunar kollejlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilib, respublika bo'yicha 532 nafar kollej bitiruvchilari imtiyozli tarzda uyushma a'ziligiga qabul qilindi¹⁶⁷.

1998 yil yanvarda Surxondaryoda "Hunarmand" uyushmasi bo'limi tashkil qilinib¹⁶⁸, viloyatda 20 turdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarila boshladi. Voha hunarmandlari o'zlari yasagan mahsulotlarini hech qanday to'siq va cheklovlarsiz sotish orqali iqtisodiy jihatdan rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va shogirdlar tayyorlash imkoniga ega bo'ldilar. Shunga qaramay, respublika va viloyatlar hunarmandchilik uyushmalari faoliyatida hunar turlarini

¹⁶⁷ Hunarmand uyushmasi joriy arxivi. 2013 yil.

¹⁶⁸ Surxondaryo viloyati hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi. - Termiz, 1998. - B. 148.

hududlarga xosligi, sof an'analarni o'rganish borasida qator kamchiliklar seziladi. Dastlabki yillarda uyushma a'zoliciga faqat tadbirkorlarni jalb etilishi hunarmandlarni chetda qolishiga ham sabab bo'lgan va bu hozirgacha davom etib kelmoqda.

O'zbekiston hukumatining hunarmandchilikka e'tibori va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, hukumat qaroriga ko'ra, yengil sanoat tarmoqlaridagi deyarli barcha korxonalar davlat tasarrufidan chiqarish dasturiga ko'ra ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati va mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirildi. "O'zbekengilsanoat" davlat uyushmasi tomonidan Respublika yengil sanoatini rivojlantirishning 2000-2005 yillarga mo'ljallangan dasturi ishlab chiqildi. Unda O'zbekistonga chetdan ilg'or texnologiyalarni olib kelish, chet el investitsiyasini jalb etish, bank kreditlaridan foydalanib yangi zamonaviy korxonalar qurish, jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlar chiqarish, eksport imkoniyatlarini oshirish belgilab berildi. Xususan, 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon asosida kooperatsiyani rivojlantirishning aniq maqsadlari sifatida aholini ish bilan ta'minlash, uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish, oila bdyujeti daromadlarini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, kasanachilik mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqish va korxonalarning samaradorligini oshirish belgilangan¹⁶⁹. Mehnat qonunchiligini takomillashtirish, kasanachilarni ijtimoiy himoya qilish va mehnat muhofazasini inobatga olgan holda aholini uy mehnati faoliyatiga jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish masalasi hal qilinadi. Masalan, 2006 yilda Surxondaryoda kasana asosida ishlaydigan "Hunarmand" uyushmasiga a'zo 315 dan ortiq hunarmand ro'yxatga olingan¹⁷⁰.

Yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyaga asoslangan kasanachilik faoliyati korxonaning buyurtmasini bajarish uchun mehnat shartnomasi va tegishli

¹⁶⁹ O'zR Prezidentining 2006 yil 5 yanvar 3706-sonli Farmoni // Xalq so'zi. 2006, yanvar.

¹⁷⁰ Hunarmand uyushmasining joriy arxivi. 2006 yil. 8-yig'ma jild.

haq evaziga, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan mehnat faoliyati hisoblanadi. Shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish maydonlari, xodimning uyida joylashgan, turg'un ish joyi talab qilinadigan, bir maromda va muntazam ravishda uyda bajariladigan ishlar tushuniladi. Kasanachilik faoliyati hunarmandning mehnat shartnomalari asosida yollanib, o'z uyi yoki yashash joyida ishlashi va xizmat ko'rsatishidir. Kasanachilikda hunarmandga pensiya va ijtimoiy nafaqalar tayinlashda uning ishlagan vaqti mehnat stajiga qo'shiladi¹⁷¹.

Bugun O'zbekistonda xorijdagi kabi kasanachilikning qo'l mehnati hamda uni yengillatish imkonini beruvchi oddiy vosita – asbob-uskunalarini qo'llash yoki qo'llamasdan olib borish, murakkab bo'lmagan texnologik asbob-uskunalaridan foydalanish, buyurtmalar bajarishni ta'minlash, mexanizatsiyalashgan mehnat, kasanachi tomonidan o'zining uyida telekommunikatsiya aloqa vositalari (telefon, internet) yordamida amalga oshiradigan masofadan turib bajariladigan ofis ishlari, korxona uchun uyda bajariladigan xizmat ko'rsatish turlaridan ham foydalanilmoqda. Hunarmandchilik kasanachilikning asosiy omili hisoblanib, an'analarni asrash va oila farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kasanachilikni rivojlantirishning hududiy va tarmoq parametrlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqiladi¹⁷². Bu borada "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga ko'ra, kichik korxona, sartaroshxona, poyabzal ta'mirlash, tikuvchilik sexi, hunarmandchilik ustaxonalari va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tashkil etildi.

Respublikada aholining bandligi va daromadlari barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga katta ahamiyat berilmoqda. Qolaversa, sanoat korxonalarining

¹⁷¹ O'zbekistonda kasanachilik: tashkil etish imkoniyatiga rivojlantirish tajribasi (qonunchilik va amaliyot). O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2008. – B. 11.

¹⁷² Xo'jayeva Z. T. Kasanachilik faoliyatini monitoring qilishning fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2013. – № 1-2. – B. 52.

kasanachilarga zarur xom ashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, past rentabelli va ko‘p mehnat talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Dastlab respublikada hunarmand va uning oila a‘zolariga bevosita hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar berilib, “Hunarmand” uyushmasining hududiy boshqarma va bo‘limlari tomonidan 728 ta kasanachilik ishchi o‘rinlari yaratildi¹⁷³.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining mulkka bo‘lgan munosabatining o‘zgarishi hunarmandchilik taraqqiyotida muhim omillardan biri bo‘ldi. Mehnatni tashkil etishning kasanachilik shakli O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 1998 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uyda ishlovchilar mehnatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”i orqali huquqiy tartibga solindi. Qonunning amalda qo‘llanilishi hunarmandchilikni rivojlantirishdagi asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Sharq ayoli”, “Tadbirkor ayol” kabi nodavlat, notijorat tashkilotlari tomonidan milliy hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Surxondaryo viloyatida hunarmandchilikda faoliyat yuritayotgan tadbirkor va ishbilarmon ayollar to‘quvchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik va boshqa sohalarda samarali mehnat qilmoqdalar. Unutilib borayotgan hunarmandchilik an‘analarini qayta tiklashda Amerikaning “Kaunterpart Konsorsium” (1990) tashkiloti e‘lon qilgan “Madaniy tanishish sayyohligi va hunarmandchilikni rivojlantirish” hamda “Hunarmandlarga yordam”, “BMT, YuNESKO – O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini tiklash va rivojlantirish dasturi” kabi loyihalarini alohida ta’kidlash zarur⁵⁷⁶. Ular yarmarkalar o‘tkazish, mahalliy ustalarni an‘anaviy texnologiyalar, tabiiy bo‘yoqlardan foydalanishni o‘rgatish uchun xorijdan mutaxassislarni chaqirish, mashhur hunarmandchilik markazlari bilan qo‘shma loyihalar ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldilar. Keyingi yillarda Shveysariya Hamkorlik va taraqqiyot byurosi,

¹⁷³ O‘zR VM 2009 yil 29 iyuldagi “Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 216-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2009, 30 iyul.

YuNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va Milliy komissiyasi faol ish olib bormoqda.

O‘zbek madaniyati va san’atining durdonasi hisoblangan an’anaviy hunarmandchilik sohalarini keng jamoatchilikka targ‘ib etish, avaylab asrash va jahonga tanitish uchun Toshkent shahrida Ko‘rgazmalar binosi ishga tushirildi¹⁷⁴. Hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarga olib chiqish borasidagi imtiyoz sifatida 24 yo‘nalishdagi hunarmandchilik mahsulotlari ekspertiza yig‘imidan ozod etildi¹⁷⁵. Mahalliy hunarmandlar Markaziy Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiv, Nepal, Pokiston va Shri Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya) davlatlarini o‘z ichiga olgan “Hunarmandchilik mahsulotlariga YuNESKO sifat belgisi” dasturida ishtirok etmoqdalar. 2006 yilda Surxondaryo vohasi Boysun tumanida ishlab chiqariladigan janda matosi va oqenli gilami, 2016 yilda Shahrisabz kulolchilik maktabi ham YuNESKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi¹⁷⁶ va shunday belgi olgan boshqa g‘oliblar qatorida Bangkok, Pekin, Nyu-York, Dehli va Almatida ofis saytlariga joylashtirildi. Hozirda o‘zbek hunarmandlarining jahon mamlakatlari bilan aloqalari kengayib, respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni mustahkamlanib bormoqda.

“Hunarmand” uyushmasi 2008 yilda “Nodavlat va notijorat tashkilotlar Milliy Assotsiatsiyasi” va 2009 yil Jahon “Hunarmandlar” uyushmasiga ham a‘zo bo‘ldi¹⁷⁷. Uyushma va uning hududiy bo‘limlarida mahoratli xalq ustalarining kengashlari tashkil etilgan bo‘lib, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar doimiy ravishda nazorat qilib boriladi. Shuningdek, uyushma a‘zolari 25 yo‘nalish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatib, 1000 dan ortiq turdagi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga erishdilar¹⁷⁸. Dastlabki yillarda uyushma a‘zolarining safi

¹⁷⁴ 2006 yil 14 sentabr PQ-467-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida barpo etilgan Madaniyat va san’at ko‘rgazmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

¹⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 26- apreldagi 245-sonli Qarori.

¹⁷⁶ Dala yozuvlari. Shahrisabzlik kulollar maktabining oltinchi avlod vakili kulol Rustam Muzaffarov bilan suhbat. 2016 yil.

¹⁷⁷ Hunarmand uyushmasi yillik hisobotidan. 2013 yil.

¹⁷⁸ Hunarmand uyushmasi joriy arxivi. 7-yig‘ma jild. 2013 yil.

kengayib, respublikada 13 ta hududiy boshqarma, 158 ta bo‘lim ish olib borgan bo‘lsa, keyinchalik a‘zolar soni 16188 nafardan oshgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 12 may PQ-1529-son “Tadbirkorlik sub’ektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha tegishli inspeksiyalarda ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun to‘lanadigan davlat boji stavkasi eng kam ish haqining bir barobariga teng deb belgilandi, ya’ni avvalgi to‘lovga nisbatan to‘lov miqdori 50%ga qisqartirildi va yakka tartibdagi tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berildi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 noyabrdagi 2-sonli Qaroriga asosan xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish boshqarmasi viloyat hokimliklari bilan hamkorlikda “Hunarmand” bo‘limlari va ularning markazlari faoliyatini samarali tashkil etish, davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlarni ularga foydalanishga topshirilishi hunarmandlar uchun katta ko‘mak bo‘ldi. Xususan, Surxondaryo viloyatida tarixiy obidalar qayta ta’mir lanib, hunarmandlarga topshirildi. Viloyatlarda uyushma sa’y-harakati va hokimlik qarorlariga binoan maxsus yerlar ajratilib, “Hunarmandlar markazi” ishga tushirildi. Shuningdek, yangi bozorlar barpo etilib, hunarmandlar uchun maxsus turar joylar, rasta va do‘konlarning qurib berilishi ularga o‘z mahsulotlarini sotishi uchun qulay imkon berdi.

Binobarin, davlatning hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlari, keyingi yillarda ham davom ettirilib, hunarmandlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi PQ-2899-sonli qaroriga asosan, hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar turi 25 tadan 34 taga yetkazildi .

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida uyushma

tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda¹⁷⁹.

O'zbekistonda, xususan, Surxon vohasida hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi uchun amaliy yo'l-yo'riqlar shakllantirildi. Hunarmandlari koshinkorlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik va kandakorlik yo'nalishlarida muvaffaqiyatlarga erishdilar. Birgina zardo'zlikda naqshlarning 50 dan ortiq turlari qayta tiklandi. Ipak va paxtadan gazlamalar, kashtachilik va gilamdo'zlik xom ashyolari, kulolchilik buyumlari va koshinkorlik mahsulotlarini ranglash borasida o'simliklardan tabiiy rang olish texnologiyalari yaratildi. Ushbu jarayonlar o'z istiqboliga ega bo'lib, respublika aholisiga munosib hayot tarzi, iqtisodiy barqarorlik hamda hunarmandchilikning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlab bermoqda. Surxondaryo viloyati ham qadimiy tarixga ega bo'lib, undan topilgan sun'iy sug'orish dehqonchiligining dastlabki manbalari, hunarmandchilik manzilgohlari, ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi, to'qimachilik dastgohlari, kulolchilik ustaxonalari buning yorqin isbotidir¹⁸⁰. Vohada uyda gilamlar to'qish an'anasi Ittifoq davrida biroz unutilib, eskilik qoldig'i sifatida qoralangan bo'lsa-da, O'zbekiston mustaqilligi tufayli ko'plab milliy qadriyatlar kabi qayta tiklandi.

Bu borada Surxondaryoning Boysun tumanida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu hududning 2001 yil Jahon nomoddiy yodgorliklari durdonasi sifatida e'tirof qilinishi Surxon vohasidagi qadimiy hunarmandchilik an'analari, jumladan, uy hunarmandchiligi hisoblangan gilamdo'zlik an'anasining (oq enli gilam) yana qayta tiklanishiga muhim turtki bo'ldi. So'nggi yillarda vohada kasanachilik orqali patsiz gilam va paloslar to'qish keng avj olmoqda. Gilamdo'zlikda O'zbekistonda qator tadbirlar amalga oshirilib, gilam to'qiydigan fabrika va sexlar ishga tushirildi. O'zbek gilamlari turkman, qozoq va qirg'iz gilamlaridan to'qilish uslubi va naqshlari bilan farqlanib turadi. Bugun Boysun,

¹⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli farmonining 1-ilovasida keltirilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". <http://strategy.regulation.gov.uz>

¹⁸⁰ Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev V. Surxondaryo tarix ko'zgusida - Toshkent : Sharq, 2001. - B. 376.

Termiz va Boysunda pishiq, naqshinkor va jahon bozori standartlariga mos an'anaviy gilamlar ishlab chiqarilmoqda. Hududlarda maxsus gilamchilik fabrikalari qurilmagan bo'lsa-da, gilamdo'zlar uy sharoitida sexlar, kichik xususiy korxonalar tashkil etib, bu soha rivojlantirilmoqda. Masalan, Termiz shahridagi "Turon" nomli kichik korxonada Turkiyadan keltirilgan dastgohlarda to'qilayotgan sifatli gilamlarga aholining talabi oshmoqda. 1994 yil Boysun "Rabot" jamoa xo'jaligida ham gilam to'qish va kigiz tayyorlash sexi ishga tushirilib, ishchilar soni 18 nafarni tashkil etgan. 1997 yil Surxondaryoda gilam tayyorlash rejasi 26,1%ga bajarilgan.

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishini isloh qilinishi borasida katta ijobiy natijalarga erishildi. Vohalarda sanoat mahsulotlari mustabid tuzum sharoitida sust rivojlanib, ular asosan mahsulotga birinchi qayta ishlov berishga moslashgan edi. Istiqlolning dastlabki yillarida sanoatdagi qoloqlikni bartaraf etish masalasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Sanoat komplekslarini qayta ta'mirlash, yangi zamon talablari asosida mahsulot ishlab chiqaradigan zavod-fabrikalar qurish dolzarb masalaga aylandi. Bu borada O'zbekiston iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi uchun paxtani qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Qolaversa, mazkur sohani modernizatsiya qilish jarayoni shuni ko'rsatadiki, paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlaridan – 51%, ip ishlab chiqarish – 71%, gazlama – 65%, trikotaj – 62%, trikotaj mahsulotlari – 50%, tikuv mahsulotlari – 52% ga foydalanilmoqda.

Surxondaryo viloyatida hunarmandchilikni sanoatlashtirishda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Sho'rchi paxta tozalash zavodi qoshida pillani qayta ishlovchi sex va Sharg'unko'mir koni boshqarmasiga qarashli ishchilar ta'minoti buyurtmasiga asosan "Toqchiyon" jamoa xo'jaligida chinni buyumlar sexlari ishga tushirildi¹⁸¹. To'quvchilik sohasida Surxondaryo viloyati yengil sanoat korxonalarida (1992 y.) umumiy uzunligi 1 247 ming metr bo'lgan shoyi gazlama, 99,5 mln so'mlik tikuvchilik buyumlari, 20,1 ming juft poyabzal, 19,2 ming dona

¹⁸¹ Surxondaryo viloyati hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. ... - B. 24.

trikotaj buyumlari, 5,2 ming dona paypoq, 2,3 tonna yigirilgan ip tayyorlandi¹⁸². 1996 y. viloyatda pilla xom ashyosidan 1,2 tonna sifatli ip yigirilib, sex va fabrikalarda 9 mln 171 ming soʻmlik turli bichimdagi kiyim-kechaklar ishlab chiqarildi. Surxondaryoda paypoq ishlab chiqarish ham oldingiga nisbatan 2 baravar koʻpaydi¹⁸³. Termizdagi “Turon” nomli kichik korxonaga Shimoliy Kavkazning Pyatigorsk va boshqa shaharlaridan keltirilgan ip-yigiruv mashinalari oʻrnatilib, kuniga 100 metrdan ortiq mato-gazlama tayyorlanib, erkak va ayollar uchun kiyim-kechaklar tikish ham yoʻlga qoʻyilgan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarish sanoatida mahsulotlarni mamlakat miqyosida alohida klasterga ajratish, hamdoʻstlik doirasida hududiy hamkorlikni chuqurlashtirish oʻzaro manfaatli kooperatsiyaning muayyan imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi. Toʻqimachilikda klaster tushunchasi sanoatda zarur boʻladigan infratuzilma yaratish boʻlib, xomashyo yetishtirish va mahsulotni jahon bozoriga olib chiqishgacha boʻlgan jarayonni oʻz ichiga oladi. Respublikada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga doir koʻrgazma, koʻrik-tanlov, xalqaro simpozium va anjumanlar oʻtkazilmoqda. Bu tadbirlarni oʻtkazishdan maqsad hunarmandlar bilan nazariyotchilarning oʻzaro hamkorligini yoʻlga qoʻyish, ularni ragʻbatlantirish, oʻzaro tajriba almashish va hunarmandchilikda anʼanalarni saqlab qolish kabi masalalarni qamrab oladi. Jumladan, “Mustaqil yurt hunarmandlari”, “Oʻzbekiston xalq amaliy sanʼati–dunyo nigohida”, “Mustaqillik nafasida kamol topgan hunarmandlar”, “Navqiron Oʻzbekiston”, “Qayta tiklangan hunar”, “Vatanim taraqqiyotiga mening hissam”, “Tashabbus”, “Ipak va ziravorlar”, “Doʻppi tikdim ipaklari tillodan”, “Qoʻli guldin oʻzbek ayolin”, “Hunarim-gavharim”, “Yilning eng yaxshi hunarmandi”, “Qoʻgʻirchogʻim–ovunchogʻim” anʼanaviy qoʻgʻirchoqbozlik sanʼati bayrami, “Navroʻz”, “Mustaqillik” bayramlari munosabati bilan koʻrgazma va koʻrik-tanlovlarda hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki Amerika, Fransiya, Yaponiya, Malayziya, Xitoy,

¹⁸² Surxondaryo viloyati DA, 95-jamgʻarma, 12-roʻyxat, 22-yigʻma jild, 62-varaq.

¹⁸³ Surxon tongi. 1997, 15 aprel.

Rossiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Jazoir kabi davlatlarda o'z xaridorlarini topmoqda¹⁸⁴.

O'tkazilayotgan ko'rgazmalarining diqqatga sazovor tomoni shundaki, Surxon vohasi hunarmandlari xorijliklar bilan o'zaro tajriba almashish, milliy hunarmandchilik buyumlarini xorijga eksport qilish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy valyuta kirib kelishiga erishish, qo'lda tayyorlangan har bir buyumini san'at asari darajasiga ko'tarishga hissa qo'shmoqda.

Boysun hunarmandchiligining shuhrat topishida nafis va bektakror go'zallikni buyumda aks ettirgan zargar hunarmandlarning xizmati beqiyosdir. Zargarlik san'ati bilan shug'ullangan hunarmandlar asrlardan-asrlarga o'ziga xos san'at maktabini yaratib, oilaviy zargarlik sulolalarini shakllantirdi. Jumladan, usta Xudoyqul zargar, Ostonqul zargar, Xayit kichkina, Abdi zargar, Qurbon Murot zargar, Xolmamat zargar, Xurram zargar, Mengnor zargar, Mavlonqul zargar, Qulmamat kabi zargarlar Boysunning Tuzbozor mavzesidagi zargarlik maktabining oilaviy sulolari hisoblanadi. Ibroxim zargar, Ismoil zargar, Safar zargar, Muqum zargar, Raxmonqul zargarlar Poygaboshi qishlog'ida yashab ijod qilgan. Hamid zargar, Kenja zargarlar Ko'ktepa qishlog'ida, Maxmudzargar, Mullo Nurman zargar, Xursan zargar Omontepa qishlog'ida umurguzaronlik qilgan. Boysun zargarlarini keyingi avlodi sovet hokimiyati davrida, ya'ni 1953-1954 yillargacha faoliyat ko'rsatgan. Mustaqillik yillarida Boysun zargarlari sulolasini davomchisi bo'lgan Xomid zargarni chevarasi Fayzullo Hamidov ushbu zargarlar ishini davom ettirib, Poygaboshi mahallasida zargarlik ustaxonasini tashkil etdi. Fayzullo zargar tomonidan sirg'a, ayollar taqinchoqlari, lotibindi, blakuzuk, kifti, poncha, xolbindi, sirg'a, uzuk, shokila, ko'zgu, pardoz buyumlari va boshqa buyumlar tayyorlanmoqda. Boysun hunarmandchiligining taraqqiy etishi bevosita ushbu hudduda yashovchi aholining milliy urf-odat va an'analari naqadar boy ekanligidan dalolat beradi. Ushbu milliy hunarmandchilikni saqlash va

¹⁸⁴ "Hunarmand" uyushmasi joriy arxivi. 2016 yil.

rivojlantirish borasida boysunlik hunarmandlar o'zlarining tengi yo'q xizmatlarini qo'shish bilan bir qatorda yosh avlodga o'rgatib kelmoqdalar¹⁸⁵.

Surxon gilamlari - Surxon vohasida gilam qadimdan to'qilib kelingan. Surxon vohasi tog'i etagida yashovchi aholi (asosan qo'ng'irotlar, chig'atoylar) qadimdan gilamchilik bilan shug'ullangan. Ular bosma kigiz, sodda to'qilgan olachadan tortib taqir gilam, qoli (qolin) gilamlargacha tayyorlashgan. Xonadonlarda asosan to'qilgan tuz xalta, oyna xalta, dasturxon, xurjunlar, qop, shuningdek ot jabduqlarini uchratish mumkin. Surxondaryoda 1997 yil gilam tayyorlash rejasi 26,1 foizga bajarilgan. 1998 yil yanvarda Surxondaryoda "Hunarmand" uyushmasi bo'limi tashkil qilinib¹⁸⁶, dastlab viloyatda 20 turdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarila boshladi¹⁸⁷.

Odatda, qishloqda gilam to'qiladigan qolip, ya'ni, do'kon ikki usulda qo'yiladi: tik ustunlarga o'rnatilganida arabi gilam, yerga yotqizib qo'yilganida esa turli joylarda turlicha – qoqma, ya'ni sholcha gilam to'qiladi. Bu jarayonda ishlatiladigan jihoz-uskunalar nomlari ham qiziq: arabi gilam kichikroq taroqqa o'xshagan tishli asbob – *to'qmoq* bilan to'qilsa, shol gilam to'qishda qo'llanadigan uzun, eni bir qarichcha keladigan, sirti yassi *taxta qilich* deb ataladi. Gilamga asos bo'ladigan, bo'yiga tortilgan iplar orasidan ko'ndalangiga o'tkazilib to'qiladigan ip *shardo*z deyiladi. Yerqolipga qo'yilgan gilam to'qish uchun ancha qulay bo'lgan. Gilamga gul tanlab nusxa solishda kattalardan maslahat olingan¹⁸⁸.

Olacha gilamning qoqma olacha turi orqov (ko'ndalang to'qilgan) qattiq tut yoki o'rik yog'ochidan yasalgan 0,6-0,7 m lik to'quv dastgoxi (qilich) bilan urib-qoqib to'qilganligi uchun shu nom bilan ataladi. Gilamga solingan har bir gul ma'lum ma'noda chiroyini shakllantirgan. Hozirgi paytda to'qilishi deyarli unutilayozgan «Oy gilam»larga esa ipak iplar yordamida koinot va falak tasviri tikib chiqilgan¹⁸⁹. Taqir gilam - Asosan to'g'ri to'rtburchak shaklida to'qiladi. U uch yo'laklik bo'lib, ana shu yo'laklar gilamlarga xos naqshlar — geometrik

¹⁸⁵ Tursunov S. N. Rashidov Q. Boysun. Akademik nashr nashriyoti.227-229-betlar.

¹⁸⁶ Surxondaryo viloyati hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. Termiz, 1998. B. 148.

¹⁸⁷ Surxon tongi. 1997 yil 4 mart. 8-son.

¹⁸⁸ Dala yozuvlari .Sherobod tumani Xomkon qishlog'i. 2022 yil

¹⁸⁹ Dala yozuvlari. Denov tumani Hazarbog' mahallasi , 2021 yil.

shakldagi turli bezaklar bilan bezatiladi. Taqir gilam enli xolda to‘qilib, enlar pishiq choklar orqali bir-biriga tikilib, birlashtirilmaydi, aksincha butunicha to‘qilib, to‘qilish va gul solinishi usuli bilan gilamchilik texnologiyasiga yaqin tursa-da, patsizligi tufayli olachaga ham o‘xshab ketadi. Shuning uchun ham taqir nomini olgan. Ko‘hna gilam namunalari hozirda ham ayrim xonadonlarda saqlanmoqda. Gilamlar ularning turli shakldagi bezaklar xalqlar tarixi etnografiyasini o‘rganishda ajoyib manba bo‘lib xizmat qiladi. Birgina 70/80 sm hajmdagi oygilamni to‘qish uchun 4–5 kg ip hamda 15 kun vaqt ketadi. Xorijlik sayyohlar uchun gilamning bir kvadrat metri 500–1000 AQSh dollari qiymatida sotilmoqda. Ayniqsa, uy sharoitida qo‘lda to‘qilgan gilam, sholcha va kigizlar ishlab chiqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Gilamlarning olacha, terma, taqir, qoqma, gajari, paxta kabi turlari naqshlari, ranggi va to‘qilish texnologiyasi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sohasida ham o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, Jarqo‘rg‘on shahri ip-gazlama kombinatida 1991 yil 27,0 mln so‘mlik va 1992 yilda esa 216,6 mln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi¹⁹⁰.

Kigiz — jun tolalardan kigiz (namat) buyumlari tayyorlash kigiz bosishda jun tolalarning to‘qilish xususiyatlari (dag‘al-mayinligiga fizik-mexanik xususiyatlari: elastikligi, cho‘zuluvchanligi, kirishuvchanligiga ahamiyat beriladi. Ilgari va hozirda ham Surxon vohasi qishloqlarida asosan o‘zbek qo‘ng‘irotlarida kigiz bosish qo‘lda bajariladi. Kigiz bosish kasbi, asosan qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullangan barcha xalqlar orasida keng tarqalgan. Surxon vohasida kigizning guldor, ifodali rang-barang naqshli turlari tayyorlanadi. Besherkak, Uzunquduq qishloqlarida tayyorlangan kigizlar¹⁹¹ o‘z rangi naqshi, guli bilan Xomkonda yoki Pulhokim va Dashtig‘ozda tayyorlangan kigizlardan farq qiladi. Kigiz tayyorlash bilan asosan ayollar shug‘ullanadi. 1994 yili Boysun “Rabot” jamoa xo‘jaligida ham gilam to‘qish va kigiz tayyorlash sexi ishga tushib, ishchilar soni 18 nafarni tashkil etgan¹⁹².

¹⁹⁰ Tursunov A. Janubiy shaharlardagi iqtisodiy o‘zgarishlar// Jamiyat va boshqaruv. –2008. –№2.– B.82.

¹⁹¹ Dala yozuvlari . Boysun tumani Uzunquduq va Besherkak qishloqlari. 2022 yil.

¹⁹² Boysun ovozi. 1994 yil 6 may. 13-son.

Mustaqillik yillarida Surxondaryoda tarixiy-iqtisodiy vaziyat tufayli rivojlanmay qolgan milliy hunarmandchilik turlarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Surxon va Qo'ng'iro't yo'nalishlarida shakllanib kelgan Boysun kashtachiligi qayta tiklanib, u xalq iste'moli mollari sifatida bozorga sotuvga chiqarildi. Bu ikki usullar bir-biridan deyarli farq qilmasa-da, naqsh turi va ranglari bilan ajralib turadi. Bugun Boysun aholisi hunarmandchilikning mato to'qish, kashtachilik, sandiqchilik, beshikchilik, kulolchilik, gilamdo'zlik va namat tayyorlash, bo'yra to'qish, yog'och o'ymakorligi, milliy musiqa asboblari yasash va temirchilik sohalari bilan shug'ullanib kelmoqda¹⁹³.

O'rganilayotgan davrda vohada aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo'lgan talabini qondirish va ish bilan ta'minlash maqsadida xususiy korxonalar faoliyatiga keng o'rin berildi. Jumladan, 1996 yilda Sariosiyo tumani "Y.Oxunboboev" nomli jamoa xo'jaligida "Shoyim" hunarmandchilik korxonasi tashkil etildi. Korxonaning maqsadi aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, hunarmandlarni dunyoga tanitish uchun mahsulotlarni xorijga eksport qilishdan iborat¹⁹⁴.

Bugungi kunda hududlarda qandolatchilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa ko'plab sanoat korxonalari faoliyat olib bormoqda. Milliy madaniyat targ'iboti, ijodkorlarga ijod erkinligi berilishi hunarmandlarga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Hunarmandchilikda kichik tadbirkorlik quyidagi xususiyatlarga ega:

- hunarmandchilikning ishlab chiqarish sohasiga mansubligi;
- ishlab chiqarish jarayonida qo'l mehnatining ustuvorligi;
- hunarmandning xususiy mulkdor sifatida ishlab chiqarish jarayonida shaxsan ishtirok etishi;
- mahsulotlarning kerakli miqdorda ishlab chiqarilishi;
- milliy an'ana, ijodkorlik va yaratuvchanlik xususiyatlari saqlanib qolganligi.

¹⁹³ Dala yozuvlari. Boysun tumani, Boysun shahri. 2022 yil.

¹⁹⁴ Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev V. Surxondaryo tarix ko'zgasida. ... – B. 321.

Janubiy hududlarda kichik va oʻrta korxonalarni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatining qoʻllab-quvvatlash tufayli hunarmandlarga keng imkoniyatlar yaratilib, ularning samarali ishlashi uchun xom ashyo yetarlicha taʼminlab berilmoqda. Har yili viloyatlar hunarmand uyushmasi aʼzolari Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasidan loyiha mablagʻlari asosida faoliyatini rivojlantirmoqda. Masalan, 1998 yil Sherobodagi “Dilafroʻz” xususiy korxonasida junni qayta ishlash yoʻlga qoʻyildi. Bu korxona 264 tonna sifatli jun ip ishlab chiqarib, kichik toʻqimachilik korxonalariga yetkazib berish bilan shugʻullanadi¹⁹⁵.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun oʻtkaziladigan “Tashabbus” koʻrik-tanlovida “Eng yaxshi hunarmand” yoʻnalishida Surxondaryo vohasi hunarmandlari faol ishtirok etib kelmoqdalar. Jumladan, 1996 – 2017 yillarda kulol Asrorov Quadrat (Sherobod tumani), duradgor Toʻraqulov Yoqub (Boysun tumani), kashtachilik boʻyicha Toshboeva Iqlim (Shoʻrchi tumani), kashtadoʻz Suyunova Oʻgʻilbaxt (Boysun tumani), tunukachi Alimov Isomiddin (Denov tumani) va boshqalar ishtirok etishgan¹⁹⁶.

III bob yuzasidan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda hunarmandchilik anʼanalarini saqlab qolish, tiklash, rivojlantirish va ularni kelajak avlodga yetkazish maqsadida keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirildi. Hunarmand ustalarning ijtimoiy mavqei sezilarli darajada yuksaldi. Oʻzbek xalqining milliy qadriyatlarini asrash, anʼanaviy hunarmandchilikning unutilayotgan sohalarini tiklash va targʻib qilish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi hamda qator uyushma, tashkilotlar tuzilib, viloyatlarda hududiy boʻlimlari tashkil qilindi. Milliy hunarmandchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga ham alohida urgʻu berildi. Hududlarda hunarmandchilik markazlarini tiklashga eʼtibor qaratilib, yogʻochga ishlov berish, zargarlik,

¹⁹⁵ Surxondaryo viloyati Davlat arxivi. 1-баённома, 3-хужжат. 1999 yil 14 yanvar

¹⁹⁶ Hunarmand uyushmasi joriy arxivi. 8-yigʻma jild. 2017 yil.

kandakorlik, to'quvchilik, shishasozlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kulolchilik, to'quvchilik va boshqa hunar turlarini qayta tiklash yuzasidan hunarmand va korxonalar faoliyati davlat tomonidan rag'batlantirildi. Kasanachilikka keng yo'l ochildi. Biroq, mustaqillikning dastlabki yillarida eski tuzilmalarni buzib tashlash hali barham topmagan edi. Tuzilmalarni o'zgartirish siyosatini hayotga tatbiq etish eng yaqin istiqbolning tub muammosi etib belgilandi. Eski tuzumdan meros bo'lgan iqtisodiyotning noto'g'ri tarmoq tuzilmasi viloyatlarda uzoq vaqtgacha o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib keldi.

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik sohasining rivojlanishi hamda taraqqiy etishi uchun muhim iqtisodiy va ma'naviy zamin yaratildi. Mustaqillik yillarida o'tkazilgan islohotlar tufayli Surxondaryo viloyatining tog'li tumanlarida zamonaviy, jahon andozalariga mos keladigan korxonalar qurildi, mavjudlari qayta ta'mirlanib, zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlandi. O'rganilayotgan hududda dastlabki yillarda bu korxonalarning ba'zilar uzoq muddat faoliyat olib bormagan bo'lsa-da, sanoat ishlab chiqarishi tarkibi o'zgarib, qishloq xo'jaligi xom ashyosi va mineral resurslarini qayta ishlash, ularni tayyor mahsulot darajasiga etkazish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, korxonalar o'zini-o'zi tiklash imkoniyatiga ega bo'lib, bozor talabida mahsulot ishlab chiqarish va sotish evaziga texnik jihatdan qayta jihozlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Sovet davrida qoloq deb e'tirof etilgan viloyat iqtisodiyotida jahon andozalariga to'g'ri keladigan mahsulotlarning yangi turlari ishlab chiqarilib, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Yangi ishchi o'rinlari yaratildi, milliy hunarmandchilik namunalarining xorijiy davlatlarda keng ko'lamda namoyish etilishi uchun keng yo'l ochildi. Mahalliy xom ashyodan tovar ishlab chiqarish va jahon bozoriga chiqarishga alohida e'tibor qaratildi. Hunarmandchilik nafaqat milliy an'ana va qadriyat, balki daromad keltiruvchi soha sifatida xalq xo'jaligida o'zining o'rniga ega bo'la boshladi. Qolaversa, bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarmandchilikdagi transformasiyalar kasanachilik, bozor turizmi, kichik biznes va tadbirkorlik ko'rinishlarida namoyon bo'ldi.

Surxon vohasi iqtisodiyotida turizm infrastukturasini rivojlantirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish bozori shakllandi. Hunarmandchilik mahsulotlari sovg‘abop buyumlar bozori negizini, ya’ni hunarmandchilik tijorati asosini tashkil qiladi.

XULOSA

“Mustaqillik yillarida tog‘oldi aholisining xo‘jalik-madaniy an‘analari (Surxondaryo viloyati misolida)” monografiyasi quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga asos bo‘ldi:

1. Mintaqa aholisi o‘zining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida xo‘jalik yo‘nalishlarining turli sohalarini rivojlantirib kelgan. Etnoslar kundalik turmushda asosiy mahsulotlarni etkazib beruvchi dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik sohaları taraqqiyotiga alohida ahamiyat qaratganlar. Mintaqada bunday o‘ziga xos sharoit qadimdan bu joyda xo‘jalikda turli ishlab chiqarish shakllari, jumladan, an‘anaviy xo‘jalikni rivojlantirish imkonini bergan.

2. Monografiyada Surxon vohasining turli tumanlarida o‘rganilayotgan davrda an‘anaviy xo‘jalik tarmoqlari rivoj topganligi, tog‘oldi mahallalarida ham ishlab chiqarish mahsulotni tovar shaklida, tog‘ qishloqlarida bu davrda ham buyurtmaga yoki boshqa ehtiyojlar natijasida taraqqiy etganligi tarixiy-etnografik hududdagi turli etnik jamoalar zamonaviy tadbirkorligi misolida ko‘rsatib berildi.

3. Surxondaryoda yashovchi o‘zbek, turkman va tojik xalqlari xo‘jaligida dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik va xunarmandchilik tarmoqlari o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Bularning etnohududiy xususiyatlarni saqlanib qolishiga etnoslar xo‘jalik-madaniy tipi, tabiiy-geografik sharoit, hududda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ta’sir ko‘rsatgan (xususan mustaqillikning qo‘lga kiritilishi hamda bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tilishi).

4. Mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki 10 yilligida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta’sirida vohadagi xo‘jalikda ayrim tarmoqlarning ishlab chiqarish xarakteri, mahsulot turi, shaklida bir qator o‘zgarishlar yuz bergan. Ammo ko‘p asrlik an‘analari, ayrim mahalliy va etnik xususiyatlarning saqlanib qolganligi kuzatiladi.

5. Hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash usullarini etnografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududda mahsulot ishlab chiqarish shakli o‘zining etnolokal xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni yuzaga kelishiga etnoslar xo‘jalik mashg‘uloti xarakteri, aholi ehtiyojlari va turmush tarzi, hunarmandchilikdagi

etnik an'analar va mintaqaviy xususiyatlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu jihat Surxondaryo tog' va tog'oldi hududlarida yashovchi aholi hunarmandchilik faoliyati asosida ko'rsatib berildi.

6. Surxon vohasi turli hududlari aholisining e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq marosim va urf-odatlarini bir-biridan shaklan o'zaro farqlansa-da, lekin mazmunida yagona tushuncha, ya'ni hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik homiy-pirlariga topinish mohiyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida homiy-pirlar timsolining mahalliy namoyandalari to'g'risidagi tushunchalar aholi dunyoqarashida mustahkam o'rin tutganligi bois bugungi kunga qadar saqlanganligi, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik urf-odatlarini tahlili asosida aniqlandi.

7. An'anaviy xo'jalik bilan bog'liq urf-odat va marosimlarning ilmiy tasnifi, yuzaga kelish omillari, o'tkazish tartibi, tog'oldi hudud aholisining e'tiqodiy tasavvurlari tadqiqi shunday xulosaga olib keldiki, ushbu an'analarni yuzaga kelishiga mazkur davrdagi islom dinining jamiyatdagi kuchli mavqei, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq texnik bilimlarning mazkur davrda etarli emasligi, ichki qoidalar saqlanishiga dehqon va hunarmandlarning intilishi sabab bo'lgan va ular transformasiyaga uchragan tarzda bugungi kunga qadar saqlangan. Hunarmandchilikdagi "usta-shogird" munosabatlari bilan bog'liq an'analar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy hunarmandchilik tarmoqlarida zarur malaka va ko'p asrlik kasb sirlari etnoslar hunarmandchiligidagi ijtimoiy, iqtisodiy, etnik va lokal omillar ta'sirida avloddan-avlodga o'tib kelgan va bugungi kunda usta-shogird an'alarini asrab qolish, rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni keng targ'ib etishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

8. Surxon vohasi iqtisodiyotida an'anaviy xo'jalik tarmog'i muhim ahamiyatga ega. U aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa xomashyo bilan ta'minlaydi. Kelajakda voha iqtisodiyotini yuksaltirish uchun an'anaviy xo'jalik sohalarini rivojlantirish obektiv zaruriyat hisoblanadi. Bu masalani samarali hal etish mexanizmlarini, yo'llarini izlab topish va amaliyotga jalb qilish tom ma'noda asosiy masalaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, hudud

iqtisodiyotining qon tomirlari bo'lgan dehqonchilik, hunarmandchilik, bog'dorchilik va chorvachilik sohalarida asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'ana va qadriyatlar bugungi globallashuv sharoitida o'z ahamiyatlilik darajasini yanada aks ettirmoqda . Ya'ni dunyo hamjamiyatining bizning an'anaviy xo'jalik tarmoqlariga qiziqishi kundan-kunga ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Masalaning biz ko'z yuma olmaydigan ikkinchi tomoni ham mavjudki, dunyoning qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohalarida sinovlardan o'tgan va o'zini oqlagan usullar , tajribalar bugungi kunda bizdagi xo'jalik sohalarida ham an'anaviy metodlar bilan hamohanglikda amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu esa ushbu sohalarning ma'lum darajada transformatsiyaga uchrashiga xizmat qiladi.

Monografiyadagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi taklif, tavsiya va mulohazalarni bildirib o'tish lozim deb topildi :

1. Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish jarayonida tabiiylikni saqlab qolish uchun fanlararo yondashuv doirasida tadqiqotlar tashkil etish ahamiyatli xisoblanadi. Tabiiy mahsulotlarni etishtirishda an'anaviy tajribalarni o'rganish, amaliyotga joriy etish va uni keng targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.

2. Aholi orasida tabiiy, biologik moddalarga to'yintirilgan mahsulotlar iste'molini oshirish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni inobatga olgan holda, dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik sohalarida etishtiriladigan nisbatan qiymati baland tabiiy mahsulotlarga talab va taklif muhiti shakllantirilishi lozim.

3. An'anaviy xo'jalik sohalarida yangi transformasion jarayonlarning ushbu tarmoqlar rivojidadagi ijobiy roli va ahamiyatli jihatlarini aniqlab olish hamda ulardan samarali foydalanish kerak.

4. Hunarmandchilik, bog'dorchilik, dehqonchilik va chorvachilik sohalarining turizm rivojidadagi o'rni beqiyos ekanligini hisobga olgan holda shu sohalar ancha vaqtdan beri bilan shug'ullanib kelayotgan etnoslar, bulardan ma'lum bir turiga ixtisoslashgan mahalla va qishloqlarni turizmga moslashtirish hamda ushbu hudud infratuzilmasini ham yaxshilash bugungi kun uchun eng ustuvor vazifalardan biri bo'lmog'i lozim. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada taraqqiy etishiga,

aholi vakillarining yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlanishi va buning natijasida turmush tarzi yaxshilanishiga va pirovardidi an’anaviy xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishi va modernizasiya qilinishi hamda milliyligimizning jahon xalqlariga tanishtirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 30 mart “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // 1997-yil 1 aprel .Xalq so‘zi gazetasi 8-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgust “Tadbirkorlik sub’ektlarini Davlat ruyxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 357-sonli Qarori. // www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29 iyul 2009 yilgi “Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 216-sonli qarori // Xalq so‘zi. 2009, iyul. // www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi 327-sonli “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.lex.uz

6. Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev . 2017 yil 9 oktyabr. // www.lex.uz.

7. Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokidagi -Qishloq xo‘jaligini diversifikasiya va modernizasiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zb.Res. Prezidenti Farmoni. 2018 yil 20 noyabr. // Lex.uz.

8. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni

tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019 yil 13 avgust. // Lex.uz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 30 mart "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // 1997-yil 1 aprel .Xalq so'zi gazetasi 8-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgust "Tadbirkorlik sub'ektlarini Davlat ruyxatidan o'tkazish to'g'risida"gi 357-sonli Qarori. // www.lex.uz
4. O'zbekistonda kasanachilik: tashkil etish imkoniyati va rivojlantirish tajribasi (qonunchilik va amaliyot). O'quv-uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligi. – T.: 2008.– 183 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29 iyul 2009 yilgi "Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 216-sonli qarori // Xalq so'zi. 2009, iyul. // www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi 327-sonli "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. . // www.lex.uz
7. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohatlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat

Mirziyoevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s‘ezdidagi ma‘ruzasi. // 2006, 21 oktyabr. Xalq so‘zi gazetasi № 10-son.

8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 441 b.

9. Mirziyoev Sh. M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yilning 30 dekabrda mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan bo‘lgan uchrashuvidagi ma‘ruzasi 2016 yil 31 dekabr. // Ma‘rifat gazetasi. № 14 son.

10. Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev . 2017 yil 9 oktyabr. // www.lex.uz.

11. Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokidagi -Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zb.Res. Prezidenti Farmoni. 2018 yil 20 noyabr. // Lex.uz.

12. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub‘ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019 yil 13 avgust. // Lex.uz.

II. Arxiv materiallari:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi. 2008 - 2017 yil hisobotlari.

2. Surxondaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasi hisobotlari. 2015 – 2016 yillar

III.1. Kitob va turkum nashrlar (o‘zbek tilida):

1. Alimqulova D. Amaliy bezak san'ati tarixi. – T.: 2007. – B 71.
2. Annayev T, Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T.: 1997. – B 67.
3. An'anaviy xalq madaniyatini saqlash muammolari. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – B.: 2003.
4. Aqilova K. Surxondaryo xalq amaliy-bezak san'ati // San'at. № 2. –T.:– 2001. — B. 41-44.
5. Ashirov A. O'zbek xalqining tabiat bilan bog'liq sayllari // Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti. – B.: 2002.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining turar joylar bilan bog'liq urfodatlarida diniy e'tiqodlar simbiozi // O'zbekiston tarixi. – 2007. – № 3. –T.:– B. 56-66.
7. Ashirov A. Zamonaviy o'zbek etnologiyasi: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. – 1- qism. –T.: 2005. – B.36-44.
8. Berdiyev X., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar. –T.: 1991. –B .18.
9. Binafsha Nodir. O'zbekiston janubiy hududidagi qo'ng'irotlar badiiy hunarmandchiligi // San'at. – № 2. –T.: – 2013.– B. 17-21
- 10.Boysun bahori–milliy ma'naviyatimiz durdonasi. Xalqaro ilmiy anjumanga bag'ishlangan maqolalar to'plami. –T.: Surxon-Nashr, 2017.– 615 b
11. Boysun tarixi va an'analari. –T.: 2005. – 343 b.
12. Bo'riyev O. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik va milliy g'oya. –T.: Akademiya, 2001. – B. 206-209.
13. Bo'riyev O. Janubiy O'zbekiston qishloq jamoasida paykal tizimi (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari) //An'anaviy xalq madaniyatini saqlash. –T.: 2004 .– B 99-104.
14. Bo'riyev O., Iskandarov Sh. Mahalla – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maskani // Ijtimoiy fikr. № 2. – T.: 2011.– B. 24-27.
15. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Yangi nashr, 2011.– B. 73

16. Gyul E. O‘zbekiston badiiy to‘qimachiligida ranglar jilosi // San'at. № 3-4 . – T.: 2008. – B. 22-25.
17. Ismoilov H. An‘anaviy o‘zbek kiyimlari. – T.: 1978. – B 53 .
18. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: O‘quv qo‘llanma – T.: O‘qituvchi, 2003. – 208 b.
19. Kichkilov X., Qobilov E. Surxon vohasi qo‘ychiligida ajdodlarimiz an‘anasi // Jayxun. – № 3-4, 2005. – 236 b.
20. Lunin B. 20-30-yillarda O‘zbekistonda etnografiya masalalarining o‘rganilishi // XX asrning o‘ttizinchi yillarida O‘zbekistonda tarix fani (Tarixshunoslik ocherklari). 2-qism. – T.: 1994. B. 309-327.
21. Nafasov T. Janubiy O‘zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. – T.: 1985. – 314 b.
22. Olimboyev E., Davidov Sh. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi. – T.: 2002. – B. 26-30
23. Pardayev T. Ot va u bilan bog‘liq an‘analar // O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot. Respublika ilmiy anjuman materiallari. – T.: 2015. – B. 31-35.
27. Qayumov A. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vodiysidagi etnik jarayonlarning ba‘zi omillari.// O‘zbekiston tarixi. № 4. – T: 2001. – B. 27-31.
28. Qayumov A. Xo‘jalik-madaniy tiplar va etnik differensiatsiya masalalariga doir (Surxon-Sherobod vodiysi materiallari asosida) // O‘zbekiston tarixi. – T.: 2008. – № 3. – B. 61-72.
29. Qayumov A. O‘zbekiston xalqlari xo‘jalik an‘analarida etnik va lokal xususiyatlar / O‘zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – T.: 2006. – B. 176-183.
30. Qayumov A. Sherobod vohasi aholisi (XIX – XX asr boshlari) //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. № 3 – T.: 1998. – B. 34-39.
31. Qobilov E. Hunarmandchilik mahsulotlari: turlari va o‘ziga xos xususiyatlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2011. – № 1. – T.: – B. 131-133

32. Qobilov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – T.: 1993. –114 b.
33. Qobilov E. Surxon vohasi xo‘jaligi. – T.: Akademnashr, 2012. -390 b.
34. Qobilov E. Surxon vohasi chorvachiligi atamallari // O‘zbekistonda moddiy madaniyat va etnomadaniy jarayonlar. – T.: 2010. – B 50-56.
35. Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi vohasi etnografiyasi. – T.: “Yangi nashr” , 2014. – 158 b.
36. Sarimsoqov B. Marosim folklori // O‘zbek folklori. Ocherklar. – T.: 1988. – B 11-13.
37. Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: Fan, 2001. – 196 b.
38. Tolipova N. Yog‘och o‘ymakorligi san’ati // Moziydan sado. – 2008. – № 4. – T.: – B. 20-22.
39. Tursunov S. Denov. – T.: Fan, 2009. – 496 b.
40. Tursunov S., Pardayev T. va b. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – T.: 2013. – 324 b.
41. Tursunov S., Qobilov E. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgasida. – T.: Sharq, 2001. – 382 b.
42. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – T.: Akedemnashr, 2011. – 560 b.
43. Tursunov S. Surxondaryo tarixi. – T.: 2007. – 388 b.
44. Tursunov S. Sherobodliklar. – T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2007. – 388 b.
45. Tursunov S. Sherobod tarixidan lavhalar– T.: Yangi nashr, 2014. 356 b.
46. Xakimov A. Boysun kashtasi // Moziydan sado. – № 1. – T.: 2004. – B 2-7
47. Xolmo‘minov X. Boysun nohiyasi va uning atrof-hududlari mikrotoponimlari. – T.: 1993 . – B 19.
48. Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – B.: 2002. – 646 b.
49. Ziyayeva D. XIX – XX asr boshlarida Turkiston shaharlari tadbirkorlik tarixidan // O‘zbekiston tarixi. – 2007. – № 3. – T.: – B. 18-30.

50. Ziyayeva D. O‘zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida– T.: 2013.– 338 b.

51. O‘roqov M., G‘aniyev K. An‘anaviy hunarmandchilik – milliy meros fenomeni sifatida // Markaziy Osiyoda an‘anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 2-qism – T.: 2005. – B. 128-133.

52. O‘zbekiston hududida an‘anaviy etnoslararo jarayonlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Mas‘ul muhar. D.A.Alimova, A.A. Ashirov .– T.: 2011. 164 b.

III.2. Kitob va turkum nashrlar (rus tilida):

1. Атаджанова Д. Некоторые сведения из рисола – источник о развитие отдельных отраслей истории ремесла // O‘zbekiston tarixi. – № 5. –T.: – 2005.– С.73.

2. Басов Д. Пайкалы Ширабадской долины // За реконструкцию сельского хозяйства. . №2. – С.: 1929.

3. Бартольд В. Гиссар (Хисар) / Соч. Т. III. – М.: 1965. – С. 354

4. Дидрих Т. Топонимы бассейна Сурхандарьи, включающие понятия «группа», «община» / Ономистика Средней Азии. – Ф.: 1980. – С. 139-241.

5. Кармышева Б. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана. Советская этнография.– Т.:1969. - № 3. – С 113-115.

6. Кармышева Б. О туркменах долины Сурхандарьи // Проблемы этногенеза Туркменского народа. – А.:1977. – С. 117-120.

7. Кармышева Б. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана // КСИЭ. Вып. XXVII. 1957. – Т.: – С. 14-19.

Каюмов А, Аширов А. Особенности этнического состава населения Байсуна. // Труды Байсунской экспедиции. – Т.: 2003. – Вып. 1. – С. 40-44.

8. Каюмов А. Этническая ситуация на территории южного Узбекистана в XIX – начале XX века (по материалам Сурхан-Шерабадской долины). Автореф. дисс... канд. ист. наук.– Т.: 2011.– С. 31

9. Кондрашев С. Водопользование Ширабадской и Сурханской долине Бухарского ханства // Материалы работы гидромодульной части отдела земельных улучшений. . Вып. 14– М.: 1918. – С . 44
10. Козлова С. Традиционное животноводство старообрядцев (семейских) Забайкалья: динамика и символика // Научный диалог. № 4 . – М.:– 2019. – С 194-195.
11. Султанов М. Этнографические наблюдения в Сурхандарьинской области // Сурхондарё вилояти ҳокимлиги Иқтисодиёт ва статистика бош бошқармаси. – Т.: 1993. – 104 б.
12. Труды Байсунской экспедиции. – Вып. I. – Т.: 2003. – 520 с.
13. Егорова О., Дмитриева И. Игауэ Н. Развитие скотоводства и институт пастушества чувашей в XIX - начале XXI в. // Вестник Чувашского университета. - № 4. – М.: – 2017. – С 40.

IV. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Atadjanova D. Istorigrifiya remeslennogo proizvodstva Buxarskogo xanstva XIX v. (na osnove izucheniya literaturi i remeslennix ustavov «Risola»): Diss. ... kand. ist. nauk. – Т.: 2008. – 181 s.
2. Davlatova S. O‘zbekistonning janubiy hududlari an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) .: Tarix fan. dok. ... diss. – Т.: 2019. – 313 b.
3. Ochirdiyev F. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot (Surxon vohasi misolida): Tarix fan. nom. ... diss. – Т.: 2006. – 128 b.
4. Tillayev E. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar (Janubiy viloyatlar misolida): Tarix fan. nom. ... diss. – Т.: 2010. – 185 b.
5. O‘roqova N. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida sanoat sohasidagi islohatlar va o‘zgarishlar jarayoni (Janubiy viloyatlar misolida): Tarix fan. nom... diss. – Q.: 2004. – 145 b.

6. Qilichev U. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlantirilishi (1991-2006 yillar).: Tarix fan. nom. ... diss. – T.: 2010. – 191 b.
7. Qobilov E. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi.: Tarix fan. dok. ... diss. – T.: 2018. – 284 b.
8. Odilov B. XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari tadqiqotlarida o‘zbek xalqining an’anaviy xo‘jaligi masalalari . Tarix fan. f.d... diss. – – T.: 2019. – 199b
9. Turdimuratov Ya. XX asrda Surxon-Sherobod vohasi areal xo‘jalik madaniyati (chorvachiligi misolida). Tarix fan. f.d... diss. – Toshkent, 2019. –195b
10. Tursunov N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari. Dis., t. f. n. O‘zRFA Tarix instituti, – T.: 2007. – 179 b

V. Davriy matbuot materiallari:

1. Surxon tongi. 1997- 2012 yillar.
2. O‘zbekiston ovozi. 1992 yil.
3. Xalq so‘zi. 1992- 2017 yillar.
4. Boysun ovozi. 2010-2016 yillar.

VI. Internet ma’lumotlari:

1. www.e-tarix.uz
2. www.google.ru
3. www.baidu.com
4. www.archieves.com
5. www.tadqiqot.uz
6. uzbekistan.travel.uz
7. www.etno.jurnal.uz - Etno jurnal sayti
8. [http: // www. iea. ras. ru](http://www.iea.ras.ru) - Mikluxa Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya instituti veb sayti.
9. [http: // www.uz.history.uz](http://www.uz.history.uz). - O‘zR FA Tarix instituti veb sayti
10. [http: // www.ethnos.ru](http://www.ethnos.ru) - Rossiya xalqlari etnografiyasi sayti.

Toshtemirov Akram Mengli o'g'li

**MUSTAQILLIK YILLARIDA TOG'OLDI AHOLISINING XO'JALIK-
MADANIY AN'ANALARI
(Surxondaryo viloyati misolida)**

Monografiya

Muharrir: M.Talipova
Musahhih: N.Niyazova
Kompyuterda tayyorlovchi: B.Haydarov



№ 10-3279

Bosishga ruxsat etildi: 18.12.2024-yil
Bichimi 60x84 ^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 4,6. Adadi 100. Buyurtma № 17-12
Тел: (99) 832 99 79; (77) 300 99 09
“Dimal” MCHJ nashriyoti, 100071,
Toshkent, Huvaydo ko'ch 2A-25.
«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shaxri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

